

# TARBIYA 11

## BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining  
11-sinf oʻquvchilari uchun darslik

Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan



Toshkent - 2021

UO'K 373.3.016:17(075.3)

KBK 87.7ya72

T 23

Tarbiya [Matn]: 11-sinf uchun darslik / D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Isломov, D. Rahimjonov, D. Ruziyeva, Z. Zamonov, O. Mahmudov, S. Shermuhammedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova.  
– Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

**Mas'ul muharrir:**

*Dilshod Kenjayev* – tarix fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:**

- Vahob Qo'chqorov* – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, siyosiy fanlar doktori
- Sherzodxon Mahmudov* – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori o'rinbosari, tarix fanlari nomzodi, dotsent
- Otabek Bazarov* – Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi boshqarma boshlig'i, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
- Liliya Gaynutdinova* – O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori
- Humoyun Rashidov* – Xalq ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
- Shoira Raupova* – "Ziyo-zukko umumta'lim maktabi" NTM o'qituvchisi
- Mohim Boboyeva* – Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 222-maktab o'qituvchisi

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Din ishlari bo'yicha qo'mita va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining  
tegishli xulosalari asosida nashrga tayyorlangan.

**SHARTLI BELGILAR**



Original maket va dizayn konsepsiyasi  
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

## QADRLI O'QUVCHI!

*Hademay mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'yasiz. Sizni oldinda kundalik turmushning oddiy sinovlari-yu "past-u baland"idan tortib umrning ajoyib va g'aroyib sinalmagan so'qmoqlari kutib turibdi. Chunki bu tiriklik kengliklarida yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va yolg'onchilik, halol va harom kabi fazilat-u nuqsonlar kezib yuribdi. Ular yonma-yon yashaydi. Albatta, hayot mana shunisi bilan rang-barang, sir-sinoatlidir.*

*Tasavvur qiling, hayotda ilk bor mushkul vaziyatga duch keldingiz va uni qanday yengishni bilmayapsiz. Unga qarshi kurashish uchun o'zingizda kuch-qudrat topa olmayapsiz. Xo'sh, siz kimga yoki nimaga murojaat qilasiz?*

*Shubhasiz, bunday paytlarda ota-onalar va yaqinlaringizning samimiyat va pokizalikka asoslangan shaxsiy ibrati, murabbiy-ustozlaringizning mehribonlik va talabchanlikka yo'naltirilgan ta'lim-o'g'itlari juda ham asqatadi. O'n bir yil mobaynida boshqa fanlar singari "Tarbiya" darsligidan ham olgan go'zal tarbiya, bilim va ko'nikmalingiz yordamga keladi.*

*Mazkur darslikda "Erkin va farovon hayot mazmuni", "Dadil qadamlar bilan katta hayot sari", "Ibrat maskani", "Missionerlik – yoshlar kelajagiga tahdid", "Renessans poydevori", "Halollik vaksinasi" kabi qiziqarli mavzular, fikr-mushohadaga chorlaydigan ijodiy topshiriqlar keltirilgan. Bular sizga kelgusida qoqilmasdan, huda-behuda, foydasiz ishlarga chalg'imasdan munosib hayot yo'lini topishda samimiy ko'makdosh, yaqin sirdosh vazifasini o'taydi, deb umid qilamiz.*

*Hurmat bilan Siz aziz umidli yoshlarni baxt va muvaffaqiyat sirlaridan ogoh etuvchi, nurli kelajak sari yo'llab qoluvchi*  
**mualliflar jamoasi**

# I BOB. OILAVIY QADRIYATLAR

## 1-MAVZU: VATAN TARAQQIYOTIGA MEN HAM MAS'ULMAN



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Mas'uliyat nima?
2. Siz o'zingizni mas'uliyatliman deb ayta olasizmi? Nima uchun bunday xulosaga keldingiz?
3. Vatanimiz taraqqiyotida sizning qanday hissangiz bor? Siz kelajakda tanlamoqchi bo'lgan kasb Vatan taraqqiyotiga qanchalik ta'sir etadi, deb o'ylaysiz?
4. "Ma'naviy hayot", "moddiy ne'mat", "halol inson" tushunchalarini qiyoslab, mushtarak jihatlarini ayting.
5. Daxldorlik nima? U qanday sharoitda vujudga keladi?
6. Burch, majburiyat va daxldorlik bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
7. Jamiyatning faol a'zosi sifatida biz nimaga daxldor bo'lishimiz kerak? Bizning mas'uliyatimiz nimalardan iborat?

### Mulohaza uchun



Insondagi daxldorlik – biror-bir faoliyatga, jarayonga aloqadorlik va sheriklikni anglatadi. Har bir fuqaro Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashasa, uning jamiyat oldidagi burch va mas'uliyati ham kuchayib boradi. Daxldorlik hissi insonlarni birlashtiradi.



### Ijodiy faoliyat

1. Oila, mahalla, davlat va jamiyat o'rtasidagi daxldorlik hissi va mas'uliyati bo'yicha ro'yxat tuzing. Ularni bir-biri bilan bog'lang.
2. N. ismli o'quvchi darsga tayyorgarliksiz keldi. O'qituvchi uni sinf oldida izza qildi. N. esa: "Menga tanbeh berishga haqqingiz yo'q, mening ota-onam bor, xohlasam, darsga qatnashaman, xohlamasam – yo'q", – deb javob berdi. Bu holatga sizning munosabatingiz qanday? Ushbu vaziyatni baholang. O'quvchilar kelajagining o'qituvchiga qanday daxli bor?
3. Qadriyat va daxldorlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi bormi? Fikringizni asoslang.



### Ijodiy faoliyat

“Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar”.

*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasidan*

1. Mazkur qoidani daxldorlik tushunchasi bilan bog‘lab tushuntiring. Fikringizni misollar bilan asoslang.

2. Soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik mamlakat rivojiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?

3. “Iqtisodiy bilim asoslari” fanidan olgan bilimlaringizga tayangan holda quyidagi savollarga javob bering:

– Soliqlar nima uchun yig‘iladi?

– Soliqlardan tushgan daromad qanday maqsadlarga sarflanadi?

– Davlat va jamiyatning rivoji, tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, ijtimoiy muhofazani amalga oshirishga soliqlarning qanday daxli bor? Bu jarayonlarning ta‘minlanishi sizning hayotingizga ta‘sir ko‘rsatadimi?

### Mulohaza uchun



### Munosib hissa



“Biz tom ma‘noda yangi O‘zbekistonning farzandimiz, – deydi Qorako‘l tumanidagi matematikaga ixtisoslashgan maktabning 9-sinf o‘quvchisi Anvarbek Rahmatov. – Respublika va xalqaro olimpiadalarda sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritdim. Janubiy Afrikada o‘tkazilgan fan olimpiadasida oltin va bronza, Ozarbayjonda o‘tkazilgan fan olimpia-

dasida esa kumush, Jautikov nomidagi Xalqaro olimpiadada bronza medaliga ega bo‘ldim. Bu yutuqlarim asosida mamlakatimizda biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishim yotadi, deb o‘ylayman.

Niyatlarim juda katta. Maqsadim bizga berilayotgan barcha imkoniyatlarga oltin medallar bilan javob berish orqali Vatanim dovrug‘ini dunyoga tanitishdir”.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi Qarori bilan Anvarbek Rahmatov “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlandi.



Mulohaza uchun



**Qurbaqa**

Bir o'rmonda yong'in bo'libdi. Jonivorlarning bir qismi kuchlari yetgan narsa bilan suv tashib, o'tni o'chirmoqchi bo'lishibdi. Ikkinchi qismi esa bundan hech narsa chiqmaydi deb, chetroqqa chiqib tomosha qilib turibdi. Bir qurbaqa o'tni o'chirish uchun og'zida suv olib ketayotgan ekan. Buni ko'rgan qarg'a uning ustidan kulib debdi: "Mana shu suving bilan olovni o'chiraman, deb o'ylayapsanmi?" Qurbaqa unga shunday javob beribdi: "Bilaman, bu suv bilan o'tni o'chirib bo'lmaydi. Lekin men bu harakatim bilan yaxshilik tomonida turganimni bildiraman".



Ijodiy faoliyat

1. Jamiyat ravnaqi uchun o'zingizni qanchalik mas'ul deb hisoblaysiz?
2. Mulohaza uchun berilgan matnlarning bir-biri bilan qanday aloqadorligi bor?
3. Qurbaqaning harakatiga baho bering. Bu ish quyida berilgan "Muhimi – zanjirning uzilishiga sen sababchi bo'lib qolmasligingdir" degan hikmat bilan qay darajada bog'liq? Fikringizni asoslang.
4. O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning "Intellectual salohiyat Vatan sevgisi bilan uyg'un bo'lgandagina yuksak natijalar beradi" degan fikrini izohlang.

Mulohaza uchun



Bilingki, to'qilgan matoda har bir ipning o'z o'rni bor. Matoning qaysi yerida ip chirigan bo'lsa, mato shu yerdan boshlab yirtiladi. Hayot zanjirida ham xuddi shunday: har bir odamning o'z o'rni va vazifasi bor. Muhimi – zanjirning uzilishiga sen sababchi bo'lib qolmasligingdir.



Ma'naviyat xazinasidan



Kimning xalqqa foydasi tegib, shu tufayli halovat topsa, o'sha – yaxshi odam.  
*Yusuf Xos Hojib*

Mas'uliyatni zimmasiga olish insonga fayz-u kamol baxsh etib, uni ulug' darajaga yetkazadi.



## Ijodiy faoliyat



1



2



3

1. Yuqoridagi rasmlarni qanday nomlagan bo'lar edingiz?
2. Rasmlarda aks etgan opa-singil, aka-uka munosabatlarida qanday qadriyatlar yashiringan? Fikringizni bildiring.
3. 1-rasmdagi qizchaga: "O'zing kichkina ekansan, bo'yingdagi yuk og'irlik qilmayaptimi?" deb savol berdilar. Qizchanning javobi qanday bo'lgan deb o'ylaysiz?
4. Rasmlarni quyidagi "Oqibat" hikoyasi bilan bog'lashga harakat qiling. Ularning mas'uliyat va daxldorlik mohiyati bilan qanday bog'liqligi bor? Rasm-dagi bolalar kimning oldida mas'ul? Sizing oila a'zolaringiz oldida qanday mas'uliyatingiz bor? Oila oldidagi mas'uliyat bilan Vatan oldidagi mas'uliyatni bir-biri bilan bog'lab tushuntiring.

## Mulohaza uchun



## Oqibat

Mehribonlik uyiga bola asrab olish uchun bir oila keldi. Ularning nazari ota-onasi avtohalokatga uchragan 7 yoshli bolaga tushdi. Bolakay: "Men sizlar bilan keta olmayman", – dedi. Undan buning sababini so'rashdi.

"Bu yerda mening kichkina singlim bor, men – akaman, uni tashlab keta olmayman. Ota-onamga va'da berganman", – deb javob berdi bola.

Bunday oqibatni ko'rgan insonlarning ko'zlariga yosh qalqidi va aka-singilni birga farzandlikka olishga qaror qilishdi.



## Ma'naviyat xazinasidan

Taniqlig-u sharafing otangdandir, mehribonlik, mushfiqlik onangdandir.

*Mahmud Zamaxshariy*



7



### Ijodiy faoliyat

Yo'l chetida chamasi 60 yoshlar atrofidagi bir kishi yuragini ushlab yerda yotardi. Yonidan odamlar beparvo o'tib borar, hech kimning bu kishi bilan ishi yo'q edi. Ikki yigit esa chetroqda turib, yerda yotgan odamni telefoniga suratga olar edi...

1. Siz shunday vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?

a) bu odamning oldiga borib, undan yordam kerakmi yoki yo'qligini so'ragan bo'lardim;

b) vaqtimga qarardim, bemalol bo'lsam, yordam berardim.

O'z takliflaringizni bildiring.

### Mulohaza uchun



...Zebo maktabdan qaytayotgan edi. Yo'l chetida yotgan odamni ko'rib: "Bu kishining mazasi yo'qmikan? Biron yordam kerakdir?" deya ko'makka shoshildi. U odamning holatidan yuragi bezovta qilayotgani ko'rinib turardi.

Zebo bekatda turgan odamlar tomonga yugurib borib, vaziyatni tushuntirdi.

Kimdir qo'l telefonidan "Tez yordam"ga qo'ng'iroq qilgan bo'lsa, yana kimdir o'sha odamning oldiga kelib,

uni qulayroq yotqizdi. Yoshi 40 lardan oshgan bir ayol uning kaftini uqaladi. Kimdir esa ro'molcha bilan yelpidi.

Ikki yigit esa jarayonni qo'l telefoniga suratga olardi. Ularning bu ishi Zeboga yo'qmadi, shekilli, norozi bo'lib qaradi. Yigitlar nari ketishdi, lekin o'z ishlarini davom ettiraverdilar.

Ko'p o'tmay "Tez yordam" mashinasida shifokorlar ham yetib keldi.



### Ijodiy faoliyat

1. Voqea ishtirokchilarining harakatiga munosabat bildiring. Suratkash bolalarning maqsadi nima? Siz ham shunday maqsadda surat olasizmi?

2. Matnning "Yaxshilikni har kim, har kuni qilishi kerak" degan hikmat bilan bog'liqligini asoslang.





### Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Tadbirkor sharbat ishlab chiqaradi. U mas'uliyatni his qilgan holda odamlarning sog'lig'iga ziyon yetkazmaydigan eng sara masalliqlardan foydalanadi. Har bir masalliqni saralaydi va ekspertizadan o'tkazadi.
2. Shifokor bemorga muolaja yozishdan oldin uni yaxshilab ko'rikdan o'tkazadi, qon va boshqa tahlillarni topshirishga buyuradi.
3. Chegarada turgan zobit diqqat bilan atrofni kuzatadi. Doim sergak turadi.
4. Samolyot Toshkent aeroportiga kelib qo'ndi. Pasport nazoratida turgan xizmatchi har bir yo'lovchining pasportini diqqat bilan tekshirib, erinmasdan kompyuter orqali nazoratdan o'tkazadi.
5. Samolyotlarning uchishi va qo'nishini tartibga soladigan dispatcher navbatchilik paytida nigohini monitordan uzmaydi. Zarurat bo'lganida uchuvchilarga yo'l ko'rsatadi.



6. Tasavvur qilib ko'ring-chi, yuqoridagi kasb egalari o'z vazifalariga nisbatan mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ysalar, oqibati nima bo'ladi?
7. Sharbatni texnologik ekspertizadan o'tkazmaslik, shifokorning tahlillar natijasisiz muolaja yozishi, chegarachining hushyorlikni yo'qotishi, pasport nazoratidagi e'tiborsizlik, dispatcherning o'z vazifasiga sovuqqon munosabatining oqibatlarini sizning ham hayotingizga daxldormi?
8. Osmonda uchib ketayotgan samolyotning o'z manziliga muvaffaqiyatli yetib borishida texnik xodimning daxldorlik darajasini tahlil qiling. Sizning-chi, bunga daxlingiz bormi? Fikringizni asoslang.

*(7-bet 3-savoldagi qizchanning javobi: "Bu – yuk emas, mening ukam!")*

## 2-MAVZU: ERKIN VA FAROVON HAYOT MAZMUNI



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Siz farovon turmushni qanday tasavvur qilasiz? Quyidagi rasmlar orqali fikringizni asoslang.
2. “Tinch va totuv hayot”, “moddiy va ma’naviy hayot”, “halol va fidoyi inson” tushunchalarini solishtirib, o’xshash jihatlarini ayting.
3. Mamlakatimizda farovon turmush, yurt tinchligi, jamiyat rivoji uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
4. Nima deb o’ylaysiz, moddiy hayotning o’zi bilan yashab bo’ladimi? “Ma’naviy hayot” tushunchasining *farovonlik*, *tinchlik* so’zlari bilan qanday bog’liqligi bor?



### Mulohaza uchun



Inson faoliyatida ikki muhim omil – moddiy va ma’naviy olam o’zaro uyg’unlashib, qo’sh qanotga aylangan taqdirda, inson, davlat va jamiyat hayotida o’sish-o’zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo’ladi. Shu bilan birga bilim va tajribasi, aql-idroki, kasb malakasi yetarli bo’lgan, qonunlarni, o’z haququqlari va majburiyatlarini yaxshi bilgan odamgina barcha sohada ijobiy natijalarga erisha oladi. Bu ma’naviyatning ishlab chiqarish, iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog’liqligini ko’rsatadi. Aks holda, jamiyatda ma’naviy-axloqiy munosabatlar tanazzulga uchraydi, insonning sha’ni, qadr-qimmatini poymol etiladi.



## Mulohaza uchun

**Mangulikka daxldor**

Mahmud Mirzayev yoshligidan ko'chatlarni payvand qilishga, yangi navlarni yaratishga, bog'dorchilikka juda qiziqardi. Bu qiziqishi uni Toshkent qishloq xo'jalik instituti tomon yetakladi. Institutni tamomlagach, bog'dorchilik-uzumchilikka ixtisoslashtirilgan "Qibray" xo'jaligida bosh agronom bo'lib ish boshladi. Endi u diplomli mutaxassis. Uning zimmasida katta mas'uliyat bor.

Yosh agronom ilmiy faoliyat bilan ham shug'ullandi. Bog'dorchilik-uzumchilikka oid tadqiqotlari natijasini 300 dan ortiq ilmiy asarlariga joyladi. Agronomlikdan akademiklik darajasigacha bo'lgan mashaqqatli va sharaflil yo'lni bosib o'tdi.

Mahmud Mirzayev Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasining bog'dorchilik va sabzavotchilik bo'limini uzoq yillar boshqargan. Uning rahbarligida tayanch ilmiy ishlar – "O'zbekiston mevasunosligi (pomologiya)" va "O'zbekiston ampelografiyasi" (uzumning turlari va navlari haqida) tayyorlandi. 2013-yili ilmiy tadqiqot instituti akademik Mahmud Mirzayev sharafiga nomlandi.



## Ijodiy faoliyat

1. Moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini akademik Mahmud Mirzayevning hayoti misolida tushuntiring. Unda moddiylik va ma'naviylik uyg'unlashganmi? Nima uchun? Mahmud Mirzayev faoliyatining jamiyat farovonligiga qanday ta'siri bor?

2. Siz tanlagan yo'l tinchlik va farovonlikni mustahkamlashga qay darajada hissa qo'shadi deb o'ylaysiz?

3. "Mangulikka daxldor" matnini *farovonlik*, *tinchlik*, *ma'naviyat* kabi atamalarning mohiyati bilan bog'lab tushuntiring.

## Ma'naviyat xazinasidan



Mehnatga munosabat axloq kategoriyasiga kiradi. Mehnatga munosabatdan kishining baxtli bo'lishi kelib chiqadi. Demak, bu tushunchalarni sidirg'a, birin-ketin qo'yganda: baxt – axloq degani, axloq – mehnat degani bo'ladi. Axloq mukammalligi baxtga erishuvning stimulidir.

*G'afur G'ulom*

### Mulohaza uchun



Boylik bilan kambag'allik yonma-yon yuradi... Ular vaqti-vaqti bilan o'rin almashadi, xolos. Shu bois boyligingga quvonma, u o'tkinchidir.

Yo'qchilikda ko'pam qayg'urma, bu ham o'tmay qolmas... Agar kishi oqil bo'lsa, har bir yaxshi-yomon ishlardan o'ziga kerakli xulosalarni chiqarib oladi...



### Ijodiy faoliyat

1. Siz maktabdan bo'sh vaqtingizda nima ishlar bilan shug'ullanasiz? Qanday filmlarni ko'rasiz yoki kitob o'qiysiz?

2. Ko'rgan filmlaringiz yoki o'qigan kitobingiz ta'sirida yurgan vaqtlaringiz bo'lganmi? Shu holatni tasvirlab bera olasizmi? Kino yoki asar qahramonlarining kechmishlari, ularning keyingi hayotiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan voqealar haqida o'ylaganmisiz?

3. Hech o'ylab ko'rganmisiz, sizning kundalik hayotingizda bo'ladigan ayrim hodisalar, jarayonlar ko'rgan film va o'qigan asarlaringizdagi voqealarga o'xshab ketadimi?

4. Ezgulikka nimalarni misol qila olasiz?

5. Qanday qilib odamlar ezgulik tufayli shaxsiy hayotda ham, jamiyatda ham pul va boshqa boyliklarga ega bo'ladi?

6. Siz hayotingizda pul va boshqa boyliklarga ega bo'lish uchun nimalarni rejalashtirdingiz? Maqsadingizga erishish uchun yo'l xaritasini ishlab chiqing. Bunda, albatta, ezgu maqsad, ezgu ishlarga urg'u bering.

### Mulohaza uchun



Ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir.

Boshqacha aytganda, ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir.

*Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*



### Ijodiy faoliyat

1. Qanday fazilatlar ibratli deb aytiladi? Qaysi fazilatingizni ibratli deb hisoblaysiz?

2. Ma'naviyat ijtimoiy munosabatlarning mazmuni deganda nimani tushundingiz? Fikringizni 10- va 13-betdagi suratlar asosida izohlashga harakat qiling.

3. Ibratli fazilat sohiblaridan kimlarni bilasiz?

## Ma'naviyat xazinasidan



Pul ezgulikni tug'dirmaydi, aksincha, ezgulik tufayli odamlar shaxsiy hayotda ham, jamiyatda ham pul va boshqa boyliklarga ega bo'ladilar.

Suqrot



## Ijodiy faoliyat

1. Rasmlar asosida "Moddiy hayotning ma'naviy jihatlari nimadan iborat?" degan savolga javob bering.

Jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarga asosli misollar keltiring.

2. Gulnoza mahalla guzaridagi do'konga kirib, u-bu narsa xarid qildi, ammo andisha qilib, olgan mahsulotlarining chekini so'ramadi.

Gulnoza qanday qoidalarni buzdi? Uning bu harakati qanday muammolarga sabab bo'lishi mumkin?


3. Siz do'kondan xarid qilganingizda olgan mahsulotlaringiz chekini so'ray-sizmi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.



4. Agar inson boy bo'lsa-yu, uning bilimi, foydali kasb-hunari bo'lmasa, to'plagan boyligi qanchaga yetishi mumkin?

5. Ma'naviyatli insonning topgan boyligi boshqalarga ham foyda keltiradimi?

### 3-4-MAVZU: DADIL QADAMLAR BILAN KATTA HAYOT SARI



#### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Rasmlardan foydalangan holda mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar haqida gapirib bering.

2. “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi”, deganda siz nimani tushunasiz?

3. Komil inson bo’lish uchun qanday sifatlarga ega bo’lish kerak? Javobingizni asoslang.

4. Bugun Ravshan uchun ajoyib kun. Matematika fanidan o’tkazilgan respublika olimpiadasida birinchi o’rinni egallab, xalqaro olimpiadaga yo’llanma oldi. U haqida televideniya ko’rsatuv berilganida ota-onasi, sinfdosh va mahalladoshlari ham xursand bo’ldilar.

Ravshanning bunday muvaffaqiyatga erishishida kimlarning xizmati bor? Uning bu yutuq’i jamiyatimizga qanday foyda keltiradi?

5. Yurtdoshlarimiz xalqaro musobaqalarda g’olib bo’lib, ularning yutuqlari sharafiga mamlakatimizning madhiyasi ijro etilganida nimani his qilasiz?

#### Ma’lumot uchun



Abu Nasr Forobiy: “Insonning barcha mavjudotlardan farqi uning aql-idrokliligida”, deydi.

Abu Rayhon Beruniy esa, insonni Xudo yaratganini aytib, odamning butun hayoti va jismoniy tuzilishi geografik omillarga bog’liq ekanini ko’rsatib o’tadi.

G’azzoliyning fikriga ko’ra, inson buyuk xilqat va uning oldida mudom xavf-xatar mavjud. Muammolarni, xavf-xatarlarni bartaraf etgan shaxsgina baxtlidir.

Ma'naviyat xazinasidan



Tiriklikning sir-u asrori ilm, odob, ongli faoliyat bo'lsa, uning asosi zukko aql, davomiyligi – samarali mehnat. Bu jarayonda vaqtdan unumli foydalanish sirlar tilsimini topishga ko'maklashadi.



Ijodiy faoliyat

1. "Zoye ketkazilgan vaqt qaytib berilmaydi" degan fikrga qanday qaraysiz?
2. Hazrat Alisher Navoiyning ushbu hikmatiga e'tibor qarating:  
*"Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas moni",  
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il".*

Ya'ni inson o'z umrini ignali sim to'siqlar bilan mustahkam o'rab qo'yganda ham, zinhor vaqt shiddatidan o'zini asrab qola olmaydi. Demak, har lahzaning qadriga yetish lozim!

3. Katta hayotda qoqilmaslik uchun vaqtni qanday sarflash kerak? Fikringizni kundalik faoliyatingiz bilan bog'lab tushuntiring. Qanday fe'l-atvor-ga ega bo'lish kerak? Qaysi fazilatlarni zarur deb o'ylaysiz? Ro'yxatini tuzing. Ulardan qay biri sizda shakllangan? Nimalarga e'tibor berishingiz kerak?

4. "Men qanday odamman?" degan portretningizni chizib ko'ring. O'zingizdagi xususiyatlarni 10 balli shkalada baholab chiqing.

1.2.3.4.5	Aqlli	6.7.8.9.10
1.2.3.4.5	Rostgo'y	6.7.8.9.10
1.2.3.4.5	Adolatli	6.7.8.9.10
1.2.3.4.5	Kuchli	6.7.8.9.10
1.2.3.4.5	Mehribon	6.7.8.9.10
1.2.3.4.5	Muloqotga kirishuvchan	6.7.8.9.10
1.2.3.4.5	Dovyurak	6.7.8.9.10
1.2.3.4.5	Rahmdil	6.7.8.9.10
1.2.3.4.5	Talabchan	6.7.8.9.10
1.2.3.4.5	Qat'iyatli	6.7.8.9.10

Mulohaza uchun



Insonning o'ziga bahosini oyna bilan qiyoslash mumkin. Agar oyna qiyshiq bo'lsa, inson qiyofasi ham qiyshiq ko'rinadi. Xuddi shu kabi kishining o'ziga bahosi noto'g'ri, noxolis bo'lsa, u qiyshiq oyna kabi noto'g'ri aksni ko'rsatadi.



Azaldan Sharqda kishining hayot yo'lida unga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, o'z duo va tilaklari bilan zafar va omadlar tilovchilar – ota-ona va ustozlardir.


Shu boisdan jamiyatda bunday hazrati insonlar toifasi alohida e'zozga sazovor bo'lib, ularga hamisha ehtiyoj sezilgan.

Bu hodisa – Buyuk Sharq hayot tarzining, kerak bo'lsa, uning muqaddas insoniy qadriyatlarining tamal toshini tashkil etgan va hozirda ham shunday.



Ijodiy faoliyat

1. "Armonli dunyo" filmini ko'rganmisiz? Abdurahim o'qituvchining qat'iyati va shijoati natijasiga baho bering.
2. Sahro o'rtasidagi toshloq yerni tozalab, har qanday qiyinchiliklarga bardosh berish, suvsiz yerga suv olib chiqish filmning bosh qahramoni Abdurahim o'qituvchiga nima uchun kerak edi?
3. Siz shunday qarshiliklarga uchrasangiz, boshlagan ishingizni oxiriga yetkaza olasizmi?



4. Umringiz davomida nechta ko'chat ekan-siz? Ekkan ko'chatingiz hozirda qanday bo'ldi?
5. Ekkan ko'chatingizni qarovsiz tashlab qo'ymaganingizdek, boshlagan yaxshi ishingizni ham to'xtatmaysiz. Ayting-chi, bu yo'lda siz asosan nimalarga tayanasiz?
6. Mustaqil hayotga qadam qo'yishda nima uchun insonda qat'iy iroda, ishonch, faqat yaxshilikka intilish kabi sifatlar bo'lishi kerak?



Ma'naviyat xazinasidan



Agar bir yilni ko'zlasangiz, sholi eking. Agar 50 yilni ko'zlasangiz, daraxt eking. Agar 100 yil foyda berishini ko'zlasangiz, farzand tarbiyalang.

*Xitoy xalq hikmati*

## Mulohaza uchun



Bolani qaysi kasb-hunarga yo'naltirish kerakligini aniqlash uchun uning iqtidorini bilish kerak. Hali yosh bo'la turib, katta muvaffaqiyatlarga erishayotgan bolani ko'rganda: "Uning qonida bor-da", deydilar.

Ajdodlarimiz farzandlariga ota-bobolarining nasl-nasabini o'rgatganlar. Bundan ular kimlarga loyiq farzand bo'lishi kerakligini anglaganlar. Xuddi shu singari hozirgi yoshlar ham shu Vatanda voyaga yetgan, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning hayoti va faoliyatini o'rganishi ham qarz, ham farzdir.

1. "Jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning hayoti va faoliyatini o'rganish ham qarz, ham farzdir" degan fikrni qanday tushunasiz?

2. Siz bu vazifani bajarish uchun nimalar qilyapsiz?



## Ma'naviyat xazinasidan

Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak: diqqat, intizom va harakat.

*Jaloliddin Rumiy*

## Bilasizmi?



**Hazrat Salimjonov** – MDH yoshlari o'rtasida bo'lib o'tgan "Yilning eng yaxshi yosh olimi–2021" xalqaro tanlovining "Mexatronika" yo'nalishi bo'yicha faxrli 1-o'rin, oltin ko'krak nishoni sohibi.

"Yil talabasi–2019" ko'rik-tanlovining "Yilning eng ixtirochi innovator talabasi" nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topilib, Islom Karimov nomidagi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi ta'asis etgan stipendiyalarni qo'lga kiritgan. Talabalar respublika fan olimpiadasi-da "Materiallar qarshiligi" fanidan ikkinchi o'rinni egallagan.



## I bob. Oilaviy qadriyatlar



**Madina Samatboyeva** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi. MDH davlatlaridan 200 nafardan ortiq iqtidorli talaba ishtirok etgan xalqaro tanlovda “Eng yosh olim – 2021” yo‘nalishida oltin medalga sazovor bo‘lgan.

**Fayzullo Yahyoyev** – Toshkent shahri Shayxontohur tumaniidagi 19-umumta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi. MDH davlatlari o‘rtasida o‘tkazilgan "Yilning eng yaxshi yosh olimi – 2021" xalqaro tanlovida 14 ta mamlakattan kelgan nomzodlar ichida filologiya yo‘nalishida birinchi o‘ringa loyiq ko‘rib, oltin medal bilan taqdirlangan.



**Farrux Fattoyev** – ilmiy izlanishlarini AQShda olib borayotgan fizika fanlari doktori. Hamkasblarining gravitatsion to‘lqinlar bo‘yicha qilgan tadqiqotlaridan foydalanib, yadroviy moddalar holati tenglamasini aniqlashga, shuningdek, neytron yulduzining radiusi tenglamasining 14 km dan yuqori bo‘la olmasligini isbotlashga muvaffaq bo‘lgan.

Yosh olim asli Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida tug‘ilib o‘sgan. Fizika fundamental fan bo‘lgani bois fizik olim bo‘lib yetishishiga maktabdagi barcha fanlarga bir xilda qiziqishi sabab bo‘lganini ta’kidlaydi.



### Ijodiy faoliyat

Yuqorida nomlari keltirilgan yoshlar ham yaqindagina xuddi sizlardek maktab o‘quvchilari edi. Ularning tinimsiz o‘qish va izlanishlari ilm cho‘qqilarini egallashlariga zamin bo‘ldi.

1. Nima deb o‘ylaysiz, yetuk mutaxassis bo‘lish uchun qaysi fanlarni mukammal bilish kerak? Fikringizni asoslang.
2. Ilm-fan rivojida matematikaning o‘rni qaysi jihatlari bilan muhim deb o‘ylaysiz? Nima uchun?

### Ma’naviyat xazinasidan



Yaxshi inson o‘zidan baxt, yomon inson o‘zidan tajriba, xatokor inson o‘zidan dars, mukammal inson o‘zidan iz qoldiradi...

*Jaloliddin Rumiy*



### Ijodiy faoliyat

1. Jamiyat boshqaruvida siz qanday ishtirok etishingiz mumkin?
2. O'z irodasini ifodalash deganda nimani tushunasiz?
3. Sinfdoxlaringiz ichidan sinf sardorini qanday mezon asosida saylaysiz?
4. O'n sakkiz yoshga to'lgach, o'z siyosiy irodangizni ifoda etishga kirishasiz. Saylov jarayonlarida ishtirok eta boshlaysiz. Bunda nimalarga e'tibor berishingiz kerak bo'ladi?

### Ma'lumot uchun



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlari umumiydir.

Saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egadir.

Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadir.

*O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi, 4-modda*



### Ijodiy faoliyat

1. 18 yoshga to'lgan shaxs qanday huquqlaridan to'laqonli foydalanadi? Bu huquqlar qanday majburiyat va burchlarni yuzaga keltiradi?
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan saylovga oid moddalarni toping va mavzuga bog'lab tushuntirishga harakat qiling.
3. Hech kuzatganmisiz, oila a'zolaringizdan yoshi kattalar saylov jarayoni yaqinlashganda oilada jamiyatning rivojlanishi, bo'lib o'tgan o'zgarishlar haqida ko'proq o'zaro muloqot qila boshlashadi. Ular jamiyatdagi, oiladagi qanday qadriyatlar haqida suhbatlashadilar? Nima uchun shunday?
4. Saylovoldi targ'ibot jarayonlarini kuzatganmisiz? Bu jarayonlar jamiyat ravnaqi uchun qanchalik muhim?



### Bilasizmi?



Davlat va huquq asoslari fanidan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering: Saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri va yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Ayting-chi, "bitta pasport – bitta ovoz" deganda nimani tushunasiz?



### Mulohaza uchun



Ota o'limidan oldin farzandini chaqirib, qo'liga bir soat tutqazdi:

– Bu soat 200 yil oldin yasalgan. Bizga bobongning bobolaridan meros qolgan. Sen buni mahalla boshidagi soatsozga olib borib, sotmoqchi ekaningni ayt va uning javobini menga yetkaz, – dedi.

O'g'il borib, soatsozdan “Buning eski ekan, besh dollar beraman” degan javobni olib keldi.

– Endi buni noyob narsalar sotiladigan do'konga olib borgin, – dedi ota.

U yerga borgan o'g'il do'kondorning “besh ming dollar beraman” degan javobi bilan qaytdi. Ota yana o'g'lini yubora turib:

– Endi buni davlat muzeyiga olib borib, sotmoqchi ekaningni ayt, – dedi.

Muzeyga borib, otasi yoniga juda hayratlangan holda qaytgan o'g'il:

– Muzeydagilar bir mutaxassisni chaqirtirib, uni yaxshilab tekshirgach, shu bir parchagina temirni bir million dollar deb baholashdi-ya! – dedi.

Shunda ota:

– Bolam, avvalo, hamma narsa ham vaqt hukmiga bo'ysunib, eskirmaydi. Shunday qadriyatlar borki, yillar o'tgani sayin bahosi oshib boradi. Bebaho milliy qadriyatlarimizni asra va kelajak avlodga yetkaz.



### Ijodiy faoliyat

1. Mehnatning samarasi insonning munosib yashashi uchun zaruriyat, desak, uning natijasi jamiyat ravnaqiga qanday ta'sir etadi?

2. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, quyidagi shaxslar qanday qilib ko'pchilikni o'z ortidan ergashtira olganligini ayting. Siddhartha Gautama (Budda), To'maris, Yuliy Sezar, Konfutsiy, Spartak, Iso Masih (a.s), Spitamen, Muhammad payg'ambar (s.a.v), Najmiddin Kubro, Amir Temur, Mahatma Gandhi, Nelson Mandela, Ismoil Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy.



### Darsdan ijobiy saboq chiqarib



1. “Vatanimizning fidoyi farzandlari” deganda aynan qanday yoshlar nazarda tutiladi?

2. QR kodni skanerlang. Siz kelajakka qanday qadam qo'yyapsiz? Qanday iqtidorim bor deb o'ylaysiz? Bu iqtidoringizni rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor qaratishingiz kerak?

3. Mustaqil hayotga qadam qo'yishda qanday qoidalarga amal qilishni taklif etasiz? Ro'yxatini tuzing va har bir taklifingizni asoslang. Mustaqil hayot yo'l ko'rsatkichlarini ishlab chiqing. Bunda Davlat va huquq asoslari fanidan olgan bilimlaringizdan ham foydalaning.

## 5-MAVZU: OILA MAS'ULIYATI, SHA'NI VA QADRI

### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar



1. Rasmlardan foydalangan holda oila ma'naviyati haqida o'z tushunchangizni ayting.
2. Oilaning muqaddasligi nima bilan o'lchanadi?
3. Oilaga ta'rif berilganida "Oila mo'jaz Vatandir", deyiladi. Siz bu fikrga qo'shilasizmi? Javobingizni asoslang.
4. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan oilaviy qadriyatlar yoritilgan lavhalarni eslang.



1



2




3



4



5



6



### Mulohaza uchun

Oiladagi muhit insonning o'ziga xos ma'naviyati, dunyoqarashi, tasavvur va e'tiqodi shakllanishida, yuksalishida muhim omil bo'ladi. Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg'ular, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar aynan oila bag'rida shakllanadi.

Bu muqaddas dargohda nafaqat farzand dunyoga keladi, balki ma'nan va axloqan go'zal tarbiya egasi bo'lgan inson voyaga yetadi. Oila shunday makonki, unda avlodlar kamol topadi. Ajdodlarimiz azaldan oila mustahkamligi, sog'lom avlod tarbiyasiga doimo e'tiborda bo'lganlar. Bunday e'tibor avlodlar qalbi va ruhiyatiga singdirib borilgan.



### Ijodiy faoliyat

1. "Bu muqaddas dargohda ma'nan va axloqan go'zal tarbiya egasi bo'lgan inson voyaga yetadi" degan fikrni rasmlar asosida izohlashga harakat qiling.
2. "Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar" deganda nimalarni tushundingiz? Misollar keltirishga harakat qiling.
3. Aka-uka, opa-singil munosabatlarida mas'uliyat bormi? Javobingizni asoslang.
4. 5-, 6-rasmlar asosida hikoya tuzing. Rasmlarni qanday nomlagan bo'ladingiz?



### Bilasizmi?

Olimlarning aniqlashicha, tabiatda odamlar, kitlar va fillarning oilasida “bobo” yoki “buvi” bor ekan. Filchalar 5 yoshgacha buvilari bilan birga yurar ekan. Katta yoshli fillar yosh fillarning tarbiyasi bilan shaxsan shug’ullanadi. Ular yosh fillarga ozuqa topish, tuzoqlardan himoyalanih, boshqa fillarni hurmat qilish kabi yashash qoidalarini o’rgatadilar.

### Mulohaza uchun



Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarining rivojini ta’minlovchi muqaddas maskan hamdir. Oilada biz va avlodlarimiz tarbiya topib, ulg’ayamiz, dunyoni anglaymiz hamda barchamiz turli fe’l-atvor kasb etib boramiz.



### Ijodiy faoliyat

1. Oilaviy farovonlik tushunchasiga ta’rif bering.
2. Bugungi kunda mamlakatimizda oila masalasiga qanday ahamiyat berilmoqda? Bu haqidagi fikringizni asoslang.
3. “Oila – muqaddas qo’rg’on”. Mazkur tushunchaga 21-betda berilgan rasmlar orqali ta’rif bering.

### Mulohaza uchun



Oila azaldan muqaddas dargoh sifatida qadrlangan. Oila a’zolari muayyan turmush tarziga, tartib-qoidalarga rioya qilgan. Tajriba orttirish, saranjomlik va tejamkorlik, qat’iylilik va to’g’riso’zlik singari odob-axloq me’yorlarini kamol topirish azaldan oilaning asosiy vazifasi bo’lib kelgan.

Agar oilada hamkorlik, hamjihatlik, o’zaro hurmat, bir-biriga ishonch kuchli bo’lsa, rostgo’y, samimiy, mehribon, o’z yaqinlari, qarindosh-urug’lari, qo’shnilariga doimo yordam berishga tayyor bo’lgan insonlar voyaga yetadi.



### Ijodiy faoliyat

1. Oilada ota-onangiz siz yoki uka-singillaringizni erkalab qanday ezgu so’zlarni aytadi?
2. Oilaning mustahkamligiga siz qanday hissa qo’shasiz? Fikringizni asoslang.
3. Quyidagi matnni o’qing va o’z oilangizdagi holat bilan solishtiring.




Ota go'dak farzandini suyganda baland ko'taradi. Bu – mendan-da ulug' bo'l, bolam, degani. Bu – haqiqiy g'amxo'rlik va farzandni barcha narsadan, hatto o'z-o'zidan aziz bilish ifodasi. Ota farzandi maktabga borganida uni quchog'iga olar ekan, peshonasidan o'padi. Bu – toleying porloq bo'lsin, degani. Ertaning umidi bor unda, farzandining iqboli uchun har narsaga tayyorlik mujassam bo'ladi ushbu mehrda. Harbiy xizmatga kuzatayotganda ota o'g'lining belidan dast ko'taradi. Bu – Vatan xizmatiga bog'lagan beling mustahkam bo'lsin, degani. O'qishni bitirib, o'g'li qo'lidan ishini olganida ota duoga qo'l ochadi: "Yo'ling yorug' bo'lsin, bolam..."

O'shanda uning ko'zlari yoshlanganini ko'rmaysiz, qalbidagi iftixorni tasavvur qila olmaysiz. Farzandining ulug' ishlarni qilganini ko'rganida esa "ota o'g'il" deb suyadi, qiziga esa "ona qizim" deb murojaat etadi... Buning tagida shunday hikmat bor: "Bugun seni suysam, ertaga senga suyanaman!"

*Bosma OAV materiallaridan*

4. Jamiyat va davlat ravnaqida shaxsiy daxldorlikning o'rni qanday?
5. "Shaxs", "oila", "jamiyat" – bu uch tushunchani qanday rishtalar uzviy bog'lab turadi?
6. Venn diagrammasi asosida *daxldorlik*, *ma'nan yuksaklik*, *mas'uliyat*, *sha'n*, *qadr-qimmat* so'zlarining tutashgan chiziqlarini aniqlang va ularni jamiyat tinchligi va farovonligiga ta'sirini ayting.



#### Ma'naviyat xazinasidan

Bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shunday kuchli va tartibli bo'ladi.

Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi.

*Abdurauf Fitrat*



### Ijodiy faoliyat

1. Oilaning baxti nimada? Oilangiz baxtli bo'lishida sizning mas'uliyatingiz qay darajada bo'lish kerak?
2. Baxt pulsini chizib chiqing. Puls pasayib ketmasligi uchun uni qaysi ritmda ushlab turishni tavsiya qilasiz?

### Baxt pulsini



### Ma'naviyat xazinasidan



Qarindoshlarga silayi rahm qilish, xushxulqlik va yaxshi qo'shnichilik – yurtni obod va umrni ziyoda etadi.



### Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Oilaning to'kisligi nimaga bog'liq?
2. Sizning oilangizda tadbirkorlik yo'lga qo'yilganmi? Nega oilada biror hunar o'rganish kerak, deyiladi?
3. Tasavvur qiling, siz oila a'zolaringiz bilan uy sharoitida tadbirkorlikni boshladingiz. Siz yaratayotgan mahsulotni sizdan avval mahallangizdagi boshqa bir xonadon ishlab chiqqan va bozorda o'z xaridoriga ega. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?



## II BOB. INSON MA'NAVIYATI

### 6-MAVZU: IBRAT MASKANI



#### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Nima uchun mahalla *qadriyatlar beshigi* deyiladi?
2. Siz yashaydigan hududda qanday mahallalar bor? Ularning nomi qanday qadriyatlar bilan bog'liq?
3. Mahallaning tinchligi, farovonligi uchun kimlar mas'ul? Mahallalarga shunday insonlar kerakmi? Nima uchun?
4. Mahalla aholisini qanday qadriyatlar birlashtiradi?

#### Mulohaza uchun



Sinfdosh qizlar imtihonlarga birga tayyorlanish uchun Dilfuzaning uyiga bordik. Darvoza oldidagi o'rindiqlarda o'tirgan Isomjon boboning: "Sen G'iyos boboning nabirasimisan? Buvingning o'zi bo'libsan", "Sen, qizim, Sa'dullaning nabiralariga o'xshayapsan, ovozing xuddi onangning ovozidek ekan", "Kel, kel, Foziljonning qizi, sen xuddi otangning qizi bo'libsan!" deyishlaridan Dilfuza: "Qoyil, bobojon, hamma dugonalarimni bobo-buvisi, ota-onalariga o'xshatib, aniq tanidingiz. Uyda o'tirsangiz ham, hammani taniysiz!" dedi.

"Mahalladoshlik shu-da, bolam, odamlar bir-biriga qon-qarindosh bo'lib ketishadi. 80 yoshga kirdim. Dugonalarimga ota-buvasi bilan birga katta bo'ldik, to'yimiz, azamiz, yaxshi-yomon kunlarimiz birga o'tdi. Inson insonga kerak, bolam", dedi bobo o'git ohangida.



#### Ma'lumot uchun

Mahalla insonning hayoti, turmush tarzi, taqdiri, eng muhimi, tarbiyasida asosiy rollardan birini o'ynovchi katta kuch hisoblanadi. Zero, insonning umri aynan mahallada o'tadi. Mahalla – aholini jipslashtirish va safarbar etish, jamiyatni taraqqiy ettirishga xizmat qiluvchi, shuningdek, o'z hududida poklik, to'g'rilik, xolislik, beg'arazlikni qaror toptiruvchi kuchdir. Mahalla milliy urf-odat va an'analar, hashar va boshqa tadbirlarni amalga oshirish vositasi hamdir. Shuningdek, mahalla odamlar bir-birining issiq-sovug'i, g'am-tashvishidan xabar olib turadigan eng tabarruk maskan, deb bejizga ta'kidlanmagan.



### Ijodiy faoliyat

1. Mahallangizda yashaydigan sinfdoshlaringizning ajdodlarini bilasizmi? Uyda bobongiz, ota-onangizdan mahalladoshlaringizning tarixi haqida so'zlab berishlarini so'rang. Kattalarning aytganlari bilan o'rtoqlaringizning tashqi ko'rinishi, xarakterida nima o'xshashliklar borligiga e'tibor bering.
2. Do'st tanlaganda, oila qurganda kattalarning maslahatlariga quloq tutish shartmi? Nima uchun? Fikringizni asoslash uchun beshta misol keltiring.
3. Inson uzoq safardan so'ng o'zi tug'ilib o'sgan mahallasiga kelsa, nimalarni his qiladi? Shunday holatlarning guvohi bo'lganmisiz?

### Mulohaza uchun



#### Men mardikor emasman

Ko'p qavatli uyda yashaymiz. Uy boshqaruvchimiz Hayit bayrami oldidan hashar e'lon qildi. Yosh-u qari ertalabdan supurgi, belkuraklari bilan chiqib tartib bilan ish boshladi. Uymizning oldidagi dam olish uchun ajratilgan joydagi so'riga ko'rpacha solinib, yoshi kattalar uchun kelinlar pishiriq, meva-chevalar olib chiqishdi. Kichkina bolachalarning kattalarga yordam berishga oshiqqanligi, ayniqsa, hammani quvontirdi.

Hamma ish bilan band bo'lib, 5-qavatga yangi ko'chib kelgan qo'shnining o'g'lini payqashmadi. U esa hech narsa ko'rmagandek, telefonda gaplashib uyiga kirib keta boshladi. "O'g'lim, sen yig'ilgan chiqindilarni tashlab kel", - dedi unga ro'para kelgan dadajonim. "Men mardikor emasman, oliygohni tugatganman", - norozi ohangda to'ng'illadi yigit.

#### Pulini to'lasangiz...

Mahallamizda shanba kuni hashar e'lon qilindi. Soat allamahal bo'lganiga qaramasdan, qo'shnilarning birontasi ko'rinmasdi. Abdusattor bobo oilasi bilan mashinasiga o'tirib ketayotgan Ashraf akani to'xtatib, izza qilmoqchi bo'lib: "Ashrafjon, yo'l bo'lsin, bu kunni hashar deb e'lon qilgan edik. Bolalaringiz ham katta bo'lib qolishdi, hammamiz birlashib tozalab qo'ymaymizmi ko'chamizni?" - dedi. "Bironta mardikor yollab ishlatinglar, pulini berib qo'yamiz", - dedi viqor bilan Ashraf aka.

"Chet ellarda har qanday mehnat uchun haq to'lana-di, bizda nuqul hashar, pulini to'lasangiz, tozalab qo'yaveramiz", - dedi qizini maktabga olib ketayotgan qo'shnining kelini.



### Ijodiy faoliyat

1. Hasharlar nima maqsadda tashkil etiladi? Ozodalikni saqlash uchun obodonlashtirish bo'limi xodimlarining xizmatlari yetarli emasmi?
2. Hasharning insonlar birdamligi, o'zaro hamjihatligida qanday ahamiyati bor?
3. Sizning oilangiz ham hasharda ishtirok etadimi?
4. Tozalik – salomatlik garovi, deyiladi manbalarda. Uyimizning ichkari-si toza bo'lsa-yu, ko'cha, mahalla, yo'llar, suv havzalari, atrof-muhit iflolsansa, tozalikka rioya qilyapmiz, deyish mumkinmi?
5. Nima deb o'ylaysiz, yuqumli kasalliklar, ekologiyaning buzilishiga tartibsizlik, atrofni toza tutmaslik sabab bo'lishi mumkinmi?
6. Mahalladagi turli holatlar bilan bog'liq senariylar tuzing. O'zaro rollar-ni taqsimlab, mahalla raisi, mahalla faoli, ayollar masalalari bo'yicha maslahatchi, psixolog, mahalladoshlar obrazlarini yarating. Har xil vaziyatlarni sahnalashtiring.

### Ma'lumot uchun



### Temuriylar davrida ham tozalikka e'tibor qaratilgan

Amir Temur davrida mahallada birdamlik, tozalik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xalqni ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun ko'pgina hovuz, ariqlar qazilgan. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Amir Temur va temuriylar davrida yuqumli kasalliklar tez-tez tarqab turar edi. Buning oldini olish uchun kerakli choralar ko'rilgan. Xususan, tozalikka katta ahamiyat berilgan, ayniqsa, ariq va hovuzlardagi suvlar nihoyatda toza tutilgan.



### Ma'naviyat xazinasidan

Biror shaxs mahallada yashab turib, undan "tashqarida" bo'la olmaydi. Mahalla o'zaro ishonch, yordam va himoya munosabatlariga asoslanadi.



Alisher Navoiy ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeidan qat'i nazar, insonni ulug'лади. Inson deya atalmish xilqatga buyuk hurmat bilan qaradi. Axloqiy va insoniy fazilatlarni o'zining asarlarida madh etdi. Yaxshilarga qo'shilish, yaxshilar suhbatida bo'lib, har vaqt xushmuomalalik, oliyanoblik va insoniylik bilan xalqning hurmatini qozonish mumkinligini kuyladi.

Navoiy din-u diyonatni mahkam ushlagan, bu yo'ldan aslo adashmagan ulug' siymo edi. U imon, insof, diyonat, saxovat, muruvvat kabi insoniy qadriyatlarga hamisha amal qilib yashadi. Boshqalarni ham shunga da'vat qildi. Butun hayoti va faoliyatini inson baxt-saodati, xalqning farovonligiga bag'ishladi.

Ayniqsa, Navoiy vazirlik davrida butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga, uni yanada obod qilishga sarfladi. Muarrix Xondamir Alisher Navoiy Xurosonda 52 ta rabot, 20 ta hovuz, 16 ta ko'prik, bir qancha masjid-madrasa, to'g'on, ariq, hammom va boshqa maishiy binolar qurdirganini qayd etgan.

Navoiy davrida Hirot katta madaniy markazga aylandi, ilm-fan, ma'rifat gullab yashnadi. Mutafakkir shoir xalqni o'ylab, uning baxt-saodati uchun fidoyilik ko'rsatishni eng ibratli turmush deb bilgan. U xalqqa qilingan yaxshilik, aslida, uni qilgan kishiga ko'proq foyda keltirishini quyidagi misralarda go'zal ifodalaydi:

*Naf yetkurmakka shior aylading,  
O'zungga ul nafni yor aylading.  
Nafing agar xalqqa beshak durur,  
Bilki, bu naf o'zungga ko'prak durur.*



### Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. "Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy nafaqat hassos shoir, balki xalqning g'amini o'ylagan yurtparvar inson sifatida ham barhayot" degan fikrni asoslang.
2. "Naf yetkurmakka shior aylading" deb boshlanuvchi to'rtlikni diqqat bilan o'qing. Tushunganlaringiz asosida "Mening mahalladagi o'rnim" mavzusida esse yozing.
3. Nima uchun mahalla ibrat maskani deyiladi? Mahallangizda qanday ibratli ishlar amalga oshirilmoqda?
4. "Mahallamning obodligida mening o'rnim" mavzusida o'zingiz bajara oladigan takliflar va ularni amalga oshirish rejasini ishlab chiqing.

## 7-MAVZU: BAG'RIKENGLIK



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Bag'rikenglik deganda nimani tushunasiz? Siz o'zingizni bag'rikeng inson deb hisoblaysizmi?
2. Bag'rikeng bo'lishning jamiyat va davlat ravnaqiga qanday ta'siri bor?
3. Davlatga nisbatan "bag'rikeng" so'zini ishlatish mumkinmi?
4. Quyidagi ma'lumotlarni o'qing va 3-savolga bergan javobingiz bilan solishtiring:

a) 2019-yil 10-oktabr kuni o'zbekistonlik 64 nafar bola Yaqin Sharq mamlakatlariidan maxsus aviareysda Toshkent shahriga olib kelindi.

b) O'zbekistonda ta'lim yettita tilda olib boriladi. Buning uchun o'zbek tilida yaratilgan barcha darsliklar oltita (qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman) tilga tarjima qilinib, o'quvchilarga yetkazib beriladi. Nima deb o'ylaysiz, davlatning bu faoliyatini bag'rikenglik deb baholash mumkinmi? Fikringizni asoslang.



### Mulohaza uchun



O'rtamizdagi do'stlik rishtalari hamma sohalarda namoyon bo'lmoqda: har bir pravoslavning musulmon do'stlari mavjud bo'lgani kabi ruhoniylar va imomlar o'rtasida ham do'stlik aloqalari juda baland. Do'st musulmonlarga tadbirkorlik sohasi yoki konstitutsiya bo'yicha yordam bilan murojaat qilinsa, albatta, so'ralgan narsani olamiz. Bizda ziddiyatlar u yoqda tursin, tushunmovchiliklar ham mavjud emas.

*Mitropolit Vladimir*

1. Yuqorida berilgan fikrni mavzuga bog'lab, insonlarning o'zaro mehr-oqibatli va kechirimli bo'lishi haqida fikr bildiring.
2. Siz begonalariga nisbatan ham oqibatli va kechirimli bo'la olasizmi? Bunday yo'l tutishingizda qanday qadriyatlar ustuvorlik qiladi?

### Mulohaza uchun



Bir kishi har kuni bozordan uchta non xarid qilar ekan. Uchtadan ko'p ham, kam ham olmas ekan. Uni kuzatib yurgan novvoy bir kuni so'rabdi:

– Ey qadrdonim, sizni anchadan beri kuzataman. Kuniga uchtadan non xarid qilasiz. Ko'p ham emas, oz ham emas. Buning sababi nimada?

1. Nima uchun novvoy aynan ushbu xaridorga e'tibor berdi?

2. Novvoyning savoliga xaridor nima deb javob bergan bo'lishi mumkin?

– To'g'ri, – debdi xaridor. – Har kuni uchta non olaman. Uning bittasini qarzingga beraman, yana bittasini qarzga beraman. Qolgan bittasini o'zim yeyman!

Novvoy xaridorning bitta nonni o'zim yeyman, degan gapini tushunibdi-yu, qolganini anglamay taajjulanibdi.

3. Xaridor kimdan qarz? Undan kim qarzdor bo'lishi mumkin?

4. Kimlarning oldida o'zingizni qarzdor deb hisoblaysiz?

Shunda xaridor gapini izohlab debdi:

– Qarzingga deganimni ota-onamga beraman. Negaki, ular meni bolaligimda xuddi shunday non berib, boqishgan. Qarzga deganimni esa, bolalarimga beraman. Bir kun kelib, ular ham qarzlarini uzishadi...



### Ijodiy faoliyat

1. Shundan keyin novvoy xaridorning fikriga qanday munosabat bildirgan bo'lishi mumkin?

2. Mazkur rivoyatdagi xaridor oddiy insoniy burchini bajarayotgan kishi, deylik, u uchta non olib bormasa, qanday holat bo'lishi mumkin? Siz uning o'rnida qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?

3. Siz odatda nechta non sotib olasiz? Nima uchun?

### Ma'naviyat xazinasidan



Qushlar kabi havoda uchishni o'rgandik. Baliqlar kabi dengizlarda suzishni o'rgandik. Lekin hozirgacha yer yuzida aka-ukadek yashashni o'rganmadik.

*Martin Lyuter King*





### Ijodiy faoliyat

1. “Yer yuzida aka-ukadek yashashni o‘rganmadik” deganda nima nazarda tutilgan?
2. Yon-atrofdagilar bilan do‘st-birodar bo‘lib yashash uchun insonda qanday fazilatlar shakllangan bo‘lishi kerak, deb o‘ylaysiz?

### Mulohaza uchun



Millatlararo totuvlik g‘oyasini amalga oshirishga g‘ov bo‘ladigan eng xatarli to‘siq – tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g‘oya tuzog‘iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi.



### Ijodiy faoliyat

1. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, tajovuzkor millatchilik va shovinizmga misollar keltiring.
2. Fashizmning irqchilik siyosati qanday oqibatlarga olib keldi?
3. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm kabi illatlarni bartaraf etish uchun qanday taklif bera olasiz? Bu jarayonda siz qanday ishtirok etasiz?

### Ma‘lumot uchun



Hanuzgacha fashizm, shovinizm, irqchilik g‘oyalarini rivojlantirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik g‘oyasiga qarshi “salib yurishi” kabi harakatlarni uyushtirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni hushyor torttirishi lozim.



### Ijodiy faoliyat



1. Xavfsizlik va barqarorlikning ahamiyatini qanday baholaysiz?
2. Yoshi ulug‘ insonlardan urush va tinchlik haqidagi fikrlarini so‘raganmiz? Ularning javob berayotgandagi holatlari qanday bo‘lgan?
3. Bugun butun dunyodagi barqarorlikka tahdid solayotgan eng katta xavf nima deb o‘ylaysiz?
4. QR kodda berilgan lavhani ko‘rib, siz ham o‘z munosabatingizni bildiring hamda “Yuksak bag‘rikenglik namunasi” haqida so‘zlab bering.
5. Bugungi kunda bag‘rikenglik yo‘nalishida davlat tomonidan olib borilayotgan ishlarga misol keltiring.



### Ma'lumot uchun

Yuridik jihatdan tan olingani yoki olinmaganidan qat'i nazar, barcha davlatlar din va e'tiqod erkinligiga hurmat bilan qarashlarini e'lon qilganlar.

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, halollik, tinchlik, yaxshilik va do'stlik kabi bir qancha ezgu fazilatlarga tayanadi. Ular insonlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, insonparvarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi.



### Ijodiy faoliyat

1. Yer yuzidagi 1600 dan ortiq millatning bor-yo'g'i 200 dan ortig'i o'z davlatiga ega, xolos.

O'z davlatiga ega bo'lgan millatlarning zimmasida qanday mas'uliyat va majburiyatlar bor?

2. Yurtimizda mavjud bo'lgan 16 ta diniy konfessiya, 2200 dan ortiq diniy tashkilotlar diniy bag'rikenglik asoslariga rioya qilgan holda o'zaro tinch-totuvlikda yashashmoqda.

Mazkur fikrni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi bilan bog'lab tushuntiring.

3. XXI asr boshlarida davlat va dinning o'zaro munosabatlari qanday bo'lganidan kelib chiqib, jahondagi davlatlarni guruhlariga bo'ling. Masalan: biror dinga davlat dini maqomi berilgan davlatlar – Qatar, Pokiston, Kosta-Rika... . Din davlatdan ajratilgan davlatlar – Rossiya, Fransiya, Germaniya, O'zbekiston... .





### Ma'naviyat xazinasidan

Azal-azaldan o'zaro qardosh va birodar bo'lgan mamlakatlarimiz ko'pgina mintaqaviy va global masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha yaqin hamkorlikda harakat qilishni boshladi. Jahon siyosatshunosligida "Markaziy Osiyo ruhi" degan ibora paydo bo'ldi...

Jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Har yili Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanadigan 30-iyul sanasi O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb e'lon qilindi. Bu yil ushbu bayram mamlakatimizda birinchi bor keng nishonlandi. Buni ham ichki va tashqi siyosat omillari birlashadigan mushtarak hodisa sifatida qabul qilish mumkin.

*Shavkat Mirziyoyev, "Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu obyektiv zaruratdir". "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021-yil 17-avgust*

### Mulohaza uchun



Ma'lumotlarga ko'ra, bundan yuz yil oldin respublikamiz hududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. 1926-yili mamlakatimizda 90 ta millat va elat vakillari yashagan bo'lsa, 1959-yili ularning soni 113 taga, 1979-yilda esa 123 taga yetgan, 1989-yildan hozirgacha bo'lgan vaqt mobaynida esa 130 dan ortgan.



### Ijodiy faoliyat

1. Xavfsizlik ta'minlanmagan jamiyatda barqarorlik qay darajada bo'ladi? Butun dunyodagi barqarorlikni qanday kafolatlash mumkin?
2. Xavfsizlikni ta'minlashda millatlararo totuvlikning ahamiyati nimalardan iborat?

### Ma'lumot uchun



Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasidagi "tolerantlik" so'zi o'zbek tiliga "bag'rikenglik" deb tarjima qilinganidan keyin, tilimizda o'rnashib qoldi. Rus tilida "терпимость" so'zi boshqachasiga aytganda "снисходительность", ya'ni bag'rikenglik, kengfe'llik ma'nolarini anglatadi. Diniy soha haqida gap ketganida rus tilida "веротерпимость" so'zi ishlatiladi. O'zbek tilida "diniy bag'rikenglik" iborasi aynan shunga mos keladi.





### Ma'lumot uchun



“XIX asrda Rossiyaning markaziy mintaqalaridan majburlab ko'chirilgan krestyanlar nochor ahvolga tushib qolganda mahalliy aholi ularga har tomonlama yordam ko'rsatgan. O'sha davr voqealarini ko'rgan iyeromonax Xariton: “...Mahalliy aholi nochor ko'chmanchilarga rahmdillik bilan munosabatda bo'ldi, busiz ularning ko'pchiligi ochlik va muhtojlikdan o'lib ketgan bo'lardi”, degan edi.

*Arxiyepiskop Vladimir*



### Ijodiy faoliyat

1. Mazkur hikmatda keltirilgan sifatlarga inson necha yoshidan ega chiqishi kerak deb o'ylaysiz?

*“Ustod so'zicha, himmat egasi to'qqiz sifatni orzu qiladi: ko'zi o'tkir, qumquloq bo'lsa, yuzi kulib tursa, harakatida barakat, ishi pishiq, lafzi toza bo'lsa, ikkilanganda so'rashdan iymansa, qahri qo'ziganda oqibatini o'ylasa, ko'nglida adolat oftobi bo'lsa, paytida foydani bilsa...”*

*Konfutsiy*

2. Zehningiz o'tkir, fikringiz teran, bilimli bo'lsangiz-u, lekin oqibatsiz va qahrli bo'lsangiz, bunday illatdan qanday qutulish mumkin? Fikringizni mavzuga bog'lab tushuntirib bering.

### Mulohaza uchun



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalarga to'xtalib, “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish bo'yicha takliflarini ilgari surgan edi. 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi 73-sessiyasi 51-yig'ilishida “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” rezolyutsiyasi 193 ta a'zo mamlakat tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi.

1. Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” rezolyutsiyasining asosiy maqsadi nima deb o'ylaysiz?

2. Ma'rifatsiz diniy bag'rikenglik bo'lishi mumkinmi? Fikringizni asoslang.



### Ijodiy faoliyat

Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda keltirilishicha, Payg‘ambar alayhissalom oldilaridan o‘tayotgan g‘ayridinning janozasiga hurmat ko‘rsatib, o‘rinlaridan turdilar. Bundan taajjurlangan odamlarga qarab, uning ham inson ekanligini eslatdilar.

1. Berilgan matndagi “Uning ham inson ekanligi...” degan fikrni siz qanday tushundingiz? Insoniylik, odamiylik deganda nimani tushunasiz?

2. Kishidagi qaysi xislatlar uning mehr-oqibati, bag‘rikengligi, kamtarligi va samimiyligini ko‘rsatadi? Siz o‘zingizda shu ezgu xislatlarni jo qilganmisiz? Buning qanday qiyinchiligi bor?

3. Hech e‘tibor berganmisiz, qaysi dinga mansub bo‘lishidan qat‘i nazar, mu-loqot davomida insonlar “Yaratganga shukur”, “Xudo xohlasa” kabi so‘zlarni ko‘p aytadilar. Nega shunday? Fikringizni asoslang.



### Darsdan ijobiy saboq chiqarib



1. Insonni tabiat va jamiyat bilan bog‘lab turishda dinning tarbiyaviy ahamiyati katta ekaniga o‘z kundalik hayotingiz bilan bog‘lab misollar keltiring.

2. Ko‘plab fazilatlarga ega bo‘lsa-da, bag‘rikeng bo‘lmasa, bunday insonni fazilatli, oliyjanob deb ayta olamizmi? Nima uchun?

3. Davlat va din munosabatlarining qanday modellarini bilasiz? O‘zbekiston Respublikasi mazkur modellarining qaysi birini qo‘llagan?

4. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 61-moddasida davlat va din munosabatlariga oid qanday fikr mustahkamlab qo‘yilgan?

5. O‘zbekiston Respublikasi davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatida qanday tamoyillarga amal qiladi?

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mavzu bilan bog‘liq qoidalar-ni toping. Davlat va huquq asoslari fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, ushbu qoidalarni buzganlik uchun belgilangan javobgarliklar ro‘yxatini shakllantiring.

## 8-9-MAVZU: KSENOFOBIYA



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Ksenofobiya, xristianofobiya, yudofobiya, islamofobiya degan atamalarni eshitganmisiz? Ularning mohiyatini ochib berishga harakat qiling.
2. Qo'rquvga qanday hodisalar ko'proq sabab bo'ladi?
3. Qo'rquvni yengish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Sun'iy qo'rquv nimaligini bilasizmi? Biologik qo'rquv bilan sun'iy qo'rquvning farqi nimada?

### Mulohaza uchun



Ksenofobiya bu tabiiy bo'lmagan, insondagi biror notanish narsaga nisbatan haddan ortiq nafrat hissining yuzaga kelishi, asab tizimining izdan chiqishi holatidir. Insondagi ushbu psixologik xususiyat har qanday yangilikni, u yaxshi yoki yomon bo'lishidan qat'i nazar, hadiksiragan holda qabul qilishdan iborat.

O'z davrida Nikolay Kopernik (1473–1543), Galileo Galiley (1564–1642), kabi olimlarning olamshumul ixtirolari katta shubha va qo'rquv bilan qabul qilingan.

XIX asrda mahalliy xalqlar o'rtasida "Tunuka tom yopilgan uyga farishta kirmaydi", "kartoshka – musulmonning taomi emas" kabi mutaassibona fikrlar tarqalgan.

Bunday gaplarni eshitganda kulib qo'yasiz. Ammo XXI asrdagi sivilizatsiya jarayonlari jadallashuvi davrida ham insonlar orasida ijobiy yangilikka nisbatan qo'rquv hissi yo'qolmadi. Qo'rquvning obyekti o'zgardir, xolos.

Ksenofobiya – (yunon. ksenos – begona; fobos – qo'rquv) begona, notanish bo'lgan narsa yoki tushunchadan qo'rqish ma'nosini anglatadi.

Tibbiyotda bu so'z insondagi notanish shaxs, narsa, hodisa va boshqalardan qo'rqish yoki ulardan nafratlanish tuyg'ularini bildiradi. Begona narsalardan yotsirab qo'rqish, ayniqsa, yosh go'daklarda yaqqol namoyon bo'ladi.





## Ijodiy faoliyat

...Kechagina maktab o'quvchisi, bugun esa chet eldagi nufuzli oliy ta'lim muassasasining talabasi Sevara xursandchilik bilan yaqinlari va do'stlarining tabriklarini qabul qilardi. Bo'lmasam-chi, axir u uzoq vaqt orzu qilib yurgan mamlakatiga o'qishga ketish arafasida turibdi, Sevara grant yutib oldi. Uning orzulari ro'yobga chiqyapti va tez orada ular sari uchib ketadi...

Bayramona kayfiyatdagi Sevarani qandaydir ichki qo'rquv bosdi. U nimadandir xavotirga tushdi va cho'chiy boshladi...

Ksenofobiya irqiy yoki diniy kamsitishlarga sabab bo'ladi.

1. Nima deb o'ylaysiz, Sevara nimadan cho'chidi?
2. Tasavvur qilib ko'ring-chi, ichki qo'rquvda nimalar qamrab olingan?
3. Sevara qanday yo'l tutishi kerak? Maslahat bering.

## Ma'lumot uchun



AQSHda XIX asrda yuzaga kelgan "Ku-kluks-klan" guruhi qora tanlilarga qarshi oq tanlilar millatchiligi tufayli tashkil etilgan edi. Bu guruh tomonidan qora tanlilarga nisbatan o'tkazilgan tazyiq va terrorchilik harakatlari natijasida jamiyatda anchagina notinchliklar kelib chiqdi. "Oq irqchilik" nomi bilan mashhur bo'lgan bu yashirin jamoa AQSHda 1861-1865-yillardagi fuqarolar urushidan keyin janublik sobiq askarlar tomonidan tashkil etilgan edi.

Ular nishonga olgan qora tanli "qurbon"ga eman daraxti shox-butog'i yoki apelsin urug'larini tashlab ketar edilar.

Bu belgini olgan kishi aytilgan ishni qilishi yoki mamlakatdan chiqib ketishi kerak edi. Aks holda, uni muqarrar o'lim kutardi.

*Ku-Kluks-Klan. AQSHda oq irqchilik harakati.  
(Белое движение в США. Рору Маквей)*





Diniy ksenofobiyadan tashqari etnik, milliy, irqiy ksenofobiya turlari mavjud. Biror xalqqa (etnosga) nisbatan hadiksirash, qo'rquv bilan qarash va shu qarashlar bilan bog'liq xatti-harakatlar etnik ksenofobiyaning bir ko'rinishidir. Ommaviy axborot vositalarida "terrorizm" va "islom" so'zlari ko'p holatlarda birgalikda ishlatilmoqda, oqibatda islomdan qo'rqish – islamofobiya tushunchasi yuzaga keldi.

Islamofobiya ba'zan "diniy kamsitish" (diniy diskriminatsiya) ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

"Diniy kamsitish" kishilarning haq-huquqlarini diniy mansubligiga ko'ra chegaralashdan iborat.

Islom dinini o'ziga niqob qilib olgan ekstremistik guruhlarining faoliyati islamofobiyaning kuchayishiga olib keladi.


Bunday guruhlar islom manbalarini buzib, o'z manfaatlariga mos ravishda talqin etadilar. Shuningdek, ular o'z manfaatlari yo'lida hech qanday muqaddas narsani – din-u diyonatni, millat va Vatanni tan olmaydilar. Bunday guruhlarni islom nomi bilan bog'lash, ular olib borayotgan xunrezliklarni "islomning shartlari" sifatida talqin etish mumkin emas.

Diniy ksenofobiyaning ko'rinishlari boshqa jahon dinlariga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan, xristianlik diniga nisbatan salbiy munosabat "xristianofobiya", yahudiylilik diniga nisbatan salbiy munosabat "yudofobiya" deb ataladi.



### Ijodiy faoliyat

1. Islamofobiya jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
2. Diniy ksenofobiya hamda etnik, milliy, irqiy ksenofobiyaning o'ziga xos va umumiy jihatlarini aniqlang.



3. Diniy ksenofobiyaning kelib chiqishiga qanday omillar sabab bo'ladi?

4. Islamofobiyaning ma'naviyatga tahdidi bormi? Fikringizni asoslang.

5. "Kamsitish" mamlakatimiz qonunlarida qanday huquqbuzarliklarning obyekti bo'lishi mumkin?

6. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha qancha xalqaro hujjatlarni bajarish mas'uliyatini zimmasiga olgan?

Islamofobiya – jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikka raxna soluvchi diniy ksenofobiyaning bir ko'rinishi bo'lib, u islom diniga, unga e'tiqod qiluvchilarga va shu din bilan bog'liq obyekt va tushunchalarga bir yoqlama, ya'ni salbiy jihatdan yondashuvning natijasidir.



#### Ma'naviyat xazinasidan

Islom dinining tinchlikparvarlik mohiyatini uning muqaddas manbalaridan biri hadisi sharifda: "Tinchlik va xotirjamlik ikki ulug' ne'matdir-ki, bundan ko'p odamlar mahrumdirlar", deyilganidan ham bilish mumkin (*Imom Buxoriy*). Ushbu hadisdagi "**Tinchlik va xotirjamlik**" barcha insonlarning birlashgan holda tinchlik yo'lini tutishlari, uni barqaror qilish uchun bor imkoniyatlarini ishga solishlari va qadriga yetishlari zarurligini bildiradi.

#### Ma'lumot uchun



2020-yil 15-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Oliy Majlisi Senati Kengashlarining "Irqiyl kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Xalqaro konvensiya qoidalarini bajarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining O'ninchi – O'n ikkinchi davriy ma'ruzalarini ko'rib chiqish yakunlari yuzasidan BMT Irqiyl kamsitishni tugatish bo'yicha qo'mitasi-ning yakuniy mulohazalari va tavsiyalarini bajarish yuzasidan 2020–2022-yil-larga mo'ljallangan Milliy harakatlar rejasi haqida"gi Qo'shma qarori qabul qilindi.



#### Mulohaza uchun

Xristian diniga mansub bir oila ketayotgan avtomobil harbiy harakatlar avj olgan hududdan o'tib borardi. Jangarilardan biri ularning avtomobilini to'xtatib: "Sen musulmonmisan?" deb so'radi. Oila boshlig'i "ha" deb javob berdi. "Unda Qur'ondan bitta sura o'qib ber", – dedi jangari. Oila boshlig'i Injildan bir oyat o'qidi. Jangari ularni qo'yib yubordi. Yo'lda borar ekanlar ayoli oila boshlig'iga: "Bu nima qilganingiz? Hammamizni xatarga qo'ydingiz. Agar u odam Injildan o'qiganingizni bilib qolsa, nima bo'lardi?" – dedi. "Qo'rqma, u Qur'onni bilmaydi, bilganida jangari bo'lmas edi", – deb javob berdi oila boshlig'i.

1. Nima uchun oila boshlig'i bunday javob berdi?



Ma'lumot uchun



1965-yil 21-dekabr kuni qabul qilingan.  
1969-yil 4-yanvar kuni kuchga kirgan.



A'zo davlatlar soni – 182 ta.


“Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida”gi Xalqaro Konvensiya



Konvensiyaning bajarilishi ustidan monitoringni BMTning Irqiy kamsitishni tugatish qo'mitasi amalga oshiradi.



O'zbekiston mazkur Konvensiyaga 1995-yil 31-avgustda qo'shilgan.



Ratifikatsiya qilmagan davlatlar soni – 3 ta (Butan, Palau, Nauru).



Konvensiya O'zbekistonda 1995-yil 28-oktabrdan kuchga kirgan.

## Darsdan ijobiy saboq chiqarib



1. Dunyoda qancha davlat va millat bor?
2. Jahondagi barcha millat, elat, irq va din vakillarini bir xil holatga keltirish mumkinmi?
3. Ikki xil millat vakili o'zaro janjallashayotganini ko'rsangiz, ularni kelishtirish uchun qanday so'zlarni aytgan bo'lardingiz?
4. Islom dinida boshqa din vakillari bilan qanday muomalada bo'lishga chaqirilgan?
5. Dunyo dinlari haqida ma'lumotga egamisiz? Qanday dinlar borligini manbalardan o'qing.



## Ijodiy faoliyat

Ushbu metodika insondagi stress darajasini aniqlash uchun mo'ljallangan.

**Yo'riqnoma:** 12 ta holat taqdim etiladi. Tegishli javoblarga quyidagicha ball qo'yiladi:

*Juda tez-tez – 6 ball*

*Tez-tez – 5 ball*

*Ba'zan – 4 ball*

*Kamdan kam – 2 ball*

*Hech qachon – 1 ball*

- 1) Yomon uxlaysiz;
- 2) Doimo charchab yurasiz;
- 3) Beixtiyor noodatiy (tizzalarni qimirlatib o'tirish, tebranish, barmoqlarni tishlash va b.) harakatlar qilasiz;
- 4) Do'stlaringiz bilan uchrashishni xohlamaysiz va yolg'iz qolishni istaysiz;
- 5) Ko'p terlaysiz;
- 6) Jizzaki bo'lib qolgansiz;
- 7) So'nggi paytlarda besabab yig'lab yuboradigan odat chiqargansiz;
- 8) Nafas siqishidan qiynalasiz;
- 9) Bezovta yurasiz;
- 10) Ishtahangiz ba'zan yaxshi, ba'zida yo'qoladi;
- 11) Oshqozoningiz faoliyati buzilib turadi;
- 12) Goh u yeringiz, goh bu yeringiz og'rib turadi.

*Javob:*

**40 balldan kam.** Ba'zan stress holatiga tushadi, lekin o'zini boshqara oladi.

**40–48 ball.** Vaqti-vaqti bilan o'rtacha stress holatiga tushadi.

**48 balldan yuqori.** Yuqori darajadagi stress. Hayot tarzini qayta ko'rib chiqish lozim. Stressdan chiqish uchun psixologga murojaat qilish kerak.

## 10-11-MAVZU: MISSIONERLIK - YOSHLAR KELAJAGIGA TAHDID



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Missionerlik va prozelitizm haqida nimalarni bilasiz?
2. Missionerlarning asosiy maqsadlari nimadan iborat deb o'ylaysiz?
3. O'zbekiston qonunlarida missionerlik haqida nima deyilgan?
4. Missionerlikning jamiyatga qanday ta'siri bor?

**Sekta** faqat o'z e'tiqodini "haq din", insonlarni "najotga yetkazuvchi" deb da'vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydigan guruhdir.

### Mulohaza uchun



**Missionerlik** – aniq maqsadga qaratilgan mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali shaxsni (bir guruh shaxslarni) o'z diniga kiritish ilinjida unga (ularga) diniy qarashlarni majburan singdirishga va diniy ta'limotni tarqatishga doir faoliyat.

**Prozelitizm** – missionerlik faoliyatining bir konfessiyaga e'tiqod qiluvchilarni boshqa konfessiyalarga o'tkazishga qaratilgan shakli.



### Ijodiy faoliyat

1. Vatandan begonalashish qanday oqibatlarga olib keladi? Javoblaringizni asoslang.
2. Vatan tushunchasini inkor etish orqali o'z-o'zidan yana qaysi tushunchalar inkor etiladi? Qanday qadriyatlarga zarar yetadi?
3. "Bemor bolaga qon quyish zarur bo'lib qolganda qon beradigan donor topilmasa..." Gapni davom ettiring. Fikringizni asoslang.

Ko'pchilik sektalar "Vatan" tushunchasini umuman inkor qiladilar. Ba'zi sektalarda bir insonning qonini boshqasiga quyish gunoh hisoblanadi.

JSST statistikasi bo'yicha temir tanqisligi anemiyasi 25% holatlarda chaqaloqlarda, 4 yoshgacha bo'lgan bolalarda 43% gacha, 5-12 yosh oralig'idagi bolalarda 37% va balog'at davridagi bolalarda esa 30% holatlarda aniqlangan.



## Ma'lumot uchun



Qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan hech kim o'z diniy e'tiqodlarini sabab qilib bo'yin tovlashi mumkin emas. Diniy e'tiqodlarini sabab qilib, bir majburiyatni bajarishni boshqasiga almashtirishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

*O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni 6-moddasidan*



## Mulohaza uchun

1970-yilda 2200 ta xorijiy missiyada 240 000 professional missioner faoliyat yuritgan bo'lsa, 2000-yilda 4800 ta xorijiy missiyada 420 000 missioner targ'ibot o'tkazib kelgan. 1970-yilda xorijiy missiyalarning faoliyatiga 3 milliard AQSH dollari sarflangan bo'lsa, 2000-yilda ushbu ko'rsatkich 12 milliardga yetgan. Yetakchi missionerlik markazlari qatorida "Missiyalar va butunjahon xristianlik maktabi" (Birmingham), "Henri Martin markazi" (Kembrij, Buyuk Britaniya), Grigorian va Urbanian universitetlari (Vatikan), "Xorijiy missiyalarni o'rganish markazi" (Nyu-Xeyven, AQSH) kabilarni qayd etish mumkin.



## Ma'naviyat xazinasidan



Inson o'ziga-o'zi bo'ysunishni va o'z qarorlariga itoat qilishni o'rganmog'i lozim.

*Sitseron*



## Ijodiy faoliyat

"Inson o'ziga-o'zi bo'ysunishni o'rganmog'i" deganda nimani tushundingiz?  
 "O'z qarorlariga itoat qilishni o'rganmog'i" deganda-chi?  
 Fikringizni "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili bilan bog'lab tushuntiring.






### Mulohaza uchun

Missionerlar muayyan hududda o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda muhim mintaqalarni belgilab oladilar. Jumladan, hozirgi kunda xristian missionerlarining diqqat-e'tibori "10/40 oyna" deb atalgan hududga qaratilgan.

Ushbu hududda aholisining aksariyat qismi islom, buddaviylik, konfutsiylik va hinduiylik dinlariga e'tiqod qiluvchi mamlakatlar joylashgan. Aynan mazkur hududda dunyodagi eng yirik gaz, neft, uran zaxiralari, qit'alararo strategik ahamiyatga ega transkommunikatsiya yo'llari, bo'g'oz va ko'rfazlar joylashgan.

Bugungi kunga kelib, protestant missionerlik tashkilotlarining qo'nimgo-higa aylangan mamlakatlarning qonunlarida chet elliklar uchun vizasiz kirish imkoniyati berilgan. Shuningdek, diniy tashkilotlarga xorijdan xayriya yordamlarini mustaqil olib, tarqatishga ham ruxsat etilgan. Diniy targ'ibotga cheklolarning qo'yilmagani yangi diniy konfessiyalar, ayniqsa, yevangelchi protestant jamoalariga keng imkoniyatlar ochib bermoqda.



10- va 40-parallellar orasidagi Atlantika okeani qirg'oqlaridan Kichik va Markaziy Osiyo, Arabiston yarimoroli, Janubiy Osiyo-ning Tinch okeani qirg'oqlariga qadar cho'zilgan hudud "mojarolar zonasi"dir.

*Alfred Mexen, siyosatchi*



### Ijodiy faoliyat

1. Xaritadan 10- va 40-parallellarda qaysi davlatlar joylashganini tarix va geografiya fanlaridan olgan bilimlaringizga tayanib toping.

2. Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy keskinliklar, qurolli mojarolarning aksariyati "10/40 oyna" ichidagi mamlakatlarda ro'y bermoqda. Buning sababi nima-da deb o'ylaysiz? Fikringizni misollar bilan asoslang.

## Mulohaza uchun



... Kech kuz edi. Bir kuni ishdan qaytsam, odatda meni ostonada xursandchilik bilan kutib oladigan ayolim va ikki nafar farzandim qandaydir ko'rsatuvni diqqat bilan ko'rib o'tirishar edi. Shu kuni farzandlarim mening oldimga yugurib chiqishmadi, dasturxon atrofida doimgidek, birga o'tirib ovqatlanmadik, uyquga yotishdan oldin ham bir-birimizga yaxshi tilaklar bildirmadik. Oila a'zolarimni qiziqtirib qo'ygan Vissiarion otaning bir nechta videoma'ruzasini ko'rgach, ayolim issiq ovqat tayyorlamay qo'ydi. Farzandlarimni xom suli va undirilgan bug'doy bilan boqa boshladi. Bolalarga go'sht, sut va dorilarni berishdan voz kechdi. Bolalarim ko'z oldimda quvvatsizlanib, ular tez-tez kasal bo'la boshlashdi, lekin ayolim davolash va dori berishni mutlaqo rad etar, hatto u bolalarimni uzoq qishloqqa yubormoqchiligini, ularni abadiy hayotga tayyorlash haqida gapira boshladi...

Kunlarning birida kichik o'g'limning isitmasi ko'tarilib, alahsiray boshladi. Men "Tez yordam"ni chaqirdim. Ayolim esa o'g'limni qattiq quchoqlab, uni tashlab ketmasligini yolvora boshladi. O'g'limni kasalxonaga olib ketishdi. Shundan so'ng ayolimning ko'zidagi parda ko'tarilgandek bo'ldi. U yig'lab, o'zini Masih deb atagan kimsaning jaholat to'riga, da'vatlari ta'siriga tushib qolganini aytib berdi. Bu gapdan men qo'rquv va dahshatga tushdim. Ayolimni qattiq ruhiy ta'sir ostiga tushib qolganini angladim va chora ko'rish yo'llarini izladim.

Maktubimni o'qiganlarning barchasiga murojaat qilib shuni aytmoqchimanki, gazetalar, radio va telekanallar, internet sahifalarida berilayotgan ma'lumotlarni doimo tahlil qiling.

Yodingizda bo'lsin, moddiy manfaat uchun, tor doiradagi odamlar manfaati uchun o'zingiz va yaqinlaringiz hayotini xavf ostiga qo'ymang.

*R.N., Krasnodar o'lkasi*



## Ijodiy faoliyat


1. Farzandining kasal bo'lishi ayolning bu yo'ldan qaytishiga sabab bo'ldi. Nima deb o'ylaysiz, farzandi betob bo'lmaganida, bu yo'lning oxiri nima bilan tugar edi? Ayoldagi qaysi fazilatlar ko'zidagi pardaning ochilishiga sabab bo'ldi?

2. Inson o'z maqsadini amalga oshirish yo'lida yaqinlarining, atrofidagilarning hayotini xavf ostiga qo'yishini qanday baholaysiz? Fikringizni asoslang. Xavf ostiga qo'yish qanday oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin? Fikringizni uchta yo'nalishda tushuntiring: 1) oila a'zolariga; 2) yoshlar kelajagiga; 3) jamiyat va davlatga nisbatan.



Ijodiy faoliyat

1. Rasmlarni izohlang. Hikoya tuzing.
2. 11-rasmdagi holatning oldini olish mumkinmi? O'smirning bu harakatlari jamiyat tinchligiga ta'sir ko'rsatadimi?
3. 5-, 6-rasmlardagi holatni "manqurtlik" deyish mumkinmi? Nima uchun?
4. Missonerlik va prozelitizmning asl maqsadi nima?



## Mulohaza uchun



## Arosat

Safardan qaytgan Salohiddin va Matluba O'rmonxonning idorasiga kelishdi.

– Safarlar qalay bo'ldi, Salohiddinboy? – dedi O'rmonxon minnat va istehzo ohangida.

– A'lo darajada! Borganimizda hamma biz bilan yaxshi munosabatda bo'ldi. Undan keyin ko'p narsani o'rgandik. Ko'o'p narsani o'rgandik... Eng qizig'i, yarim yil qanday o'tib ketganini bilmay qolibmiz...

Matlubaning birovdan katta qarz olib, uni qanday qaytarishni bilmay, “Endi nima bo'ladi?” degan o'ylarini erining tomoq qirishi buzib yubordi. Darhol sergak tortdi-da, o'rgatilgan to'tiqushdek sayray boshladi:

– Sizning yordamingiz bilan shu darajaga erishdik. Buning uchun sizdan o'la-o'lguncha minnatdormiz, O'rmonxon aka.

– Xuddi shunday, – xotining gapini ma'qulladi Salohiddin.

– Yaxshi, yaxshi, bu – boshlanishi. Hali birgalikda ko'p ishlar qilamiz...

Matluba “yana nima?”, “qanday ishlar?” degandek eriga qaradi. Uning qarashini sezib turgan Salohiddinning yuz ifodasi ham o'zgarmadi. Nigohi O'rmonxonda edi.

– Sizlar xorijda o'qib, ancha-muncha narsani o'rganib keldingiz-a? Endi odamlarning orasiga kirib, o'zbek tilida tushuntirish ishlarini olib borasiz. Saf-doshlarimizni yanayam ko'paytirishimiz kerak.

– O'rmonxon aka, hammasi xuddi siz aytganday bo'ladi, – dedi Salohiddin tamagirlik bilan. Matluba eriga “To'g'ri gapiryapmanmi?” degandek bir qarab qo'ydi-da:

– Men mahalla-ko'yda xotin-qizlarni shu yo'lga da'vat qilaman, – dedi.

– Eng avvalo, yordamga muhtoj, hayotda qiynalgan odamlarni topish kerak. Bunday kishilarni pul bilan avrash oson.

Uning bu gapi Matlubaga “Pulini oldilaringmi, endi aytganimni qilasan...” degandek eshitildi. O'rmonxon topshiriqni davom ettirib:

– Muhimi, e'tiqodi zaif yoshlarga e'tibor berishimiz kerak. Chunki kelajakda ularni...

O'rmonxonning gapini Salohiddin bo'ldi-da:

– Boshqarish oson bo'ladi, – deb o'zining xayrixohligini namoyish qildi.



## Ijodiy faoliyat



1. “E'tiqodi zaif yoshlar” deganda kimlarni tushunasiz? Nima uchun?
2. Salohiddin va Matluba qanday sabablarga ko'ra missionerlik yo'lga kirib qolgan deb o'ylaysiz?
3. O'rmonxonning asl maqsadi nima edi? Salohiddin va Matlubaning safar xarajatlariga homiylik qilishdan maqsadi nima bo'lgan?

Matluba chet eldan qaytib, ota-onasini ko'rgani keldi. Suhbat chog'ida qizining boshqa dinni qabul qilganini eshitgan ota:

– Es-hushingni yig', qizim, bu ishingning oqibati yomon bo'ladi, imondan qaytgan odamning hayvondan nima farqi bor? – dedi. Otaning ovozi kuyunchaklik va yalinish bor edi. Matluba xuddi shu ohangda:

– Ilojim yo'q, kuyovingizga so'z berganman, ota, – dedi:

So'ngra yerga qaradi-da, yana davom etdi:

– Agar bu yo'ldan qaytsam, u meni ham, bolalarimni ham uydan haydaydi.

– Turqi qursin o'sha kuyovning, ajrash, qizim, tirik ekanmiz, sizlarni yolg'izlatib qo'ymaymiz... – ota qiziga yalindi. Matluba bu gapdan esankirab qoldi. Bir onasiga, bir otasiga qarab oldi. Otasining ko'ziga tik qaradi-da:

– Otajon, ko'ra bila turib, bolalarimni tirik yetim qilaymi? Siz bolalarimga otalik qila olasizmi?

Matlubaning bunday ohangda gapirishidan otasi yalt etib ayoliga qaradi. Bu qarashdan “Sen nega jim o'tiribsan?” degan ma'noni anglash qiyin emasdi. U ham erining avzoyini ko'rib, biror nojo'ya gap aytib yubormasin deb hovliqqancha suhbatga aralashdi:

– Axir, ering iymonsiz bir odam bo'lsa, unda otalik mehri nima qilsin? Bolalaringni endi o'ylab qoldingmi? Ularni tashlab, yarim yil allaqayoqlarda yo'q bo'lib ketdilaring. Yarim yil yo'llaringga termilib yig'lab chiqishdi bechoralar. Yana mehr haqida gapirasana? – deb o'pkaladi-da, eriga “bo'ladimi?” degandek qaradi. Otaning ko'zlari xuddi qizining qalbidagini o'qishga tikilgandek edi. Matluba o'tirgan joyidan o'zini o'nqlab oldi-da, boshini baland ko'tarib, muhim bir narsani e'lon qilgandek, dadillik bilan dedi:

– Meni bu yo'ldan qaytarmang, oyi.

– Axir...

– Undan ko'ra, sizlar ham bizga qo'shiling, kam bo'lmaysiz...

Qizidan bunday taklifni eshitgan ota xontaxtaga shunday musht tushirdiki, xotini keyingisi qiziga tushib qolmasin deb uni ushlab qoldi.

– Qizim, nimalar deyapsan, uyalmaysanmi shunaqa deyishga? – erining qo'lini qattiqroq tutdi ona. Qizidan bunday gapni kutmagan otaning nafasi tiqildi. Tomog'ida nimadir turib qolganday bo'ldi. Go'yo kimdir uni bo'g'yapti-yu, ovozi chiqmaydi. Ota chuqur nafas oldi-da, xontaxtaga egilib turgan boshini ko'tardi, bor kuchini to'plab:

– Yo'qol ko'zimdan, sendaqa qizim yo'q! Bergan tuzimga rozi emasman! – deb baqirdi...



### Ijodiy faoliyat

1. Bir o'ylab ko'ring, ota qanday vaziyatlarda “Yo'qol ko'zimdan, sendaqa qizim yo'q! Bergan tuzimga rozi emasman!” deb baqirishi mumkin?

2. Matluba va uning ota-onasi o'rtasidagi nizoli vaziyat qo'ni-qo'shnilar, mahallaning boshqa a'zolari o'rtasida ham yuzaga kelsa, bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?



#### Ma'lumot uchun

Missionerlarning faoliyati sababli: XX asrning 70-yillarida AQSHning San-Fransisko shahrida Jim-Jons ismli shaxs asos solgan "Xalq ibodatxonasi" nomli tashkilot faoliyati natijasida 912 kishi, Texas shtatida Devid Koresh shakllantirgan "Dovud avlodi" nomli sekta faoliyati oqibatida 100 ga yaqin, AQSHda paydo bo'lgan "Osmon darvozasi" sektasi a'zolarining 60 dan ortig'i, Ugandada yuzaga kelgan "Xudoning o'nta buyrug'ini qayta tiklash harakati" sektasi a'zolarining 1000 dan ziyodi o'z joniga qasd qilgan.

#### Mulohaza uchun



#### **Missionerlar o'z faoliyatlarini quyidagi usullar orqali olib boradilar:**

- yoshlarga ingliz, koreys tilini, kompyuterda ishlashni o'rgatish bahonasida o'quv kurslari ochish va mazkur joylarda o'z diniga targ'ib qilish;
- xorijga o'qishga, ishga yoki chet el fuqarosi bilan oila qurish uchun jo'natishdan foydalanish;
- bolalar va o'smirlarni yoz faslida tog'li hududlardagi dam olish oromgohlariga jalb qilish va shu yerda ularga ruhiy ta'sir o'tkazish;
- xayriya yordami ko'rsatish (pul, dori-darmon, kiyim-bosh, oziq-ovqat mahsulotlari tarqatish), uy ta'mirlashda ko'mak berish davomida missionerlik harakatlarini olib borish;
- bepul tibbiy yordam ko'rsatish bahonasida bemorga ta'sir o'tkazish;
- ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalarga echki, sigir olib berish, bayram kunlari mahallalarda bolalarga sovg'alar tarqatish, "Muruvvat" va "Saxovat" uylarida bayram stollari tashkil etish.



#### Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasini Davlat va huquq asoslari fanidan o'tilgan "Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar" mavzusiga bog'lang va tahlil qiling.

2. Amir Temur: "Yana buyurdimki, lashkarlarning uchdan bir qismi chegaralarni qo'riqlash ishiga belgilansin, qolgan ikki qismi esa doim saltanat xizmatiga hozir tursin".

- a) Amir Temur nima uchun shunday yo'l tutgan? Mulohaza yuriting.
- b) "Temur tuzuklari"dagi bu fikrning yurt tinchligiga ta'sirini tahlil qiling va ish daftaringizga yozing.

## 12-13-MAVZU: KIBERMAKONDA AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATI



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Quyidagi tasvirlarga diqqat bilan qarang va ularga munosabat bildiring.
2. Fikringizni “mafkuraviy immunitet”, “milliy va umuminsoniy qadriyat”, “odob va axloq”, “hayo va andisha”, “ommaviy madaniyat” kabi atamalar asosida sharhlang.
3. Ikkinchi qatordagi tasvirlar insonning ruhiyatiga, ayniqsa, yosh bolalar ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaysiz?



### Mulohaza uchun



Axborot – inson o'z sezgi organlari orqali qabul qiladigan barcha signallar majmuasi.

Radio, televideniye, telefon, internet kabi axborot tarmoqlari orqali uzatilayotgan ma'lumotlar turli ko'rinishga ega. Ular orasida matn, surat, video, turli belgilar tizimi va boshqalar mavjud. Kinematografiya bugungi kunda ma'lumot uzatishning eng intensiv usuliga aylandi. Kino nafaqat ma'lumot uzatish, balki tarbiyalash, mafkura, dunyoqarash va e'tiqodni shakllantirish vazifasini ham bajarmoqda.



### Ijodiy faoliyat

1. Ertalab uyqudan uyg'ongan vaqtingizdan kechqurun uyquga ketadigan vaqtingizgacha atrofingizdagi narsalarga e'tibor qilganmisiz? Ular o'zlari haqida ma'lumot beradi deb ayta olasizmi?
2. Ma'lumotlarni kerakli yoki keraksizga ajrata olasizmi?
3. Qanday ma'lumotlar siz uchun kerakli bo'lishi mumkin?
4. Ayrim hollarda jahon axborot tarmog'idan siz so'ramagan yoki umuminsoniy odob-axloq qoidalariga zid bo'lgan ma'lumotlar kelib qolishi mumkin. Bunday nomaqbul xabarlarni joylashtirishdan kimlar manfaatdor? Nima uchun?

### Mulohaza uchun



Turli missioner tashkilotlar kinematografiya orqali har xil ko'rinishda o'z g'oyalarini ilgari surishlari – ochiq-oydin ishora qilish, yashirin, psixologik ta'sir o'tkazish va boshqa yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin.

Har bir oilada sevib tomosha qilinadigan turli g'arb va boshqa davlatlarning seriallarida oilaning do'sti ruhoniylar barcha muammolarni hal etadigan, oila a'zolarining sir-asroridan xabardor shaxs sifatida targ'ib etiladi. Yoki hind kinalarida biror-bir dinning sig'inish marosimi (fil, maymun, sigir yoki boshqalar vositasida) ko'rsatiladi va ular xaloskor sifatida talqin etiladi.

Buning natijasi ...ga olib kelishi mumkin.


Nuqtalar o'rnida o'z munosabatingizni bildiring.



### Ma'naviyat xazinasidan

Har qanday narsaga har tomonlama nazar sol – foydasini ham, zararini ham ko'r. Boshqalarning fikrini o'ylab o'tirgandan ko'ra o'z ustingda ko'proq ishla.

*Lev Tolstoy*





### Ijodiy faoliyat

1. Quyidagi hikoyani o'qing. Aziz ukalarini qanday chalg'itishi mumkin?
2. Azizning harakatiga baho bering. Siz nima qilgan bo'lardingiz?
3. Javobingizni quyida berilgan "Ma'naviyat xazinasini" va "Mulohaza uchun" ruknidagi fikrlar bilan bog'lang.



### Endi mening navbatim

Azizning ota-onasi kechki tadbirga taklif etilganlari uchun unga ukasi va singlisiga qarab turishni, o'z vaqtida ovqatlanishni, kompyuter bilan band bo'lib, ukalariga e'tiborsiz bo'lmaslikni qattiq tayinlab ketishdi.

Azizning singlisi hali 4 yoshga ham kirmagan. Ukasi esa 6 yosh. Bolalar televizorda berilayotgan multfilmlarni tomosha qilib, "ertak-ertak" o'ynashmoqchi bo'lishdi. Azizning singlisi akasiga: "Men Oppog'oy bo'laman, ko'zimni yumib turaman, siz labimdan o'pib tiriltirasiz", desa, akasi: "Yo'q, men Maxluqman, sen Sohibjamol bo'lasan, labimdan o'pib tiriltirasan", deb bir-biri bilan janjallashib qoldilar...

Ularning bu janjalini kuzatib turgan Aziz tezda borib televizorni o'chirdi. Ularga: "Hech qanaqa multfilm ham, ertak-ertak ham yo'q", deb jahl qildi-yu, ammo ukalarini nima bilan band qilishni bilmay qoldi...



### Ma'naviyat xazinasidan



"Axborot urushi" iborasini ilk bor fizik olim Tomas Ron qo'llagan. U 1976-yilda ushbu masalaga barcha mas'ul kishilar e'tiborini qaratdi.

Hayo va iymon ikkisi bir-biriga yaqinlashtirilgan. Qachon ulardan biri yo'qolsa, boshqasi ham yo'qoladi.

*Hadisdan*



### Mulohaza uchun

Hayosizlik barcha dinlar tomonidan qoralanadi. Bu illat umuminsoniy va milliy qadriyatlarga ham ziddir.

Ukalaringsiz tomosha qilayotgan multfilm va kinolarda qanday voqealar aks etayotganiga e'tiborli bo'ling. Chunki bunday axborotlar orqali odob-axloq qoidalariga zid bo'lgan odatlar ularning hayot tarziga aylanib qolishi mumkin.

Kibernetika (yunoncha, boshqarish san'ati) – axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash hamda undan turli jarayonlarni boshqarishda foydalanish bilan shug'ullanadigan fan.



Ijodiy faoliyat

Quyidagi tasvirlarga diqqat bilan qarang va ularga munosabat bildiring. Berilgan jadvalni daftaringizga chizing va to'ldiring.

Multifilmlar mavzusi:	1	2	3	4	5	6
Ulardagi axloq-odobga zid tushuncha va g'oyalar:						
Milliy va diniy qadriyatlarga zid bo'lgan mafkuraviy tahdidlar:						
Qo'rqinchli sahnalar:						
Ulardagi qo'shiqlar:						
Siz yoqtirgan sahnalar:						
Ularning asosiy g'oyasi:						
Ukalaringizga qaysi multifimlarni ko'rishni tavsiya etgan bo'lardingiz?						
Inson asabini izdan chiqarishi mumkin bo'lgan voqealar:						
Qaysi qahramonlar ishtirokidagi multifilmlar yaratilishi kerak deb o'ylaysiz?						
Multifilmidagi g'oyalar nima-ga xizmat qilishi kerak?						






### Mulohaza uchun

### Tagi puch gaplar

Men Moskva shahriga ishlash maqsadida borgan edim. Bo'sh vaqtlarimda internet saytlariga kirishni odat qildim... Asta-sekin ijtimoiy tarmoqda tashkil etilgan turli guruhlarga a'zo bo'la boshladim. Bu guruhlar orqali bir qancha yangi do'stlar orttirdim. Bu "do'stlarim" meni o'zlaricha dinning turli ahkomlari bilan tanishtira boshladilar.

Keyinchalik Moskva shahrida bir necha yangi "birodarlar" bilan tanishdim... Internet imkoniyatlarini ishga solib, Pokiston, Afg'onistondagi jangarilar lagerlarida bo'ladigan suhbatlarni va Suriyadagi mojarolar tushirilgan videolavhalarini ko'rdim. Men negadir ularning ishlariga o'ta qiziqish bilan qarardim.



Moskvadan uyga qaytayotganimda oila a'zolarim va do'stlarimga ham tanishtirish, o'rgatish maqsadida o'zim bilan birga fleshkaga yozilgan ma'ruzalar, internetdan olingan videolavhalarni ham olib keldim. Ming afsuski, men xorijda yurib, internetda topganlarim quruq sarob, buzg'unchi ma'lumotlar ekanini, "birodarlar" menga tushuntirgan narsalar

haqiqiy islom dinidan butkul uzoq, tagi puch gaplar ekanini kech anglab yetdim.

*"Internetdagi tahdidlardan himoya" kitobidan*



### Ijodiy faoliyat

1. "Kim axborotga ega bo'lsa, dunyoga egalik qiladi" degan fikrni siz qanday tushunasiz?
2. Internetdagi rasmiy va norasmiy ma'lumotlar deganda nimani tushunasiz? Norasmiy ma'lumotlarga qanchalik ishonasiz?
3. Yolg'on xabar tarqatish, birovning tinchligini buzish milliy qadriyatlarimizda qanday baholanadi?
4. Mobil telefoningizga yoki elektron pochtingizga noma'lum shaxslar xabar yuborsa, bunga qanday munosabatda bo'lasiz?



### Men zulmatdan nur izlabman

O'z boshimdan o'tgan voqealarni ibrat uchun sizlarga aytib bermoqchiman. Bir kuni qo'l telefonimga "Hijrat qilishingiz kerak" degan xabar keldi. "Hijrat" nima ekanini tushunmaganim uchun bu haqida ma'lumot izladim. Ijtimoiy tarmoqlardan birida menga bu haqda tushuntiruvchilar topildi. Ularning uzoq tushuntirishlari asosida Suriyadagi harakatlarda ishtirok etish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladim. Chegarani noqonuniy kesib o'tib, chetga ham chiqib ketdim. Safimizni kengaytirish uchun o'zimga o'xshaganlarning qo'l telefonlariga turli da'vatlar yubordim.

Mening ishlarimni kim moliyalashtirayotganini bilmasdim. Telefonim 24 soat o'chmasdan ishlardi. Kompyuterni yaxshi bilganim uchun asosan turli ma'lumotlarni men qabul qilardim. Ularni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirar edim. Bu ma'lumotlarning barchasi din niqobi ostida edi.

Menga topshirilgan vazifa – odamlar o'rtasida davlatga qarshi uydirmalarni tarqatish, insonlarning o'jiz tomonlarini aniqlash va ularni safimizga qo'shib olish edi. Ukraina, Qirg'iziston, Suriyadagi voqealarni ko'rib ham ko'zim ochilmadi.

Mana bugun qora kursida o'tirib, qilgan ishlarimni sarhisob qilmoqdaman. Uysiz qolgan oilalar, nogiron bo'lib qolgan, ota-onasining jonsiz tanasini nima qilishini bilmay o'tirgan bolalar ko'z oldimdan birma-bir o'ta boshladi...

Advokatlarim menga xalqimizdan, prezidentdan uzr so'rang, aybingizga iqror bo'ling, sizni kechirishadi, afv etishadi, hech bo'lmasa, jazoni yengiliga almashtirishadi, deb tushuntirishdi.

Meni prezident afv etar, balki bag'rikeng xalqim ham kechirar, ammo vijdonim-chi?..

Siz men qilgan bu xatolarni takrorlamang. Men zulmatdan nur izlabman. Tinchlik va ozodlikning qadriga yeting.

*"Gumroh"*



#### Ijodiy faoliyat

1. Har ikkala hikoyaning umumiy tomonlari nimada?
2. "Ammo vijdonim-chi?" degan so'roqni qanday tushundingiz?



### Ma'lumot uchun



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 10-son Qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmunda materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan.

"Kasperskiy laboratoriyasi"ning guvohlik berishicha, O'zbekistonda kiber xurujga uchrayotganlarning 1,6 foiziga bank-troyanlari zarar yetkazmoqda. Mobil qurilmalar xavf-xatari geografiyasiga muvofiq, O'zbekistondagi mobil qurilmalarga har yili 1000 tadan 50 mingtagacha virusli ilovalar ziyon yetkazadi.



### Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. O'zbek filmi sahnalaridan birida bir-biri bilan urishish maqsadida to'planagan yoshlar: "Mard bo'l, erkak bo'l, do'stga do'st bo'l..." degan qo'shiq kuylashadi. Mazkur jumladagi do'st bo'lish, erkak bo'lish tushunchalarini "G'azabi kelganida o'zini tutib tura oladigan odam eng kuchli odamdir" degan hikmat bilan bog'lang.

2. Inson ongi uchun kurashda axborotning o'rni qanday?

3. Nima deb o'ylaysiz, inson axborot iste'moli madaniyatiga ega bo'lishi shartmi? Nima uchun?

4. Kinofilmlar sizning hayotigizda qanday o'ringa ega? Siz qanday kinofilmlarni zavqlanib ko'rasiz? Har bir ko'rgan filmingizdan qanday taassurot olasiz?

5. "Diniy mazmundagi materiallarni davlat dinshunoslik ekspertizasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom qanday harakatlarni tartibga solar ekan? Mazkur nizom matnini o'qing va mazmunini tushuntirib bering.

### Ma'naviyat xazinasidan



Xiradmand chin so'zdin o'zga demas,  
Vale bari chin ham degulik emas.  
Kishi chinda so'z desa zebo durur,  
Necha muxtasar bo'lsa, avlo durur.

*Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub" dan*

## 14-15-MAVZU: DUNYO DINLARIDA TINCHLIK G'OYASI



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. “Bir kun janjal bo‘lgan joydan qirq kun baraka ketadi” degan maqolning ma’nosini tushuntirib bering.
2. Urush va buzg‘unchilik qanday oqibatlarga olib kelishi haqida uchta misol keltiring.
3. Xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda millatlar va dinlararo totuvlikning ahamiyati qanday? Fikringizni misollar bilan asoslang.

### Mulohaza uchun



Har qanday din o‘z izdoshlarini tinchlik va insonparvarlikka chaqiradi. Hech qaysi din nohaq qon to‘kish, urush olovini alanga oldirish va buzg‘unchilikni targ‘ib qilmaydi. Ajdodlarimiz yaxshi va ezgu ishlar uchun hamkorlik qilish insoniy fazilat ekanini ko‘p ta’kidlaganlar.



### Ijodiy faoliyat

Ushbu matnni o‘qing, undagi “mafkuraviy immunitet” atamasini izohlang. “Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tarixga, ota-bobolarning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur”.

*Islom Karimov*

### Ma’naviyat xazinasidan



Ey farzand! Hindiston mamlakati turli mazhablardan iborat. Subhonollo taolo haqqi, senga buyurildiki, har bir mazhabga pok qalb bilan qaragin, har bir mazhab va tariqatga adolatli bo‘lgin. Xususan, sigirni qurbon qilishdan saqlanginki, bu Hinduston xalqining qalb ardog‘i va bu viloyat ahli podshohga yaxshi nazar bilan bog‘lanadi. Podshoh farmoniga bo‘ysungan xalqni xarob qilmagin. Adolatni ixtiyor qilgin. Shunda shoh raiyatdan, raiyat shohdan xotirjam bo‘ladi. Islomning taraqqiyoti ehson tig‘i bilan yaxshiroqdir. Zulm tig‘i bilan emas.

*Zahiriddin Muhammad Boburning Humoyunga yozgan vasiyatnomasidan*



### Ijodiy faoliyat

Berilgan rasmlar va quyidagi matn asosida mamlakatimizdagi din va davlat munosabatlariga ta'rif bering.



Mamlakatimizda vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo'lgan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish;

konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash;

vijdon erkinligini ta'minlashda dunyoviy davlat qurilishini saqlab qolish;

vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikka fuqarolar hamda diniy tashkilotlar tomonidan rioya etilishini ta'minlash;

jamoat tartibiga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog'lig'i va axloqiga, huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi diniy g'oyalar hamda qarashlarning singdirilishi va tarqatilishiga qarshi kurashish.



### Ma'lumot uchun



1. Urushni har qanday usulda targ'ib etish qonun orqali taqiqlanishi kerak.
2. Kamsitish, adovat yoki zo'ravonlikka undovchi milliy, diniy yoki irqiy nafrat ruhidagi har qanday harakat qonun yo'li bilan taqiqlangan bo'lishi lozim.

*Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 20-modda*

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 156-moddasida milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish uchun javobgarlik belgilangan.



Mulohaza uchun

Dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya‘ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma‘naviyatidan judo qilishga urinadi.




XIX asrning oxiri



Samarqanddagi  
Bibixonim  
masjidi



XX asrning oxiri



XIX asrning oxiri



Toshkentdagi  
katolik cherkovi



XX asrning oxiri

Ijodiy faoliyat



1. Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘p millatli va turli konfessiyaga mansub aholi yashashining sabablari nimada?
2. Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va O‘zbekistondagi diniy manzara haqida ma‘lumot bering. O‘zgarishlarni diagrammada aks ettiring. Diagramma asosida O‘zbekistondagi o‘zgarishlarni Konstitutsiyaning 4-moddasida berilgan qoidalarning amaldagi ijrosi bilan bog‘lab tushuntiring.



Ma‘lumot uchun

Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va O‘zbekistonda XXI asrning boshlarida o‘ziga xos diniy manzaraga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Qozog‘iston Respublikasida rasman 18 ta diniy konfessiya tarkibida 3600 dan ortiq diniy birlashma mavjud. Mamlakatda 246 ta noan‘anaviy diniy guruhlar va yangi jamoatlar (missionerlar) ham faoliyat ko‘rsatadi.

Turkmaniston Respublikasida 13 ta diniy konfessiya ro‘yxatga olingan. Mamlakatda 128 ta diniy tashkilot mavjud.

Qirg‘iziston Respublikasida 30 dan ortiq diniy konfessiya mavjud.

### Mulohaza uchun



Ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa barcha jabhalarning taraqqiy etishi tinchlik, osoyishtalik bilan bog'liqdir. Yil sayin davlatlar tomonidan mudofaa tizimi va harbiy sohaga ajratilayotgan xarajatlarning oshib borishi fikrimizni tasdiqlaydi. Biroq faqatgina zamonaviy qurol-yarog'ga ega bo'lishning o'zigina tinchlikni ta'minlamaydi. Zamonaviy buzg'unchi kuchlar ochiqcha jang qilmay, balki to'satdan qo'poruvchilik amaliyotlarini qo'llash, harbiylar emas, balki tinch aholini nishonga olish kabi qabih usullardan foydalanmoqdalar.



### Ijodiy faoliyat

1. Quyida berilgan matnlarni o'qing. Ularning yuqoridagi matn bilan qanday bog'liqligi bor?

2. Ikkinchi matndagi holatda siz nima qilgan bo'lardingiz? Bunday feyklar (yolg'on xabarlar) jamiyat tinchligiga qanday raxna soladi?

– 2021-yilning 13-iyul kuni taxminan soat 22:30 larda Toshkent shahriga



Instagram va Youtube'da "Subo" nomi bilan tanilgan, S. ismli rossiyalik blogger keldi. Qayd etilishicha, bundan oldinroq u o'zining sahifasida tez orada Toshkentda bo'lishini va obunachilari bilan uchrashib, ularga pul tarqatishini ma'lum qilgan. Toshkentning Amir Temur xiyobonida S.ni kutib olish uchun 150–200 ga yaqin fuqaro yig'ilgan.

*Toshkent shahar IIBB Matbuot xizmati xabari*

### Ma'naviyat xazinasidan



Dunyoga aql ko'zi bilan boqqan odamga dunyo ham oqilona qaraydi.

*Hakim at-Termiziy*

Odotsiz, tarbiyasiz va badxulq kishilar bilan tortishmang.

*Imom G'azzoliy*

Dunyoni qattiq tutuvchilarni dunyo ham qattiq tutadi.

*Qamariddin Islamov, faxriy jurnalist yon daftaridan*



### Ijodiy faoliyat

1. "Dunyoga aql ko'zi bilan boqish...", "Dunyoni qattiq tutuvchi..." iboralari o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

2. "Tinchlik va xotirjamlik bo'lsin" deganda nimalar nazarda tutiladi? Bu tilak boshqa din vakillarining qadriyatlarida ham aks etishini inobatga olib, fikringizni bildiring.

## Mulohaza uchun



**Buddaviylik** qadimiy jahon dinlaridan sanaladi. Bu din qotillik, o'g'rilik, gumrohlik, yolg'on so'z, mast qiluvchi narsalardan saqlanishni targ'ib qiladi. Buddaviylikda nainki insonlar, hatto biror bir tirik jonzotni o'ldirish ham qattiq gunoh sanalgan.

Qadimgi budda rohiblari og'izlariga chivin kirib nobud bo'lmasligi uchun maxsus to'r tutib yurgan. Haqiqiy buddaviy o'z hayoti davomida amal qilishi lozim bo'lgan beshta shartning birinchisi hech bir tirik jonga zarar yetkazmaslikdir. Shu bois buddaviylar o'zlarini dunyodagi eng insonparvar din vakillari deb ataydilar.



## Ijodiy faoliyat

1995-yilning mart oyida buddaviylikdan ajralib chiqqan sekta – “Aum Sinrikyo” tomonidan Tokio (Yaponiya) metrosida sodir etilgan terroristik harakat oqibatida 12 kishi hayotdan ko'z yumib, 5 mingdan ziyod odam turli darajada zaharlangan.

“Aum Sinrikyo” ning bu qilmishi buddaviylik ta'limotiga qanchalik to'g'ri keladi? Sektaning faoliyatiga baho bering. Fikringizni “Ma'naviyat xazinasini” ruknida berilgan Buddaning fikri bilan asoslang.

## Ma'naviyat xazinasidan



Yomonlik qilma, gunohdan saqlan. Hamisha yaxshilik qil. Boshqalarni sevsang, o'zing ham, boshqalar ham baxtli bo'lishadi.

*Budda*

## Mulohaza uchun



**Xristianlik** dunyoda eng keng tarqalgan jahon dini hisoblanadi. Mazkur **dinni niqob** qilib buzg'unchilik, xunrezlik maqsadlarida foydalanilgani, “Salib yurishlari”, “Inkvizitsiya” nomlari ostida ko'plab shaharlar vayron qilingani, minglab odamlarning halok bo'lgani ma'lum. Holbuki, xristianlikda hech kimga yomonlik qilmaslik haqida ta'lim beriladi, tinchlikparvarlik, yaxshilik qilish va ezgulikka chaqiriladi.

### Ma'naviyat xazinasidan



Muhammad payg'ambarning (s.a.v) Najronning bosh yepiskopi Abulhorisga yo'llagan maktubida quyidagilar ma'lum qilingan. "... Bosh yepiskopga, uning ruhoniylari va boshqa yepiskoplarga ma'lum bo'lsinki, sizlarning cherkovlaringiz, ibodatxonalaringiz qanday bo'lsa, shundayligicha qoldiriladi. Sizlar o'z ibodatlaringizda hur va erkinsiz. Birontangiz o'z mansabi va maqomidan chetlashtirilmaydi. Diniy marosimlaringizda hech narsa o'zgartirilmagani kabi, mazkurlardan ham hech narsa o'zgartirilmaydi..."

*K. Jorjio, italiyalik tadqiqotchi*



### Ijodiy faoliyat

1. Dunyo dinlarida tinchlik g'oyasiga alohida e'tibor qaratilishi yuzasidan 5 ta ma'limot keltiring.
2. "Din terror emas, terror din emas" degan fikrni izohlang.
3. Berilgan matnni o'qing. "Firqalarga bo'linmaslik" bugungi kunda qanday ahamiyatga ega? Fikringizni asoslang.

Dinni barpo qilingiz va unda firqa-firqaga bo'linmangiz!

*Qur'oni karim, Sho'ro surasi, 13-oyatdan*

Muqaddas Qur'oni karimda musulmonlarga qarata firqalarga bo'linmang, degan mazmundagi ko'rsatmalar bor. Bu turli oqimlarga bo'linib, odamlarni to'g'ri yo'ldan adashtirishga dinimiz mutlaqo qarshi ekaniga yaqqol dalil emasmi?

*Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

### Ma'lumot uchun



Toshkent shahrida 2018-yil 11-12-iyun kunlari "Terrorizmga olib keluvchi tajovuzkor ekstremizm va radikalizmining oldini olish hamda ularga qarshi kurashishda yoshlarning roli" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Konferensiyada BMT, Yevropa Ittifoqi, YXHT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar, o'ndan ortiq mamlakat delegatsiyalari, xorijlik ekspertlar, fan arboblari, senatorlar, deputatlar, yoshlar ishtirok etdilar.



### Mulohaza uchun

Milodiy 628-yili musulmonlar va mushriklar o'rtasida "Hudaybiya sulhi" deb nomlangan bitim imzolandi. Sulhga ko'ra, uzoq muddatga qabilalarning daxlsizligi, tinch-totuvligi ta'minlandi. Savdo aloqalari mustahkamlandi. Har ikki tomondan asirga olinganlar ozod qilindi. Bu sulh tarixda tinchlik bitimi sifatida qoldi. Abu Bakr Siddiq: "Islom tarixida Hudaybiya sulhidan ko'ra kattaroq g'alaba bo'lgan emas", deb ta'kidlagan.

## Mulohaza uchun



**Janubiy Iroq, Suriya va Yaman, IX asr:** Islom nomidan harakat qilgan qarmatiylar ekstremistik guruhi 899-yilda Bahraynni bosib oldi. 930-yili haj mavsumida Makkaga hujum uyushtirib, Ka'bani talon-toroj qildi. Hajga borganlarni o'ldirib, bir qismini qul qildi.

**Fransiya, 1572-yil.** Gersog Fransua Giz o'zining ko'p sonli qo'riqchilari bilan ibodat qilayotgan protestantlarga hujum qildi. Ko'plab qotilliklar sodir bo'ldi. Tarixda "Varfolomey kechasi" nomi bilan esda qolgan mazkur tunda 6 ming nafar protestant (bolalar, ayollar, qariyalar) qatl qilindi. Bu voqea Fransiyada 36 yil davom etgan diniy urushning boshlanishiga sabab bo'ldi.



**Yangi Zelandiyaning** Kraystcherch shahridagi "an-Nur" va "Linvud" masjid-

larida 2019-yilning 15-martida sodir etilgan ayanchli terrorchilik harakati 51 nafardan ortiq kishining hayotiga zomin bo'ldi, 40 nafarga yaqin musulmon yaralandi.

Mazkur voqea ksenofobiya va islamofobiyaning avj olishi natijasi edi. Terrorchilik hujumini Yangi Zelandiyada yashovchi asli avstraliyalik Brenton Tarrant amalga oshirgan.



## Ijodiy faoliyat

## Qadriyatlar mashqi

TINCHLIK, SOG'LIQ, MEHR-OQIBAT, HALOLLIK so'zlarini 4 ta alohida varaqqa yozing.

Ularni ahamiyatlilik darajasiga qarab tartiblang. Bu ne'mat va fazilatlarning bittasidan voz kechishingiz zarur bo'lsa, qaysi biridan voz kechardingiz?

Birma-bir biror ne'mat va fazilatlardan nima uchun voz kechayotganingiz sababini izohlab beravering.

Har safar ularning biridan voz kechayotganingizda nimani his qildingiz?

Agar ularni birma-bir qaytarish imkoniyati tug'lsa, qaysisini birinchi qaytarar edingiz? Nima uchun? Bu bosqichda nimalarni his qildingiz?

Sinfdoshlaringiz bilan natijalarni muhokama qiling.



### Ijodiy faoliyat

1. Tinchlikning qadriga yetuvchi va bu ne'matni qadrlamaydiganlar bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
2. Muqaddas kitoblarda tinchlikka chaqiruvchi yana qanday g'oyalarni bilasiz? Barcha dinlarda tinchlik g'oyasi bosh g'oya sifatida e'tirof etiladi. Sizingcha buning asosi nimada?
3. Inson tinchlik yo'lidan borishi uchun zarur bo'lgan fazilatlarni sanang.
4. Matnni o'qing, din va diniy e'tiqod butunlay rad etilsa, jamiyat uchun uning oqibati qanday bo'lishi mumkinligi haqida xulosa qiling.

Dunyoviylik bu – dahriylik degani emas. Din va diniy e'tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g'ayriinsoniy ko'rinishga ega ekanini biz kechagi tariximiz misolida yaxshi bilamiz. Bunday mafkuraning xatarli tomoni shundaki, u necha asrlar davomida din negizida shakllangan, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ketgan qadriyatlar – bu yozma yoki og'zaki, moddiy yoki ma'naviy meros bo'ladimi, axloq yoki an'analar bo'ladimi, milliy dunyoqarash yoki turmush tarzi bo'ladimi – bularning barchasini rad etadi.

*Islom Karimov, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobidan*

### Darsdan ijobiy saboq chiqarib



1. Tinchlikka raxna soluvchi qanday tahdidlarni bilasiz? Tinchlikka raxna solish kimlarga va nima uchun kerak deb o'ylaysiz?
2. Tarbiyani tinchlik, xotirjamlik, totuvlik va birdamliksiz amalga oshirish mumkinmi?
3. "Tinchlik va xavfsizlik – jamiyat farovonligining garovi" mavzusida taqdimot tayyorlang.



### Ma'lumot uchun

Olimlarning aytishicha, odamzod yomon gap gapirsa, uyat so'z aytsa, birovni so'ksa, haqorat qilsa, bu narsa o'sha zahoti o'sha odamning hujayralariga ta'sir qilar ekan. Masaru Emoto degan yaponiyalik olim bir idishga suv quyib, tajriba o'tkazdi. Suvning oldida yaxshi gaplar aytsangiz, suvning molekulalari chiroyli kristallarga aylanadi. Yomon so'zlar, so'kishlar, haqoratlar aytilsa, suvdagi kristallar buzilib ketadi.

Doimo so'kish, haqorat bilan, kufr so'zlar bilan yashab o'tgan odamga qarab uning hayotida hech bir yaxshilik bo'lmaganini ko'rasiz, chunki u o'zini o'zi barbod qilyapti, yo'q qilyapti, qonini, genini buzyapti. Ammo u nafaqat o'zini buzadi, balki bu buzilish uning yetti avlodigacha meros bo'lib qoladi.

*R. Sayfuddinov, "Islom – barqarorlik va tinchlik dinidir"*

## III BOB. GO‘ZAL FAZILATLAR

### 16-17-MAVZU: TUYG‘ULARNING XILMAXILLIGI



#### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Rasmlardagi multfilm qahramonlari esingizdami? Bu multfilmning qaysi qismi yodingizda qolgan?

2. Har bir rasmda aks etgan inson hayotidagi o‘zgarishlarga ta’rif berib ko‘ring.

3. 3-rasmdagi holatga o‘xshash vaziyatlar sizning ham hayotingizda bo‘lganmi? Keyinchalik qanday yo‘l tutgansiz?

4. QR-kodda berilgan 6-rasmga taalluqli Maugli va Bagira o‘rtasidagi dialogni diqqat bilan tinglang. “Sen ulg‘ayibsan...” degan xulosa uchun Mauglidagi qanday ruhiy holatlar sabab bo‘ldi?

5. Nega insonning o‘spirinlik davriga eng nozik va muhim davr sifatida qaraladi?



#### Mulohaza uchun

Siz hozirda katta hayot bo‘lag‘asida turibsiz. Ba‘zan kelajak uchun ulkan rejalar tuzasiz. Ularni amalga oshirish yo‘llarini qidira boshlaysiz. Ba‘zida shirin xayollarga berilasiz, ba‘zida esa qo‘rqib ketasiz.

Oynaga tez-tez qaraydigan bo‘lib qoldingiz. Kiyimlaringiz ham yarashmayotganga o‘xshab qolgandek go‘yo.

Ba‘zida hamma sizning fikringizga qarshidek. Buning sababi nimada? ...

Albatta, sizning oldingizda katta hayot ummoni turibdi. Bu ummonda suzish uchun ayrim jihatlarga moslashish, qat‘iylik, shijoat, andisha, oriyat, ijodkorlik kabi bir qancha xislatlar zarur bo‘ladi.



Ijodiy faoliyat

*Jamoa bilan bajaring.*

Barcha jamoalar uchun: siz o'qigan kitoblarning qaysi birida yuqoridagi tuyg'ular haqida so'z yuritiladi? A.S. Pushkinning "Kapitan qizi" qissasini o'qiganmisiz? Asardagi Masha Mironovaga nisbatan Pyotr Grinyov va Shvabrinning munosabatlarini baholang.

1-jamoa uchun: Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dostonini o'qing. "Qiyomatli do'st" iborasini tushuntiring.

2-jamoa uchun: Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dostonini o'qing. "Sodiq do'st" iborasini tushuntiring.

3-jamoa uchun: o'zbek shoirasi Zulfiya timsolida vafo, sadoqat, muhabbat kabi tuyg'ularni ta'riflang.

nozik tuyg'ular

ishonch

muhabbat

do'stlik

vafo


sadoqat

...

...

...

...



Ma'naviyat xazinasidan



Ey o'g'lim! Ahmoqni do'st tutishdan ehtiyot bo'lgin, chunki u foyda beraman deb, zarar beradi. Baxil bilan do'stlashishdan saqlangin, chunki u sen eng muhtoj bo'lib turgan narsani sendan uzoq qiladi. Yolg'onchi bilan do'stlashishdan ham ehtiyot bo'lginki, u sarobga o'xshaydi, uzoqni senga yaqin, yaqinni esa uzoq qilib ko'rsatadi.

*Ali ibn Abu Tolib*

Mulohaza uchun



Mashhur futbolchi Krishtianu Ronaldu onasi bilan yashaydi. Intervyulardan birida undan so‘rashdi: “Nega onangiz hanuzgacha siz bilan yashaydi? Nega unga alohida uy olib bermaysiz?”

Ronaldu shunday javob berdi: “Onam o‘z hayotidan kechib, meni katta qildi. U o‘zi yemay, menga yediradi. Menga butsa olib berish uchun haftasiga 7 kun farrosh bo‘lib ishladi. Mening barcha muvaffaqiyatlarim unga bag‘ishlangan. Onam tirik ekan, doimo yonimda bo‘ladi”.



Ijodiy faoliyat



1. Ona muhabbatiga yana qanday misollar keltira olasiz?

2. E‘tibor berganmisiz, onajoningiz siz yoki aka-ukangiz uchun tongda nonushta tayyorlagan, kiyimlaringizni yuvgan, dazmol qilgan vaqtlarida qanday entikib-entikib qo‘yadilar. Bu entikish nimaning alomati deb o‘ylaysiz?

Onajoningizga minnatdorchilik bildirganingizda yuzlariga e‘tibor berganmisiz? Bu xursandchilikni ifodalay olasizmi?

3. Krishtianu Ronalduning onasi yuzidagi tabassumga qarang. Siz ham onangizga ana shunday quvonch ulasha olasizmi? Buning uchun sizdan nima talab qilinadi?

4. Quyidagi rasmlardagi nozik tuyg‘ularni so‘z bilan ifodalashga harakat qiling.



“Boysun madonnasi”,  
1968-yil.  
V. Burmakin





#### Ijodiy faoliyat

Anvar kun bo'yi Ra'noga ichidagi tuyg'ularini bildirib qo'ymoqchi bo'lib, rosa imkoniyat izladi. Derazadan Ra'no sochlarini silkitgandek tebranib turgan majnuntol novdalariga qarab o'yga toldi. U Ra'no haqida o'ylagan sari yuragi hapriqib, xayollar og'ushiga g'arq bo'ldi. Uning fikrlarini sinf rahbarining: "Mahalla faollari bilan "Mahallamizni birgalikda obod etaylik!" mavzusida uchrashuv bo'ladi, hech kim ketib qolmasin", – degan e'loni buzib yubordi.

Tadbirdan so'ng Anvar "Ra'noga bo'lgan munosabatimni albatta onamga aytishim kerak, u kishi menga eng to'g'ri maslahatni beradilar. Axir, men nafaqat o'zimning, balki Ra'noning ham sha'ni, obro'sini asrashim kerak-ku, qolganini vaqt ko'rsatadi", degan qarorga keldi.

1. Anvarning qaysi qarorlarini ma'qullaysiz? Sababini ko'rsating.
2. Anvarning o'rnida siz qanday yo'l tutardingiz? Nima uchun?

Go'zal maktabga kirib kelar ekan, ko'zlari bilan kimnidir qidirardi. Qidirганиni topdi, lekin buvisining: "Qiz bola sirli sandiq bo'ladi, ichidagi his-tuyg'ularini birovga hech qachon bildirmaydi, sir boy bermaydi", degan o'gitlari yodiga tushdimi, darhol o'zini qo'lga oldi.

- a) "Qiz bola sirli sandiq bo'ladi" degan fikrni qanday tushundingiz? Go'zal kimdan to'g'ri maslahat olishi mumkin?
- b) Go'zalga qanday maslahat bergan bo'lardingiz?

#### Mulohaza uchun



Qadim zamonda bir podshoh o'g'lini uylantirmoqchi bo'libdi. Shunda o'g'li:  
– Ey ota, men uy-joy tutishni biladigan saranjom-sarishta, ozoda qiz topilsagina uylanaman, – debdi.

Podshohga o'g'lining bu gapi ma'qul kelibdi. O'z mulozimlari bilan maslahatlashib, bir sinov o'tkazmoqchi bo'libdi. Unga ko'ra, har bir bo'yi yetgan qiz uyini supurib, supurindini qopga solib olib kelishi aytilibdi. Bu xabarni eshitgan qizlar birin-ketin uylarini supurib-sidirib, chiqqan supurindilarni olib kelib topshiribdilar. Oxirida keltirilgan supurin-

dilar sarhisob qilinibdi. Shunda qarashsa, bir xonadon qizi bir chimdim ham chiqmaydigan supurindi topshirgan ekan. Uni chaqirib, so‘roqqa tutishibdi:

– Hoy qiz, senga podshohning sovrini kerak emasmi? Nega bunchalik oz supurindi topshirding?

– Uyimizni qayta-qayta supursam ham bundan boshqa supurindi chiqmasa, ilojim qancha? – deb javob beribdi qiz.

Bu jarayonni kuzatib turgan podshoh qizning soddaligi, saranjom-sarishtaligi, rostgo‘yligi va halolligiga tasanno aytibdi va uni o‘ziga kelin qilishga qaror qilibdi.

### Ijodiy faoliyat



1. Mazkur rivoyatga qanday sarlavha qo‘yadingiz? Nima uchun?
2. Ushbu rivoyatda insonlarda uchraydigan qanday illatlar aks etgan?
3. Podshohga qizning qaysi xislatlari yoqdi? Fikringizni mavzuga bog‘lab asoslang.
4. Saranjom-sarishta, sabrli bo‘lishning hikmati nimada?



### Ma‘naviyat xazinasidan



Abdulla Qahhorga Kibriyoxonimdek didli, oqila umr yo‘ldoshini nasib qildi. Zamondoshlari xotiralari ko‘p bor yozilganidek, Abdulla Qahhor uch-to‘rt oy o‘tmasdan Kibriyoxonimga butkul suyanib qoldi – Kibriyoxonimsiz bir lahza ham o‘zini qo‘yarga joy topolmas, qayerga borsa Kibriyoxonimni, o‘zining iborasi bilan aytganda, “nosqovoqday beliga tugib olar edi”.

*Xurshid Davron*








Ochig‘i, aziz insonimdan ayrilgach, bu yog‘iga uzoq yashay olmasam kerak, deb o‘ylagandim. Ammo Abdulla Qahhordek so‘z san‘atkori bilan o‘tkazgan chorak asrlik umrimning nurli xotiralari meni shu yoshgacha olib keldi. Qalbim to‘rida saqlab kelayotgan zarif xotiralarni odamlarga aytib berish, vaqti kelib, qog‘ozga tushirish uchun ham yashashim kerak, deb o‘yladim...

*Kibriyo Qahhorova*



Darsdan ijobiy saboq chiqarib



1. “Ko’ngil bu – ko’zgu” mavzusida esse yozing. Unda do’stlik, muhabbat, ishonch, andisha, sadoqat, vafo haqida hikoya qiling.
2. QR-kodda berilgan Kibriyo Qahhorovanning “Chorak asr hamnafas” kitobini o’qib chiqing. Abdulla Qahhor va Kibriyo Qahhorova o’rtasidagi samimiy tuyg’ularni qanday nomlagan bo’lardingiz?
3. 70-betda berilgan har bir rasmni nomlab, ular asosida hikoya tuzing.
4. 2-, 3- va 6-rasmlarda qanday umumiylik bor?
5. 5-, 6- va 7-rasmlarga diqqat qiling. Ular o’rtasida qanday bog’liqlik bor?
6. 7- va 9-rasm asosida fikr bildiring.
7. Bu rasmlar sizni nimadan ogohlantirmoqda?
8. 11-rasmdagi bolalarning ishiga munosabat bildiring. Ular nima uchun rasmni og’izlarida chizishmoqda?
9. 8-, 10- va 12-rasmda qanday tuyg’ular yashiringan?
10. Rasmlarni berilgan fikrlar bilan bog’lang. 3-topshiriq ijrosi bilan solishtiring. Ona: – Qayda bo’lsangiz ham, salomat bo’ling. Oila muqaddas. Sen uchun dunyoda hech ikkilanmay o’z jonidan kecha oladigan inson. Har qanday to’siqni yenga olamiz. Yurak va aqlni me’yorda ushla. O’z ustingda ishlashdan to’xtama. Shoh ham, piyoda ham bir qutiga tushdi. Qalbingni aqlingga bo’ysundir. Til jarohati tig’ jarohatidan og’ir. Bag’rikenglik. Kamchiliklaringni to’ldirib bor. Qadriyatlaridan voz kechish.

### 100 kun ichida shaxsiyatni o’stirish:



Mutolaasini xohlagan, lekin jazm qilolmagan biror-bir qiyin kitobingizni tanlab, to’liq o’qib chiqing.



Har kuni yangi narsa o’rganing: gullar nomi, uzoq mamlakatlar poytaxtlari va hokazo. Kechqurun esa kun bo’yi olgan bilimlaringizni mustahkamlashingiz, lug’at olib, yangi so’zlar yodlashingiz mumkin.



Tongda keladigan fikrlarni maxsus “Tonggi sahifalar” daftari-ga yozib boring. Bu uyg’onganingizdan keyin qiladigan dastlabki ishlaringizdan biri bo’lsin.



Har kuni bir varaq qog’ozga hayotingizda sizni mamnun qiladigan 5–10 ta narsani qayd etib qo’ying. Shukronalik izhorlarini yozing.



Asosiysi, bu mashg’ulotlarni ishtiyoq bilan bajaring. Shunda ular 100 kun ichida natija beradi.

## 18-MAVZU: NAFOSAT VA MA'NAVIYAT



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Nafosatning inson hayotidagi o'rni nimada?
2. Qanday insonlarga nisbatan *nafosatli* so'zini ishlatamiz?
3. Go'zallikni siz qanday tushunasiz?
4. Tadbirkorlar, milliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan buyumlarga nisbatan "Nafislik bilan ishlanibdi" degan iborani eshitganmisiz?
5. Nafosatning ma'naviyat bilan qanday aloqadorligi bor?

### Mulohaza uchun



Insonlarning muomalasi, nutqi, aqli, kiyinishi, ularning qanchalik nazokatli, nozik didli ekanidan darak beradi. Shu bois insonning aqli, tashqi ko'rinishi, nutqi, umuman, ezgu fazilatlarining uyg'unlashuvi nafosat deb ataladi.

Insonga xos bo'lgan nafosat madaniyati uning jamiyatdagi faolligi va o'rni, boshqalar bilan munosabati, moddiy va madaniy merosini o'zlashtirishiga ham bog'liq.

Insonning go'zal bo'lishida nafaqat yoqimli tashqi ko'rinishga egaligi, balki ichki dunyosi, ma'naviy-axloqiy fazilatlar ham muhim o'rin tutadi.



### Ijodiy faoliyat

Insonda ma'naviy-axloqiy fazilatlarining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? Javobingizni misollar bilan asoslang.

### Ma'lumot uchun




Nafosat (arabcha, ahamiyat, qimmatbaho narsa, boylik) – go'zallik turi.

Nafosat – narsa va hodisalarning tashqi ko'rinishi (shakli, rangi)dagi alohida mukammallikni, mutanosiblikni ifodalaydi. Masalan, sportchi qiz yoki yigitning qaddi-qomati, turfa gullarning rangbarangligi.

Kishilarning muomalasi, nutqi, aqli, kiyinishiga nisbatan ishlatiladigan nafosat tushunchasi ularning nazokatli, nozik didli ekanini bildiradi. Haqiqiy nafosatni soxta, yasama nafislikdan ajrata bilish lozim. O'zida yuksak insoniy fazilatlar, xalqchil g'oya, ijtimoiy mazmun va tabiiy go'zalliklarni jamlagan nafosatgina haqiqiy hisoblanadi.



Ijodiy faoliyat



1. Eslab ko'ring. Ingliz adibi Daniel Defoning dunyoga mashhur "Robinson Kruzo" asari bosh qahramoni Robinson yakka o'zi kimsasiz orolda necha yil yashaydi?
2. Robinsonning yolg'iz hayot kechirishi uning insoniy sifatlariga qanchalik ta'sir ko'rsatadi?
3. Oradan yillar o'tgach, orolga kelib to'xtagan kemani ko'rganida ko'nglida qanday his-tuyg'ular kechadi?
4. "Robinson Kruzo" asari bosh qahramonining nafosat bilan qanday bog'liqligi bor?
5. Bergan javoblaringizni mazkur fikr bilan bog'lab ko'ring. Muloqot madaniyati har bir shaxsning o'zaro munosabatini belgilovchi omildir. Insonning o'zaro muloqotda namoyon bo'ladigan so'zlashuv madaniyati shaxs xulqi go'zalligini aks ettiradigan ma'naviy-axloqiy xususiyat hisoblanadi.

Mulohaza uchun



O'zaro muloqotda xushfe'llik, xushmuomalalik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik kabi axloqiy me'yorlar o'z ifodasini topadi.

Yuksak madaniyatli kishilar muomalasida hayo, andisha, muloyimlik yaqqol ko'zga tashlanadi.



Ijodiy faoliyat

1. Muloqot madaniyatining muhim sifatlarini sanay olasizmi?
2. Muhim deb topgan sifatlaringizni jadvalga tushiring. Ularga ta'rif bering.
3. Avval partadoshingiz bilan, keyin kichik guruhlarda, so'ng katta guruhlarda fikrlaringizni muhokama qiling, yaxlit ta'rifni shakllantiring.


Nafosat	

4. Quyidagi atamalarni nafosat bilan bog'lab tushuntiring.  
So'z san'ati, orastalik, tashqi ko'rinish, kiyinish madaniyati, so'z ustasi, mohir tikuvchi, mohir hunarmand, mohir ...



#### Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Berilgan rasmlarni nafasot tushunchasi bilan bog'lang.
2. "Nafosat va san'at"ning o'zaro bog'liq tomonlari haqida fikr yuriting.
3. "Ommaviy madaniyat"ning nafasotga qanday ta'siri bor?
4. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidan olingan parchani o'qing. Qalamga berilgan ta'rifni nafasot tushunchasi bilan bog'lang. Ushbu asarni nafasot bilan yozilgan deyish mumkinmi?



#### Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidan parcha

Bu qanday bichimi kelishgan, yoqimli narsaki, ovozi ham yaxshi, diqqat bilan quloq solsang arziydi. Uchi ma'noli gaplarga naqsh-u nigor beradi, mistarining qashlog'ich iplari uning tirnoqlaridir. Uning tuzilishi qushga o'xshab ko'rinadi; tumshug'idan har tomonga ma'noli so'zlarni sochadi. U o'zi nur ustidan vatan qilgan bo'lsa-da, yemishi – qorong'ilik; oq qog'ozning ustiga mushk sochadi. Uning harakatlari tez va bir me'yorda, lekin uchish uchun unga qanot yetishmaydi, xolos.

Yo'q, uni qush dema, u xushbo'y bir ilon, xushbo'y dema, fusungar ilon. Uning (sahifadan sahifaga) go'zal uchib o'tishlari, qo'l, oyog'ining yashirinligi bunga dalildir. U tilini chiqarganda har gal bitta sehr ko'rsatadi. Bunaqa sehrni qaysi bir ilon ko'rsatgan?!

U ilon ham emas, tilla xazina ustidagi ajdardir. Uning qornida yuz xil ajoyib boylik yashiringan. Og'zidan tutun chiqaradi. Tutuni orasidan chiqqan har bir munchoq bir gavharga o'xshaydi.


U ajdar ham emas, chunki u egri; uni yaxshisi Muso (payg'ambar)ning (sehrli) hassasi deb atay qol. Bo'lmasa, qanday qilib u butun jahon sehrini, hatto uning ma'nosini va ifodalash sehrini ichiga yuta oldi? Tanasining og'irligi ham yo'q darajada; u bu zahmatlarni chekkanda qiynalmaydi! Uni hassa ham dema, balki qalam deb atay qol; uning uchini xatga naqsh bituvchi de.

U dunyoda hamma narsadan oldin yaratilgan...


## TA'SIRCHAN MA'RUZA



Ma'ruzalar muvaffaqiyatli chiqishi uchun nima qilish kerak?



Notiq tinglovchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir etish orqali ularning ongiga ma'ruzadagi fikrlarni singdirishi zarur.



Har bir chiqish uchun ma'ruza matnini shaxsan notiqning o'zi tayyorlashi, asosiy tezislarni yod olishi shart.



Notiqning eng yaxshi xislati uning chiroyli muomalasi va oddiyliigi.



Yaxshi notiqning ajralmas sifatlari – o'ziga ishonchi, o'zini erkin tutishi va do'stona ohangda so'zlashi.






Bu rasmni qanday nomlagan bo'lardingiz?




Ko'pchilik oldida qilinadigan ma'ruzaga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:



- ✓ bosh g'oyaning ochiq-ravshan bo'lishi va barcha uchun tushunarli tilda, sodda va ravon tarzda bayon qilish;
- ✓ qat'iyat bilan boshlab, ishonchli fikrlar yordamida tugatish;
- ✓ jummalarni lo'nda gapirish, ma'ruzani monolog shaklida emas, samimiy, ochiq so'zlashuv hamda muloqot uslubida amalga oshirish;
- ✓ chuqur hissiyot (emotsiya)larga berilmasdan, aksincha, emotsiyalarni yuzaga chiqaruvchi dalillarni keltirish;
- ✓ ko'tarilayotgan mavzu tinglovchiga nihoyatda kerak ekanini, notiq esa bu ma'lumotlarni yetkazish uchun astoydil harakat qilayotganini ko'rsatish;
- ✓ tinglovchilar bilan vizual aloqa o'rnatish.





Hovliqish yoki aksincha, ortiqcha viqor bilan yurish, yo'l-yo'lakay galstukni yoki sochini to'g'rilash, tugmalarini qadash mumkin emas.



Suyanchiq va tirsak qo'ygichga suyanmaslik, qo'l va oyoqni chalishtirmaslik, shuningdek, mikrofon ustiga engashmaslik zarur.



Notiqning o'z-o'zini oqlashi yoki kechirim so'rashi tinglovchilarga ruhiy ustunlik berib, "avtoritet" maqomini yo'qotadi, oqibatda ma'ruza kutilayotgan samarani bermaydi.



Qo'lni ko'krak ustiga qo'yib gapirayotganda oyoqlarni qovushtirib turmaslik, shuningdek, qo'lni tirsaklar bilan qovushtirmaslik kerak.

Ko'rsatkich barmoqni yuqoriga qilib gapirmaslik.

Dam-badam qo'l bilan yuz qismiga tegib turmaslik va h.k. (mazkur harakatni odamlar beixtiyor tarzda odatda yolg'on gapirayotganda ishlatadilar)



Yuqoridagi talablar asosida ma'ruza tayyorlang va sinfdoshlaringiz o'rtasida notiqlik mahoratingizni sinab ko'ring.

## 19-20-MAVZU: SURAT VA SIYRAT



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Surat nima? Siyrat-chi? Imij deganda nimani tushunasiz?
2. Tashkilotning imiji qanday yaratiladi?
3. Shaxsiy imij, o'quvchi imiji deganda nima nazarda tutiladi? Qanday qiyofalar ko'z oldingizga keladi?
4. "Dress-kod" atamasini eshitganmisiz?
5. Jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga qo'yish asnosida jamoa imiji qanday yaratiladi?
6. Mashhur brendlar mahsulotlarini ko'z oldingizga keltiring. Ularning mahsulot belgilari nima uchun o'zgarmaydi?

### Mulohaza uchun



**Imij nima  
uchun  
kerak?**

Yapon, arab, hind, turkman, qoraqalpoq, qozoq deganda qanday qiyofalar ko'z oldingizga keladi?

Biror millat esga olinsa, ularning o'ziga xos libosi, urf-odati ko'z oldingizga kelishi aniq. O'zbek deganda-chi?

Imij – shaxs, hodisa, narsani ommalashtirish, reklama qilish maqsadida odamlarga hissiy-ruhiy ta'sir ko'rsatishni ko'zlab shakllantiriladigan qiyofa. Targ'ib qilish vositalaridan biri.



Inglizcha "image" so'zi "ko'rinish", "qiyofa", "siymo", "timsol" ma'nolarini anglatadi.



### Ma'naviyat xazinasidan



Tashqi qiyofa deganda faqat yuz ko'rinishi, soch rangi va shu kabilarnigina emas, balki kishining yurish, eshitish, gapirish, kulish, yig'lash kabi xislatlarini ham tushunaman, chunki kishining ichki olami go'zal bo'lsa, bu uning tashqi qiyofasida ham o'z aksini topadi.

*F. Shalyapin*

Mulohaza uchun



Jozibali imijga ega bo'lmay, ya'ni odamlarning qalbidan joy olmay turib, katta natijalarga erishish mumkin emas.

Kishilar oldidagi (mahsulotlar va xizmatlarni, siyosiy partiyalar va ijtimoiy tashkilotlarni, yetakchilar va rahbarlarni) tanlash muammosi-ning keskinlashuvi hamda barcha bozorlarda raqobat o'sishi natijasida imijga bo'lgan e'tibor ortmoqda.

Imij o'z egasi haqida axborot beradi, tez o'zgaradi, kishilar ongiga, hissiyotlariga, faoliyatiga hamda xatti-harakatlariga ta'sir o'tkazadi, o'zining maqsadli auditoriyasi qanchalik ko'p qirrali bo'lsa, imij ham shu qadar ko'p qirrali bo'ladi.



Ijodiy faoliyat



1



2



3



4



5



6

1. Berilgan rasmlar asosida ularning egalari imijiga ta'rif bering.
2. 5- va 6-rasmda berilgan bosh kiyim egalari uchun imij kerakmi? Yana qanday kasb egalari imij kerak deb o'ylaysiz?
3. "Mening imijim" mavzusida 10 ta ma'lumot yozing.



Mulohaza uchun



Har qanday jamoa o'z imijiga ega bo'lishi zarur. Jamoa imijini yaratish vazifasi jamoaning har bir a'zosi zimmasiga yuklatiladi.

Jamoa imijini yaratish uchun rahbarlar o'z xodimlari bilan tez-tez suhbatlar uyushtirishi, o'quv-seminarlar tashkil qilishi kerak. O'quv-seminarlarning mavzulari esa turlicha bo'lishi mumkin: tashrif buyuruvchilarni kutib olish, ular bilan muloqotga kirishish, o'z xodimlariga nisbatan munosabat, tashqi qiyofaga e'tibor va hokazo...

Jamoa imiji nima?



Ijodiy faoliyat

1. O'z imijingizni yaratishda asosan nimalarga e'tibor qaratasiz?
2. Tashkilotning imiji nimalardan iborat bo'lishi kerak?
3. Siz o'qiyotgan ta'lim muassasasining imiji qanday? Uni kim shakllantiradi?
4. Berilgan rasmlarda tashkilotlarning imijiga ta'sir qiluvchi qaysi jihatlar aks etgan? Imijning shakllanishi uchun bu atributlardan tashqari yana nimalar kerak? Fikringizni asoslang.



Ma'lumot uchun

Imij insonlar uchungina emas, balki tashkilotlar uchun ham zarurdir. Tashkilot, firma jahon bozori-dan o'rin olishi, uni uzoq vaqt saqlab turishi uchun ham o'z imij(brend)iga ega bo'lishi zarur.

Siz ham kelajakda biror kasbni egallaysiz. Ish joyingiz xodimlar, xususan, siz shakllantirgan imijga ega bo'ladi.



Milka

Barbie

O<sub>2</sub>

Y!



## Ijodiy faoliyat

1. Biror tashkilotga asos solsangiz, uning imijini qanday shakllantirasiz?
2. “Insonning imiji uning dunyoqarashi, ma’naviyatining ko’zgidir” mavzusida taqdimot tayyorlang.

## Ma’naviyat xazinasidan



Asling kabi ko’rin yoki ko’ringaning kabi bo’l.

*Jaloliddin Rumi*



## Ijodiy faoliyat

1. Odamlar siz haqingizda qanday tasavvurda bo’lishlarini xohlaysiz?
2. Odamlar tasavvuridagi qiyofangizni ko’zguda ko’rganmisiz?
3. Jamoada hurmat qozonish uchun nima qilish kerak? Bunda siz Jaloliddin Rumiyning ma’naviyat xazinasida berilgan fikriga qanchalik amal qilasiz? 10 ta ma’lumot keltiring.

4. Quyidagi matnni o’qing. Navoiy imijini aniqlang.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da yozadi: “Alisherbek naziri yo’q kishi erdi. Turkiy til bila to she’r aytibturlar, hech kim oncha ko’p va xo’b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi “Xamsa” javobida, yana biri “Mantiq ut-tayr” vaznida “Lison ut-tayr” otliq. To’rt g’azaliyot devoni tartib qilibtur: “G’aroyib us-sig’ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoyi ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar” otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor... Yana “Mezon ul-avzon” otliq aruz bitibtur, bisyor madxuldir. Yigirma to’rt ruboiy vaznida... Forsiy devon ham tartib qilibtur. Forsiy nazmda “Foniy” taxallus qilibtur, ba’zi abyoti yomon emastur... Yana musiqada yaxshi nimalar bog’labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur.



Ahli fazl va ahli hunarg’a Alisherbekcha murabbiy va munavqiy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo’lmish bo’lg’ay. Ustoz Qulmuhammad, Shayxi Noiy va Husayn Udiykinning, sozda saromad edilar. Bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa’y va ehtimoli bila mundoq mashhur va ma’ruf bo’ldilar. Muncha binoyi har kim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo’lmish bo’lg’ay”.



Ijodiy faoliyat

Maqolni o'qing. Uning mazmunini imijning shaxslararo moslashuv jihati bilan bog'lab tushuntirib ko'ring.

Kiyimingga qarab kutib oladilar, muomalangga qarab, kuzatadilar.




Mulohaza uchun

“Dress-kod” atamasi inglizchadan olingan bo'lib, “Libos kodeksi” degan ma'noni bildiradi.

**Dress-kod nima?**

Tashqi ko'rinishga nimalar kiradi? Sizningcha, tashqi ko'rinish qanday bo'lishi kerak? Nimalarga e'tibor berish kerak?

**Kiyimlar qanday tanlanadi?**



**Poyabzal** atrof-dagilarning ko'ziga tashlanib turmasligi va egasiga noqulaylik tug'dirmasligi kerak. Qulaylik va ixchamlik poyabzal tanlashdagi asosiy sifatlardir.



**Paypoqlar** rangi poyabzal rangiga mos tushishi lozim. Paypoqlarda rangli rasmlarning bo'lishi maqsadga muvofiq emas.



**Rasmiy vaziyatda** pidjak tugmalari qadalgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Nonushta, tushlik, kechki ovqat vaqtida stolga yoki stol yonidagi kresloga o'tirganda pidjak tugmalari yechib qo'yiladi.



**Pidjak** yoki jaketlarning tashqi cho'ntaklariga ruchka, qalam, ko'zoynak, taroq va boshqa buyumlarni ko'rinadigan qilib solib yurish tavsiya etilmaydi.

**Shim** old tomonidan poyabzalning ustiga salgina taxlanib turishi, orqa tomondan poshnaning boshiga yoki o'rtasiga yetishiga e'tibor beriladi. Shim chiziq chiqarib yaxshi dazmolangan bo'lishi kerak.


**Kamar** charmdan, to'q rangli va oddiy to'qaga ega bo'lishi jiddiylik belgisi hisoblanadi.



**Ko'ylak** bel atrofida taxlanib qolmasligi, shishib turmasligi va kamar ostidan chiqib ketmasligi kerak. Oq va bir tusli ko'ylaklar yaxshi ta'b, obro', salohiyatdan darak beradi. Ko'ylak kostyumdagi eng to'q rangdan yorqinroq bo'lishi lozim.

**Yoqa** – kiyimdagi eng muhim joy. U doim o'lchamga mos bo'lishi shart. Yoqaning balandligi yoshga bog'liq. U g'ijim bo'lmasligi va bo'yinbog' tuguni bilan yagona yaxlitlikni tashkil etishi kerak.

**Ko'ylak manjetlari** bilakdan sal pastroq bo'lishi va pidjak yengidan 1 cm chiqib turishi, qo'lga jips yopishishi va ayni vaqtda qo'l soatiga bermalol qarashga imkon berishi zarur.



Galstuk tuguni ko'ylak yoqasiga mos kelishi kerak.

**Galstuk** kostyumga mos bo'lishi, ko'zga yaqqol tashlanmasligi zarur. Qishda qoramtir to'q rangdagi, yozda yorqin tusdagi galstuk taqqan ma'qul. Galstukdagi asosiy rang kostyumdagi ranglardan biriga mos bo'lgani afzal.



### Ijodiy faoliyat

1. Galstuk bog'lashni mashq qilib ko'ring.
2. Galstukni yana qanday usullarda bog'lash mumkin?



## Ayollar uchun ish kiyimi

Ma'lumot uchun



Yubka uzun ham emas, kalta ham emas, eng maqbul uzunlikda – tizzadan pastda bo'lishi zarur. Hamyon sodda va ozoda bo'lishi kerak. Eng yaxshi taklif – to'q jigarrang charmdan tayyorlangani. Yaxshi yopilsin desangiz, uni to'ldirib yubormang.

**Tufli** kostyum rangiga mos kelishi, oldi yopiq bo'lishi lozim. Soch turmagi murakkab bo'lmasligi, ammo yaxshi o'ylangan va soch rangi tabiiy bo'lishi zarur. Pardoz-andoz kamtarona, tirnoqlar rangsiz yoki nafis ranglarda bo'lishi kerak. Taqinchoqlar yirik va yaltiroq bo'lmasligi hamda 3 tadan (zirak, uzuk va zanjir) ortmasligi lozim.

**Portfelda** tartib bo'lishi zarur. Bo'yinga tashlanadigan ro'mol yoki sharf maqbul hisoblanadi. Ayollar kiyim tanlashda uning vaqt va muhit bilan muvofiq bo'lishiga e'tibor qaratishlari kerak.

Ayollarning latofatli ko'rinishida yana bir kichik sir yashiringan. Bu ulardan taralib turadigan ifodir. Atir hidi ichki va tashqi go'zallikni uyg'unlashtirib turadi.



### Oltin qoida!

Eng asosiysi, kiyim  
sizning qomatingizga  
yarashib turishi,  
o'zingizga qulay, ozoda  
va tartibli bo'lishi kerak.



Mutaxassislarning fikricha, ayollar uch turdagi atirdan foydalanishlari lozim. Bular: ishxona, do'stlar davrasi, yaqin insoni uchun.





### Ma'naviyat xazinasidan

Go'zal sifat va husni xulq bezamagan kishini hech qanday kiyim ko'rkam qila olmas.


*Mahmud Zamaxshariy*

### Ma'lumot uchun



Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan tezkor zamonda yashayapmiz. Har tomondan axborot xuruji, turli chalg'itishlar, nomaqbul va xatarli ma'lumotlar bilan yoshlarimiz ong-u tafakkurini egallashga intilishlar mavjud... Ana shunday tahdidlardan biri "ommaviy madaniyat"dir. "Ommaviy madaniyat"ning maqsadi, avvalo, moddiy boylik orttirish, odamlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, bir-birini va shu bilan birga o'zini o'zi o'ldirishigacha olib borishdan iborat.

"Gotlar" harakatining asosiy g'oyasi esa o'limni romantiklashtirish, iztirob, azob-uqubat, ifloslikdan rohatlanishdan iboratdir. Mazkur submadaniyat vakillari qora rangga asoslangan imijga tayanadilar, gotik musiqaga qiziqadilar, bugungi kun bilan yashaydilar. Gotlar pozitiv his-tuyg'ularidan zavqlanish o'rniga ruhiy azoblanish, umidsizlik va ruhiy alamdan lazzatlanadilar.



Terengizni teshib surat solmang – bu odatlar butparast xalqlarga xos edi.  
Qadimgi Ahd (19:29).

Gotlar qora rangga asoslangan "dress-kod"ga amal qiladilar. Kiyinish uslubining asosiy elementlari liboslarida qora rang ko'p bo'lishi, metallardan ishlangan turli bezaklarni ishlatishdir.

Kiyim-boshning vazifasi insonni sovuqdan, yomg'ir-qordan himoya qilishgina emas, balki u e'tibor tortish vositasi hamdir.

Kiyimdagi tartib hamda ixchamlik ko'pincha ishdagi tashkilotchilikka taqqoslanadi. Palapartish yoki noto'g'ri bog'langan galstuk, oyoq kiyimining kirligi, libosining g'ijimligiga e'tibor bermaydigan kishi haqida "o'ziga nisbatan talabchan emas" yoki "atrofdagilarni hurmat qilmaydi" degan tasavvur hosil bo'ladi.

Darsdan ijobiy saboq chiqarib



Siz ta'lim oladigan maktabda dress-kod o'rnatilganmi? Dress-kod qayerlarda o'rnatilishi kerak deb o'ylaysiz?

Jamoa bo'lib ishleng.

1. Insoniyat tarixida qachondan boshlab kiyimga ehtiyoj bo'lgan? Dunyo xalqlari milliy kiyimlarining shakllanishiga qanday sharoitlar sabab bo'lgan?

2. Siz kompaniya rahbarisiz. Xodimlaringizning kiyimi va tashqi qiyofasiga e'tibor qaratasizmi? Nima uchun? Fikringizni asoslang. Tashqi qiyofadan boshqa yana qanday talablar qo'ygan bo'lardingiz?

3. Bergan javoblaringizni umumlashtirib, dress-kod va uning tamoyillarini ishlab chiqing.


4. Quyidagi suratlarga e'tibor bering. Ulardagi tashkilot xodimlari uchun dress-kod kerakmi? Fikringizni asoslash uchun 5 ta fakt keltiring.



Ma'naviyat xazinasidan

Insonning kiyinishi uning ichki ma'naviy dunyosining sirtida aks etishidir. Qaysi insonda uyat, hayo, or-nomus kabi tushunchalar bo'lsa, o'sha inson o'z obro'sini saqlaydigan, boshqalarning nafratini qo'zg'atmaydigan holatda kiyinadi.

*Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf,  
"Ijtimoiy odoblar" kitobidan*



## 21-22-MAVZU: ETIKET



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Etiket haqida eshitganmisiz? Etiket inson ma'naviyatida qanday o'rin tutadi deb o'ylaysiz? Etiketni o'rganish nima uchun kerak?
2. Odob-axloq qoidalari bilan etiketning qanday bog'liqligi bor?
3. Jamiyatda qabul qilingan tartib-qoidalarni "Etiketning oltin qoidalari" deb atash mumkinmi? Fikringizni asoslang.

### Mulohaza uchun



Etiket ma'lum bir doiralarda o'zini tutish qoidalarini mujassam etgan tushunchadir. Quyi sinflarda siz etiketning ayrim qoidalari, unga rioya qilish tartiblari bilan tanishib o'tdingiz. Katta hayot ostonasida turar ekansiz, jamiyatda o'z o'ringizni topishingiz uchun ham etiket qoidalariga rioya qilishingiz shart.



### Ijodiy faoliyat



### Ikkita guruhga bo'ling.

1. Tashkilot rahbari va xodimlarini tanlang. Tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlik shartnomasini imzolashingiz kerak. Kelishuv jarayonini tashkil qilish bo'yicha dastur tuzing. Dastur asosida belgilangan vazifalarni shartli ravishda amalga oshiring.
2. Guruhlarning o'zaro munosabatlarida qanday etiket qoidalari buzilganini aniqlang.
3. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tavsiyalar bering.
4. Tavsiyalaringizni mavzu bilan qiyoslang.



### Mulohaza uchun

Samarali muloqotning quyidagi asosiy elementlari bor:




- salomlashish;
- tanishuv;
- murojaat;
- subordinatsiya (pog'onama-pog'ona muloqotga kirishish).

Muloqot – munosabatda bo'lishdir. Muloqot – harakat, tuyg'u, fikr-mulohaza, ichki kechinmalarni o'zgaralar bilan o'rtoqlashish demakdir. U shaxs fazilatlarini, ichki "men"ning eng yaxshi qirralarini namoyon qiluvchi ijod shaklidir.



### Ijodiy faoliyat

1. Berilgan rasmlar asosida etiketning qaysi qoidalari buzilganiga sharh bering.
2. Quyidagi rasmlarda qanday odob-axloq qoidalari buzilgan? Fikringizni asoslang.



### Ma'naviyat xazinasidan

Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak:  
diqqat, intizom va harakat.

*Jaloliddin Rumiy*

## Bularni bilishingiz va amal qilishingiz zarur

Davruga kelib qo‘shilgan odam salom berib kiradi. Uni taklif qilgan mezbon ko‘pchilikka tanishtiradi, keyin qolganlarni yoshiga qarab tanishtiradi.



Insonlarni bir-biriga tanishtirilganida ular haqida qisqa ma‘lumot beriladi.

Masalan, “Bu – mening do‘stim Mahfuza, u jarroh bo‘lib ishlaydi”, “Bu – mening sinfdosh dugonam Dildora”. Bu bilan siz davraga yangi qo‘shilgan tanishingiz bilan qanday munosabatda ekaningizni ma‘lum qilasisz.



Tanishtirayotgan odamga xayrixohligingizni bildirish maqsadida qo‘l uzatishingiz zarur. Ayollar qo‘l uzatmasa, erkaklar qo‘l uzatmaydilar.



Avvalo, erkaklar ayollar bilan tanishtiriladi, salomlashiladi. Kichiklar kattalarga salom beradi.

Erkak kishi ayol kishi stulga o‘tirishiga yordam beradi.



Ayol va erkaklar to‘plangan katta davralarda birinchi bo‘lib ayollar so‘rashadi. Erkaklar avval ayollar bilan, keyin o‘zaro salomlashishlari odobdan bo‘ladi.



Ko‘cha-ko‘yda ayol kishi erkak kishining o‘ng tomonida yuradi.

Transport vositalaridan oldin erkak kishi tushishi, chiqayotganda esa, oldin ayol kishi chiqishi kerak.



Boshqa din vakillarining e‘tiqodiga hurmat bilan munosabatda bo‘ling.

Eskalatorga chiqqaningizda o‘ng tomonda turing. Chap tomonni bo‘sh qoldiring. Shoshayotganlarga o‘tib ketishga imkon bering.



Jamoat joyida qattiq kulish, baland ovozda gapirish odobsizlik hisoblanadi.



Ijodiy faoliyat

Jadvalni davom ettiring.

Salomlashish qoidalari	
Qiz bolalar uchun	O'g'il bolalar uchun
O'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, tabassum bilan salom beradi.	
Kichik yoshdagi bolalarga o'rnak tariqasida salom beradi.	
"Assalomu alaykum" so'zlari dona-dona qilib aytiladi.	
Ro'paradan kelayotgan kishiga u yetib kelishiga 3-4 qadam qolganda salom beriladi.	
Yoshi ulug'roq ayol yoki erkak kishiga o'rnidan turib salom beriladi.	
Aka-uka, ona-bola, opa-singillar so'rashganida qo'l uzatib emas, quchoqlashib, so'ng qo'l berib so'rashiladi.	
Rahbar qo'l uzatmagunicha, xodimlar qo'l uzatmaydilar.	
Odatda boshni biroz egib salomlashiladi.	Ko'rishganda qo'lni qattiq qismalik kerak. Qo'lni qattiq qisish yoki anchagacha qo'yib yubormaslik odobsizlik hisoblanadi.
Ayol kishi erkaklar bilan qo'l berib so'rashishi uning ixtiyorida bo'ladi.	Erkaklar ayollarga birinchi bo'lib qo'l uzatmaydi.
	Nuroniylar bilan qo'l berib ko'rishganda ikki qo'lini ham uzatib so'rashiladi.



Mulohaza uchun

**Hikoyani o'qing va quyidagi savollarga javob bering.**

1. Kim birinchi salom berishi kerak deb o'ylaysiz?
2. Mazkur vaziyatga o'z fikringizni bildiring.
3. Siz bu vaziyatda qanday yo'l tutardingiz?

**Tanishingmi?**

Gulnora dugonasi Saida bilan darsdan qaytayotgan edi. Saida avtobus bekatida turgan yoshi chamasi 40 lar atrofidagi ayolga salom berdi. Gulnora dugonasi salom bergani uchun tanishi bo'lsa kerak deb xayolidan o'tkazdi va u ham salom berdi. Saida yo'lda uchragan o'zidan katta har bir yo'lovchiga salom berib borar ekan, Gulnoraning g'ashi kelib:

- Nega buncha salom beraverasan, nima, hamma uchragan odam sening tanishlaringmi? - deb so'radi.
- Yo'q, - dedi Saida.

– Ha, shuning uchun kimdir alik oldi, kimdir senga bu qiz nega menga salom berdi, deb taajjublanib qarab qo'yibdi-da?! E, bor-e, endi sen bilan birga yurmayman, odamni uyaltirib yubording... – dedi Gulnora.

### Ma'naviyat xazinasidan



Taomdan oldin qo'lni yuvish baraka omili bo'lib, u faqirlikni ketkazadi. Taomdan keyin qo'lni yuvish esa malomatni daf etadi.



### Ijodiy faoliyat

Yigitlar va qizlar alohida jamoaga bo'linadi:

#### Oshda

##### *O'g'il bolalar jamosi uchun*

Bobom:

– Kech bo'lib qoldi, ertalab barvaqt turishing kerak. Oshga boramiz, kiyimlaringni tayyorlab qo'y! – dedi.

Ertalab aytilgan vaqtda oshga yetib bordik. Bobom to'yxonaga yetib borgunimizcha doim aytaverganidan menga yod bo'lib ketgan qoidalarni yana bir bor eslatdi. Men diqqat bilan eshitdim.



Dastyorlarning qo'li-qo'luga tegmasdi. Men ham bobomning ijozatlari bilan ularning safiga qo'shildim. Tadbir yakunida biz xizmat qilganlar bir davrada mehmon bo'ldik.

To'yxonadan chiqdik, bobom mezbonlar bilan xayrlashish oldidan meni ba'zi kishilar bilan tanishtirdi. Men bir chekkada odob saqlab turdim.

Mezbonlar menga qo'l uzatar ekanlar: "Tanishganimizdan xursandmiz, biznikiga mehmonga keling", – deb lutf ko'rsatishdi.

"Bobom to'yxonaga yetib borgunimizcha doim aytaverganidan menga yod bo'lib ketgan qoidalarni yana bir bor eslatdi" degan gapda qanday qoidalar haqida so'z borgan deb o'ylaysiz?

#### Mehmonda

##### *Qiz bolalar jamosi uchun*

Tog'amnikiga beshik to'yiga bordik. Albatta, onam aytganlaridek, siporoq kiyindim. Borishimiz bilan mezbonlar bizni ochiq chehra bilan kutib olishdi. Xonadonga kirar ekanmiz, onamni ichkariga boshlashdi. Meni esa oyoqlarim o'z-o'zidan oshxona tomonga boshladi. Oshxonada men tengi qizlarni ko'rinmas bir qo'l boshqarmoqda edi. Hamma bilib-bilib o'z ishini qilardi.

Shu vaqt ichkaridan choynak ko'tarib bir ayol chiqdi, darhol choynakni oldim. Gaz plitasi oldida turgan xolavachcham: "Qanaqa choy, ko'kmi-qorami?" – dedi hushyorlik bilan va qo'limdagi choynakni oldi-da, choy damlab, qo'limga tutqazdi. Orada men bilan so'rashishga ham ulgurib, "Ichkariga kirib tamaddi qilib ol, keyin osh suzishga qarashasan", – deb qo'ydi...

1. "Oshxonada men tengi qizlarni ko'rinmas qo'l boshqarmoqda edi. Hamma bilib-bilib o'z ishini qilardi" degan gapda qanday "ko'rinmas qo'l" haqida gap ketyapti?

2. Siz bunday vaziyatlarda qanday yo'l tutasiz?

**Har ikki guruhga:** Nima uchun bu qoidalarga amal qilish kerak? Har bir qoidani ifodalovchi ramzlarni ishleng.

Ikkala guruhning qoidalaridagi umumiy va o'ziga xos tomonlarni belgilang. Buni Venn diagrammasida ifodalang.



## Bilasizmi?

Suv ichayotganda kishi bir nafasda emas, sekin-sekin uch bo'lib ichishi lozim. Ichilayotgan suvga puflamaslik kerak. Turib yoki yurib suv ichgandan o'tirib ichgan yaxshiroqdir.

Dasturxonning hamma tomoniga qo'l uzatmasdan, taomni o'z oldidan, luqmani oz-ozdan olish odobdandir. Og'izda luqma bo'lsa, gapirmagan ma'qul.

Dasturxon atrofi-da boshqalarning luqmalariga qarash, ko'ngilni qoldiradigan harakatlar qilish, qahqaha otib kulish, og'izni chapillatish yomon odat.



### Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. "Tanishingmi?", "Oshda" va "Mehmonda" hikoyalarida qanday qadriyatlar yashiringan? Har bir hikoyadagi siz uchun muhim bo'lgan qadriyatlar ro'yxatini tuzing.

2. Yana qanday qoidalarni qo'sha olasiz?

3. Faraz qiling, siz tashkilot rahbarisiz. Tashkilotingiz etiket qoidalarini ishlab chiqing.

## IV BOB. SHAXSIY RIVOJLANISH

### 23-24-MAVZU: RENESSANS POYDEVORI



#### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar



1. Berilgan rasmlar orqali xalq farovonligiga oid omillarni aniqlang. Farovonlikka nimalar asos bo'ladi?

2. Sizing bilimli, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishingiz mamlakat rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

3. Bilim-saviyangizni oshirish uchun bir kunda qancha vaqtni kitob o'qishga sarflaysiz?

4. Qomusiy olim Abu Ali ibn Sino: *"Aql tarozisida o'lchanmagan bilim haqiqiy emas"*, deydi. Nima uchun bilimlarni aql tarozisida o'lchash kerak, deb o'ylaysiz?

5. Mamlakatimizda bugungi kunda ilm-fan bo'yicha olib borilayotgan islohotlardan qanday maqsadlar ko'zlangan?

6. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan davlatlarga e'tibor qarating. Buyuk ipak yo'lining quyidagilarga ta'sirini ayting:

- sivilizatsiya;
- ilmiy-madaniy meros;
- davlatchilik rivoji;
- diplomatik munosabatlar;
- milliy va diniy munosabatlar.



Mulohaza uchun



Me'mor Ismoil ibn Tohir Mahmud Isfahoniy Mirzo Ulug'bek buyurtmasi bilan 1417–1419-yillarda Buxoroda madrasa qurgan.

Madrasa darvozasining peshtoqiga **“Ilmga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir”** degan hadisi sharifni arab tilida naqshinkor yozuvlar bilan bitgan.

Darvozaning temir halqasiga hukmdor Mirzo Ulug'bek ruhiyatiga xos bo'lgan ushbu jummalarni olimga qattiq mehr qo'ygan yosh usta me'morlardan biri yozib qoldirgan: **“Ilm durdonalaridan bahramand bo'lgan odamlarga Alloh taolo rahmat eshigini ochgay”**.



Ijodiy faoliyat

1. Quyidagi matnni o'qib, munosabatingizni bildiring.

Tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o'sish, taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Tinchlik va barqarorlik bo'lsagina, ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o'quv yurtlari paydo bo'ladi.

2. “Ustoz ota kabi ulug'” degan hikmatli naqlni amalda qaror toptirish uchun qanday takliflar berardingiz? O'zingiz bu hikmatga amal qilasizmi? Nima uchun ustozning maqomi otaga tenglashtiriladi?

Ma'lumot uchun



**Zamonaviy O'zbekistonda ilm-fan va uning ravnaqi xorijlik ekspertlar nigohida**

O'zbekistonda ilm-fanni yangi darajaga ko'tarishga yo'naltirilgan g'oya-takliflar davlatni yanada yuksaltirish nuqtayi nazaridan juda katta ahamiyatga ega. Xalq o'zining tarixi, madaniyati hamda an'analarini bilmog'i muhim. Aks holda, u milliylikdan mosuvo bo'ladi. Agar mamlakatlar bir-birining tarixini chuqur bilsa, bugungi globallashtirish dunyoda tinchlik va hamkorlik mustahkamlanadi.

O'z-o'zidan ayonki, bilimlar almashuvini olib borish, boshqa mamlakatlar, xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari bilan qo'shma tadqiqot hamda loyihalarni hayotga tatbiq etish juda muhimdir.

*Antonio Alonso Markos,  
San Pablo-Madrid universiteti professori*



### Ijodiy faoliyat



Matnni o'qing. Fikringizni berilgan rasmlar asosida izohlang.

### Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni

Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni deb hisoblaymiz.

Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo'ladilar. Va bu ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo'ladi, desam, o'ylaymanki, sizlar to'la qo'llab-quvvatlaysizlar.

*Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*



### Ma'naviyat xazinasidan

“...Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat”, – deya ta'kidlaydi mamlakatimiz Prezidenti.

Kuchli iqtisodiyot va kuchli ma'naviyat birligi tamoyili mustahkam asosga ega. Biz ikki Renessansni ko'rgan, qurgan millatmiz. “Yangi O'zbekiston = kuchli iqtisodiyot + kuchli ma'naviyat” formulasi Uchinchi Renessansning poydevorini tashkil etadi. Bunday uyg'unlashuv jamiyat ravnaqiga xizmat qilib, insonlarni ma'rifat sari yetaklaydi.

### Mulohaza uchun



Aflotundan: “Shuncha ilmni qanday hosil qilding?” – deb so‘radilar. U shunday javob berdi: “Ilm o‘qiyotgan paytlarimda yoqqan chiroq moyim xarajatini hisoblasang, yeb-ichgan narsalarimning pulidan ko‘proq bo‘ladi”. Demak, vaqtni ortiqcha yeb-ichish va o‘yin-kulgiga emas, ilm olishga sarflash zarur.

Har bir ishning ilmni bilish uni oxiriga yetkazish va mukammal ado etishga asosiy omil bo‘ladi. Ilm va tafakkur insonlarga dunyo va oxiratda eng to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchidir. Uning sohibi esa barcha maqtovgga sazovor axloqqa erishadi.



### Ijodiy faoliyat

1. Matnda “har bir ishning ilmni bilish” deganda nima nazarda tutilmoqda?
2. Matnda berilgan “Uning sohibi esa barcha maqtovgga sazovor axloqqa erishadi” degan fikrni “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” matni mohiyati bilan bog‘lab ko‘ring.
3. To‘xtamurod Jumayevning qat‘iyiligi, o‘z ishning ilmni bilishi uni oxiriga yetkazish va mukammal ado etishga asosiy omil bo‘la oldimi? Nima uchun?
4. Siz o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadlaringizga erishish uchun qanday harakat qilyapsiz?
5. “Mukammal ado etish” deganda nimani tushundingiz?

### Mulohaza uchun



## Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi

To‘xtamurod Jumayev Buxoroning olis tumanida joylashgan oddiy bir qishloq maktabini o‘zining tinimsiz izlanishi, yangi ta‘lim metodikasi bilan respublika darajasidagi mashhur ta‘lim dargohiga aylantirdi.

Har yili maktab bitiruvchilarining 95 foizdan ortig‘i oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga qabul qilinadi.



2020-yilda bu ta‘lim maskani erishayotgan katta yutuqlarni inobatga olib, Xalqaro matematika maktabiga aylantirildi.

Mohir pedagog To‘xtamurod Jumayev ta‘lim-tarbiya sohasida erishgan ulkan yutuqlari va ibratli faoliyati uchun Prezident farmoniga asosan davlatimizning yuksak mukofoti – “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.



### Ijodiy faoliyat

1. Quyidagi xalq maqolini o'qing va yurtimiz mutafakkirlari turli sohalar-dagi ilmlarni egallash uchun qancha mashaqqat chekkanlarini aytib bering:

“Ilm bilan shug'ullanish igna bilan quduq qazishga barobar”.

2. Siz o'z oldingizga ilm va hunar-ni qaysi sohalarini egallashni maqsad qilib qo'ygansiz?

3. Maqsadingizga erishish uchun qanday harakat qilyapsiz?



### Tarixga nazar



Davlatimizning qanchalik tez ulg'ayishi, kuch-quvvatga to'lishi, dunyo hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi, avvalambor, sizning ma'naviy saviyangiz, g'urur va faxringiz nechog'liq yuksak bo'lishiga bog'liq.

IX–XII asr – Imom Buxoriy, Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino,

Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Burhoniddin Marg'inoniylarning jahon ilmiga qo'shgan ulkan xizmati Ma'mun akademiyasining Xorazmdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi bosqich – Temuriylar Renessansi davri XIV–XVI asrlarga to'g'ri keladi.

Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzolarining ilm-fan, madaniyat rivojidagi xizmatlari beqiyosdir.

Markaziy Osiyoda IX–XII va XV asrlarda ro'y bergan ilm-fan, falsafa, adabiyot sohasidagi rivojlanish Yevropa Renessansiga katta ta'sir ko'rsatdi.



Ijodiy faoliyat

1. Quyida berilgan rasmlarga diqqat bilan qarang. O'rta asrlarda ushbu chizmalarni chizish va tafakkur qilish uchun qanday bilimlarga ega bo'lish kerak edi?

2. 5-rasmdagi manzarani Buxorodagi Ulug'bek madrasasi darvozasining peshtoqiga yozilgan hikmat bilan izohlang.


3. Abu Ali ibn Sinoning XIV asrda Italiyada nashr etilgan "Tib qonunlari" kitobiga ishlangan gravyuraga qarab dunyo tibbiyot ilmi rivojiga Ibn Sino qo'shgan hissa haqida ma'lumot bering.



Qiblani aniqlash chizmasi. VIII asr. Muhammad ibn Muso Xorazmiy



Usturlobning bir qismi. X asr. Ibn Iroq



Siqib chiqarilgan suvning hajmini aniqlovchi idish. XI asr



Tibbiyot anjomlari. XI asr



Ulug'bek shogirdlari bilan. XVI asr miniatyurasi.



Abu Ali ibn Sinoning XIV asrda Italiyada nashr etilgan "Tib qonunlari" kitobiga ishlangan gravyura

## Ma'naviyat xazinasidan



Ilmlar ko'pdir. Ular zamona iqboli bo'lib, turli fikr va xotiralar qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. Ayniqsa, hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

*Abu Rayhon Beruniy, Tanlangan asarlar. 2-jild*



## Ijodiy faoliyat

Abu Rayhon Beruniyning "... Hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi" degan fikrini mamlakatimizda ilm-fanga berilayotgan e'tibor bilan bog'lang. Fikringizni tengdoshlaringizning turli tanlovlarda erishgan yutuqlari bilan bog'lab tushuntiring.

## Ma'lumot uchun




## Stratosfera zabt etildi

2021-yilda "Aviatsion va kosmik o'quv-tadqiqot laboratoriyasi" mutaxassisi **Ziyodulla Butaxonov** mavjud eng zamonaviy qurilmalardan foydalanib, yirik loyihani amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi.

Yerni 42 kilometr balandlikdan suratga olishga erishgan yosh olim harakatlari bilan yurtimiz tarixida ilk bor fazoga aerostat uchirildi.

O'zbekiston birinchi marta yaqin kosmos, ya'ni stratosferani zabt etdi.





Ijodiy faoliyat

**Jamoaviy topshiriq:**

1. Xalqimiz buyuk ma'naviy xazina sohibi. Siz shu xazinani yanada boyitish uchun nima qila olasiz?

2. Quyida berilgan rasmda qanday soha mutafakkirlari tasvirlangan? Ularning yashagan davrini aniqlang va tarixiy baho bering.

3. Sharq uyg'onish davri allomalari qoldirgan ilmiy merosning bugungi zamonaviy ilm-fan rivojida qanday o'rni bor?

Sohalar bo'yicha tahlil qiling (har bir jamoa ilm-fanning biror sohasi yutuqlarini allomalarning ishlari bilan bog'lagan holda ma'lumot to'playdi).

Har bir jamoa bergan ma'lumotlardan umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlang. "Sharq uyg'onish davri va ilm-fanning yangi taraqqiyotida mening hissam" mavzusida taqdimot tayyorlang.





Ijodiy faoliyat

Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak...

Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

*Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti*

– Siz egallashni maqsad qilib qo'ygan kasbingiz qanday innovatsiyalarga asoslanadi?

– “O'z kasbining mohir ustasi bo'lish” degan fikr bilan “Buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak” degan fikrni bog'lab tushuntiring.

Darsdan ijobiy saboq chiqarib



1. O'rta asr ilm-fani rivoji bugungi kundagi qaysi fanlarning takomillashuviga asos bo'ldi? Qanday sharoitda ilm-fan rivojlanadi?

2. Markaziy Osiyodan chiqqan olimlar qanday fan sohalarida faoliyat yuritganlar?


3. Abu Rayhon Beruniy Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit'a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi. U qanday bilimlarga asoslangan? Siz bu bilimlarni egallashingiz uchun qanday sharoitlar bor? Siz undan oqilona foydalanyapsizmi? Fikringizni asoslang.



Qani, qizim, ayting-chi!  
Nima uchun o'qishni to'xtatdingiz?  
O'qish-yozishni bilib oldingizmi?  
Menga o'z qo'lingiz bilan xat yozib  
yuboring. Bir suratingizni ham  
yuboring, xo'pmi? Unutmang.

Faxri.

1944-yil 4-dekabr



4. Frontdan qiziga maktub yo'llagan ota qanday mas'uliyatni bajarmoqda?

5. Nima uchun urush o'chog'ida yurgan ota farzandi uchun bilim olishni barcha narsalardan ko'ra zarur deb hisoblamogda?

6. Erkin Vohidovning “Nido” dostonidagi “44-yil sentabr tongi otdi...” deb boshlanadigan bobni o'qing. Uni maktubdagi fikrlar bilan solishtiring.

## 25-26-MAVZU: HALOLLIK VAKSINASI



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. “Halollik vaksinasi”ni siz qanday tushunasiz? U bilan qanday emlanish mumkin?
2. Siz “halollik vaksinasi” bilan emlanganmisiz? Fikringizni asoslang.
3. Quyidagi keyslarni diqqat bilan o‘qing.

### Mulohaza uchun



### Bu kunning o‘tishi qiyin bo‘ldi

Azizbek bugun rahbaridan tanbeh eshitgani uchun qo‘li ishga bormadi. “Ee., ishlasang ham shu ahvol, ishlamasang ham!” U kun davomida kompyuterda turli o‘yinlar o‘ynab, ijtmoyi tarmoqlarda kimlar bilandir bir nimalarni yozishdi... Azizbek uchun bu kunning o‘tishi juda qiyin bo‘ldi. U dam-badam soatga qarar, soat millari xuddi bir joyda to‘xtab qolganday

edi. Mana, nihoyat soat millari 18:00 ga yetib, ish vaqti tugaganini bildirdi. Azizbek ish stolini tartibga solib, hamkasblari bilan xayrlashdi va ko‘chaga qarab odimladi.



### Ijodiy faoliyat

1. Nima sababdan Azizbek uchun “bu kunning o‘tishi qiyin bo‘ldi?”
2. Siz Azizbekning o‘rnida qanday yo‘l tutardingiz?
3. Azizbek biror narsani boy berdimi? Uning kayfiyati ish unumdorligiga qanchalik ta‘sir qildi?


### Mulohaza uchun



### Kasb mas‘uliyati

Zarifa mahalladagi oilaviy poliklinikada hamshira bo‘lib ishlaydi. Bugun unga biriktirilgan hududdagi ko‘chalarda yashovchi bolalarni navbatdagi ko‘rikdan o‘tkazishga chaqirishi kerak. Qo‘ng‘iroq qilib bog‘lana olmagan oilalarning uylariga borishga to‘g‘ri keldi.

Ayrim oilalar Zarifani ovora qilganlari uchun uzr so‘rashdi. Nazira ayaning hovlisiga kirganida avvaliga uni iliq kutib olishdi. Tibbiy ko‘rik haqida gap boshlagan edi hamki, Nazira ayaning jahli chiqib: “Nima qilishni bizga o‘rgatmay qo‘yaqol. O‘zimiz bilamiz, qachon nima ish qilishni!” – deb Zarifani eshikka kuzatib qo‘ydi.



### Ijodiy faoliyat

1. “Tibbiy ko‘rik” nima uchun kerak? Undan kim ko‘proq manfaatdor?
2. “Nima qilishni bizga o‘rgatmay qo‘yaqol. O‘zimiz bilamiz qachon nima ish qilishni!” Mazkur gapni 2020-yilda butun dunyo bo‘ylab keng tarqagan pandemiya bilan bog‘lab tushuntiring.

### Mulohaza uchun



### Do‘konda

“Shokoladlarning qutisida qayd etilgan yaroqlilik muddati o‘tib qolibdi. Bularni endi nima qilamiz?” – deb so‘radi Shahlo ish boshqaruvchidan.

Ish boshqaruvchi: “Ha, shunday bo‘libdimi? Unda hamma shokoladlarni qadog‘idan ochib chiqinglar”, – dedi.

Shahlo va boshqa qizlar ishdan keyin qolib, muddati o‘tgan shokoladlarning qadog‘ini ochib chiqishdi. Ish boshqaruvchi ularga ishdan keyin ishlaganlari uchun qo‘shimcha haq berdi. Ertasi kunidan boshlab, qadoqdan ochilgan shokoladlar do‘konda kilogrammlab sotuvga qo‘yildi.



### Ijodiy faoliyat

1. Do‘kon ish boshqaruvchisining o‘z vazifasiga mas‘uliyati qay darajada shakllangan?
2. Ish boshqaruvchiga “halollik vaksinasi” kerak deb o‘ylaysizmi? Nima uchun?
3. “Halollik vaksinasi” sizning kelajagingiz uchun qanchalik muhim deb o‘ylaysiz?

### Ma‘naviyat xazinasidan



Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta‘bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz.

*Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*



### Ma'lumot uchun

Umuminsoniy qadriyatlarga ko'ra, halol-harom masalasida qat'iyatli bo'lib, ularni bir-biridan ajratib olish komil insonga xos belgidir. Qaysi bir odam birovning haqqidan qo'rqsa, kasb tanlash, rizq-nasiba topishda haromdan hazar qilsa, demak, u halollikka intilibdi.

Ahamiyat bersak, xalqimizda halollik va nopoklik haqidagi ibratli hikmatlar ko'p. Mana shunday ikki qarama-qarshi dunyoqarash asosida paydo bo'ladigan og'ir savollar odamzod ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o'ylantirib, qiynab keladi.

Halollikning o'zi kabi do'stlari ko'p: yaxshilik, baraka, xotirjamlik, osoyishtalik. Agar e'tibor bersangiz, halol insonning dili va yo'li to'g'ri, darajasi ulug' bo'ladi.

### Mulohaza uchun



### Buzilgan ko'prik uchun javob

Abdulloh ibn Umar o'z otasiga aytgan ekan:

– Ey ota, olamdan o'tsangiz, sizni ikkinchi yo uchinchi kechada tushimda ko'rishni istayman.

Vafotidan o'n ikki yil o'tib ham otasi tushiga kirmabdi. O'n ikki yildan keyingina tushida otasini ko'ribdi. O'g'li undan so'rabdi:

– Ota, siz menga uch kechadan keyin tushingga kiraman, degan edingiz-ku! Otasi javob beribdi:

– Naharvonda bir ko'prik buzilgan va xizmatchilar uni tuzatmagan ekanlar. Qo'ylar shu ko'prikdan o'tayotganda birining oyog'i teshikka tushib sinibdi. Hozirgacha shuning javobini berdim.

*Nizomulmulk, "Siyosatnoma" dan*



### Ijodiy faoliyat



1. Hikoyadagi vaziyatni mas'uliyat, halollik va burch kabi fazilatlar bilan bog'lab tahlil qiling.

2. Siz o'z zimmangizdagi vazifalarga qanday munosabatda bo'lasiz? Ularni o'z vaqtida va ko'ngildagidek bajaraman deb o'ylaysizmi?

3. Kun davomida samarali sarflagan vaqtingizni hisoblang (bunga tungi 7–8 soatli uyquni ham qo'shing). Bir kunlik aniqlagan vaqtingizning hisobini bir oyga ko'paytiring. Uni yillarga ko'paytirib ko'ring-chi?

4. Ishlaringizni rejalashtirishga odatlaning.

## Mulohaza uchun



Akmal bank akademiyasini bir amallab bitirdi. O'qish davrida otasining hurmati uchun ustozlari joriy va yakuniy imtihon baholarini qo'yib berishdi. Otasi tanishlariga aytirib, Akmalni nufuzli banklardan biriga ishga joylab qo'ydi.

Matndagi "bank akademiyasi" o'rniga "tibbiyot akademiyasi", "pedagogika universiteti", "texnika universiteti"; "banklardan" so'zining o'rniga "kasalxonalaridan", "ta'lim muassasalaridan", "katta qurilishlardan" kabi so'zlarni qo'yib ko'ring-chi.



## Ijodiy faoliyat

1. Yuqoridagi vaziyatlarning oqibati qanday bo'lishi mumkin?
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidan mazkur vaziyatni tasniflovchi moddani toping va javobgarligini belgilang.
3. Bunday mutaxassislarining faoliyatida huquqiy javobgarlikdan tashqari yana qanday oqibatlar yuzaga kelishi mumkin?
4. Ishlaringizni tezlik bilan bitirish uchun qanday yo'l tutishni ma'qul ko'rasiz? Nima uchun? Mashaqqatsiz, puxta bilim va malakaga ega bo'lmasdan munosib kasb tanlash mumkinmi?

## Mulohaza uchun



## Luqma

Bir fozil inson xurmo sotiladigan do'kon oldida bolalarning o'yinlarini tomosha qilib turar edi. Xurmo sotuvchi qo'lida bir nechta xurmo olib chiqib bolalarga berdi. "Bu xurmolarni qayerdan oldingiz?" – deb so'radi fozil kishi. Xurmo sotuvchi: "Hozir bir kishiga xurmo sotgan edim, uning xaltasidan tushib qolibdi", – deb javob berdi. Fozil inson: "U kishini taniysizmi?" – deb so'radi. Xurmo sotuvchi: "Ha", – dedi.

Fozil kishining kayfiyati buzilgani yuzidan ko'rinib turar edi. Xurmo sotuvchi: "Nima uchun bunday savol berdingiz?" – deb so'radi.

U javob berdi: "Xurmoning egasini topib, uni rozi qilib qo'ying. Nima uchun bolalarni harom luqma bilan taomlantirasiz?"

Xatosini tushunib yetgan xurmo sotuvchi: "Bundan buyon birovning haqqini o'zlashtirmayman", – deb qasam ichdi.



## Ijodiy faoliyat

1. Ushbu hikoyaning mazmuni sizga biron hayotiy voqelikni eslatdimi?
2. Xurmo sotuvchining xatosi nimada edi?

3. “Xurmoning egasini topib, uni rozi qilib qo‘ying”, deganda fozil odam nimani nazarda tutgan edi?

4. “Harom luqma” hayotingiz farovonligiga qanday ta’sir etadi?

Ma’lumot uchun



### O‘z shamimni yoqdim

Bir kuni bir kishi Umar ibn Xattobning qabuliga keldi. Salom berdi-da, kutib turdi. Umar ibn Xattob yonib turgan shamni o‘chirib, keyin boshqasini yoqdi. Bu ahvol mehmon diqqatini tortdi.

Mehmon:

– Oldingizda sham yonib turardi, uni o‘chirdingiz. Yana unga o‘xshash boshqa shamni yoqdingiz. Buning qanday hikmati bor? – dedi.

Umar ibn Xattob tabassum bilan:

– O‘chirganim davlatning shami (molidir). Yoqqanim esa o‘zimning shaxsiy shamim, o‘z pulimga olganman. Davlat ishlarini qilganimda davlatning shamini yoqaman. Hozir siz bilan suhbat qurib o‘tirganimda davlat shamini yoqishim halollik bo‘lmaydi, shuning uchun uni o‘chirdim, o‘z shamimni yoqdim, – dedi.



Ijodiy faoliyat

1. Umar ibn Xattob kimning haqqidan qo‘rqdi? Nima uchun?
2. T. ismli shaxsning uy telefoni buzilib qoldi. Ertasiga T. buzluq apparatni ishxonasidagi shunday telefon apparatiga almashtirib keldi... Ushbu holatni Umar ibn Xattob faoliyati bilan taqqoslang.

Mulohaza uchun



**Korrupsiya sizning barkamol o‘shingizga to‘sqinlik qiladi va baxtsizlikka sababchi bo‘ladi!**



Qonunga ko‘ra, korrupsiya shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.



## Mulohaza uchun

**Bigizga aylangan to'g'nag'ich**

“O'g'lingiz har kuni bigiz bilan meshlarimni teshyapti. Sizday ulug' odamning farzandiga shu ish munosibmi?” Donishmand mulzam bo'lib, uzr so'rabdi, meshlarning haqqini to'labdi-da, xotinini chaqirib voqeani bayon qilibdi.

So'ng: “Biz bolamizga bunday tarbiya bermagan edik. Luqmasiga harom aralashib qolmadimikan?” – deb so'rabdi. Xotini picha o'ylagach: “Siz nima topib kelgan bo'lsangiz, biz o'shanigina yeymiz. Bizdan gumoningiz noo'rindir”, – debdi.

Ota: “Men uyga harom luqma keltirganimni eslay olmayapman. Tongga qadar yana o'ylaylik”, – debdi.


Tongda xotini aybdor odamning siniq ovozi bilan debdi: “...bir voqeani bexos esladim: shu bolaga homilador ekanimda mehmonga borib edim. Dasturxon noz-ne'matga to'la edi. Undagi po'rtaxol (apelsin) ishtahamni qitiqlab, nafsimni o'zimga hukmron qilib qo'ydi.

Eshitib edimki, homiladorlik chog'ida ayol yegisi kelgan narsadan tatib ko'ra olmasa, bolasi nuqsonli bo'lib tug'ilmog'i mumkin ekan. Mezbon nechundir: “Oling, yeng”, – demadi. Nafsim esa tinchimadi.

Oqibat, mezbon chiqib ketgach, po'rtaxolni qo'limga olib, to'g'nag'ich ignasi bilan asta teshdim-da, bir tomchi sharbatini simirdim. So'rab olinmagani uchun, balki, shu luqma harom bo'lgandir?”

Xotinining iqrorini eshitgan er: “Ha, barakalla! Anglab yetibsiz. Tezda o'sha xonadonga boring-u, voqeani bayon qilib, o'sha bir tomchi sharbat uchun rozilik oling”, – degan ekan.

*Tohir Malik, “Ostona”*



## Ijodiy faoliyat



1. Bugun po'rtaxol – meshga, to'g'nag'ich – bigizga aylangan bo'lsa va bu holat o'z holiga tashlab qo'yilsa, yana bir necha yil o'tgach, ular nimaga aylanishi mumkin? Fikringizni asoslang.

2. “Harom luqmaning kami ham, ko'pi ham bo'lmaydi – barchasi insonni badbaxt qiladi” degan hikmatni mavzuga bog'lab tushuntiring.

### Ma'naviyat xazinasidan



Barcha ezguliklarning, xayrli ishlarning boshi halollikdir. Halollik bor yerda mug'ombirlik chekinadi, haromning yo'li bekiladi.



### Ijodiy faoliyat

1. Bir o'quvchi darsga xalaqit qildi. Mavzudan tashqari savollar bilan o'qituvchining vaqtini oldi. Sinfidagi qolgan 34 nafar o'quvchi 15 daqiqa bu jaryonni kuzatib o'tirdi. Shu kuni o'qituvchi o'quvchilardan uy vazifasini so'rashga ulgurmad. Bu yerda kimning nimasi o'g'rilandi? Buning haqini kim to'laydi? Sizing sinfingizda ham shunday voqealar bo'ladimi? Sizing bu holatga munosabatingiz qanday?

2. Kurashda raqibining ikki yelkasini hech qanday g'irrom ishlatmasdan yerga tekkizgan polvonlarning g'alabasi qaysi atama bilan e'lon qilinadi? Nima uchun hamma polvonlar shu kalomni eshitish orzusida maydonga tushadilar? O'zbek kurashidagi qaysi qoida xalqaro musobaqalarda baholash sifatida qabul qilingan?



### Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Har bir keysni halollik va mas'uliyat, burch bilan bog'lab ko'ring.
2. Halollikka e'tibor berish uchun nimalar zarur ekani haqida qisqa esse yozing.
3. Hikoya qahramonlarining qaysi biriga "halollik vaksinasi"ni bergan bo'lardingiz? Nima uchun?
4. Do'kondor sizdan xaridingiz pulini uning kartasiga o'tkazib berishni so'radi. Siz qanday yo'l tutasiz?
5. Do'kondor topgan foydasini hisoboti kam ko'rsatdi. Bu ish to'g'rimi? Nima uchun?
6. L. ismli shaxs uyining elektr va gaz, suv hisoblagichlarini qasddan orqaga aylantirib qo'ydi. L. kimning haqqiga xiyonat qildi? Uning bu harakatiga Davlat va huquq asoslari fanidan olgan bilimlaringizga tayanib huquqiy va ma'naviy baho bering.



## 27-28-MAVZU: HAVAS QIL VA OLDINGA INTIL



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Siz kattalardan “Havas qil va oldinga intil” degan gapni eshitganmisiz? Bunday gaplar qanday vaziyatlarda aytiladi?
2. Kimningdir biror ishdagi yutug‘idan xabar topganingizda “Men ham shunday qila olaman”, “Nima uchun men qila olmasligim kerak?”, “Nima uchun men emas?” degan fikrlardan qaysi biri birinchi bo‘lib keladi? Buning sababini o‘ylab ko‘rganmisiz?

### Mulohaza uchun



### Hasad balosi

Hasadgo‘ylik ba‘zi odamlar qonida aylanib yuradigan ko‘hna xastalik. Af-suski, asrlar davomida bu dardning davosi topilmagan. G‘alib tashbeh uchun uzr-ku, hasadgo‘y quturgan itga o‘xshaydi. Farqi shuki, quturgan it duch kel-gan odamni qopadi. Hasadgo‘y esa el tanigan, eng yaxshi odamlarni “tanlab” abgor qiladi. It dangal kelib qopadi. Hasadgo‘y esa zimdan ish ko‘radi. Birovni yomonotliq qilish uchun ming bir xil harom “usul”dan foydalanadi.

Hasadgo‘ylarni ikki toifaga bo‘lish mumkin. O‘zini birov tanimaydigan, “Fa-lonchi bo‘lmasa, mening ishim yurishib ketardi, u emas, men mashhur bo‘lardim”, deb ichidan zil ketadi. Tag‘in bir toifasi bor: ko‘pchilikka tanilgan, obro‘si ham joyida. Biroq hech kimni yoniga yo‘latgisi kelmaydi. “Falonchi mendan o‘zib ket-masin, mendan boshqa hech kim o‘nglanmasin”, deb ichi kuyaveradi. Hamma-dan shubhalanaveradi...

“...ko‘nglingni kengroq tutsang-chi, baraka topgur!” degan gap xayoliga kel-maydi.

*O‘tkir Hoshimov, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”dan*



### Ijodiy faoliyat

1. O‘tkir Hoshimovning fikrlariga yana nimalarni qo‘shimcha qilgan bo‘lar edingiz?
2. Hasad qilgan odam kimga ko‘proq zarar keltiradi?
3. “Hasadchining bog‘i ko‘karmas” degan maqolni qanday tushunasiz? Nima uchun hasadchining bog‘i ko‘karmaydi?
4. “Hasad o‘sib-o‘sib g‘arazga, g‘araz – fitnaga aylanadi. Fitna esa har qanday razolatning onasidir” degan fikrga hayotdan misol keltiring.



Iskandar Rumiyl zamonida bir jonivor paydo bo'ldi, unga kim ro'para kelsa, darhol halok bo'lardi. Iskandar donishmandlari bu baloni daf qilish uchun har qancha urinsalar ham, hech narsa qila olmadilar.

Nihoyat, bu baloni daf qilish chorasini Arastu hakim topdi.



Arastu qanday tadbir qilgan yoki bu ishning chorasini topgan? Siz nima qilgan bo'lardingiz?



Uning buyrug'i bilan juda ham katta oyna tayyorladilar, u oyna orqasida bir-ikki kishi bekinib o'tirishi mumkin edi. O'sha oyna sig'arlik juda katta arava tayyorlab, uni aravaga ko'tarib qo'ydilar. Arastu oyna orqasida bekinib o'tirdi. Aravani u jonivor turadigan joyga yaqinroq yerga keltirib qo'ydilar.

Jonivor odam isini olib, arava tomoniga qarab kela boshladi. Aravaga yaqin kelgan edi, ko'zi oynaga tushdi, oynada o'z suratini ko'rib, darrov yiqilib o'ldi. Iskandar bu ishdan juda taajjublanib, Arastudan buning hikmatini so'radi. Arastu shunday bayon qildi:

Arastuning javobi qanday bo'lgan deb o'ylaysiz?

– Ey Iskandar, bu jonivor yer ostida necha yil yotgan badbo'y bug'lardan vujudga kelgandi, uning ko'zida zahri qotil bor edi, kimga ko'zi tushsa, u kishi darrov o'lardi. Men oldiga oyna olib bordim, uning aksi oynada paydo bo'ldi, nazari unga tushdi. U nazar bu aks vositasi bilan o'ziga qaytdi va o'z nazarining kasri o'ziga urib halok bo'ldi.

Iskandar Arastuga tahsin o'qidi.



Ma'naviyat xazinasidan

Dunyoda hammadan hasadchining yuki og'irdir, chunki u bechora butun dunyodagi shod va masrur odamlarning qayg'ularini o'z ustiga yuklab oladi.

Arastu



**Ijodiy faoliyat**

1. Quyidagilardan hasadni keltirib chiqaradigan illatlarni ajrating:
  - boshqa odamda mavjud bo'lgan yutuqlardan g'azablanadi;
  - nima uchun menda bunday imkoniyat yo'q, mening nimam kam, deydi;
  - baxillik qiladi;
  - men ham shunday qila olaman, deydi va harakat qiladi;
  - ishonchni suiiste'mol qiladi (so'zida turmaydi);
  - natijaga erishish uchun imkoniyatlarini safarbar qiladi;
  - dushman orqali zarar yetkazadi;
  - yutuqqa erishganlarning tajribalarini o'rganadi va ulardan foydalanadi;
  - yaxshilikni inkor qiladi.

2. Yuqorida berilgan fikrlarning aksini aytib ko'ring.

3. Jadvalni daftaringizga chizing. Berilgan sifatlarga zid ma'nolilarini toping. Ularni fe'lga aylantiring. Sizda shu fe'llarning qaysi biri shakllangan? Bu haqda o'ylab ko'ring. Xulosangizni hech kimga aytmang. Agar lozim topsangiz, maktab psixologi bilan maslahatlashing.

O'qigan asarlaringizdagi qahramonlar timsolida ushbu sifatlarga misol keltiring.

salbiy sifatlar	zid ma'nosi	misol
jahldorlik		
baxillik		
yomonlik		
ziyonkorlik		
g'ayirlik		
yolg'onchilik		
dushmanlik		

4. "Ma'naviyat xazinasidan" ruknida berilgan fikrlar asosida hasadgo'ylikdan qutulish yo'llari haqida infografika tayyorlang.

**Ma'naviyat xazinasidan**



Ey odamlar, do'stlik va mehr-oqibat o'g'rilaridan saqlaning! Bunday o'g'rilar-ga chaqimchi va ig'vogarlar kiradi. O'g'rilar mol o'g'irlasa, bunday kishilar odamlar orasidagi do'stlikni, tinchlikni, mehr-u muhabbatni o'g'irlab, fitna-fasod qo'zg'atadilar.

*Qayum Nosiriy, tatar yozuvchisi*



### Niyating – yo‘ldoshing

Rivoyat qilishlaricha, Iso alayhissalom mayitni tiriltirgach, ixlosmandlari qatori hasadgo‘y raqiblari ham ko‘payib ketadi. Shundaylardan biri: “Mayitni tiriltiradigan duoni menga ham o‘rgatasan”, deb turib olibdi. Iso masih bu kim-saning niyati nopokligini bilgani uchun rad etibdi. Haligi odam yalinib-yolvoribdi, ming tavallo qilibdi... Iso masih: “Kel, shu ham noumid bo‘lmasin”, deb duoni o‘rgatibdi.

Boyagi odam yo‘lda ketayotib, Iso meni baribir aldadi, o‘rgatgan duosi yolg‘on deb o‘ylabdi. Qarasa, yerda bir bo‘lak suyak yotganmish. Duo kuchini sinash uchun o‘qigan ekan, suyak bir zumda bahaybat sherga aylanibdi-da, uni parchalab tashlabdi...

Yaxshilikdan yomonlik izlashning jazosi shu bo‘lsa kerak...

*O‘tkir Hoshimov*



### Ijodiy faoliyat

1. Rivoyat nima uchun “Niyating – yo‘ldoshing” deb nomlangan?
2. “Har bir inson o‘z imkoniyatini to‘g‘ri baholashi zarur” deganda nimani tushunasiz? Misol keltiring.
3. “Insonning yaxshi niyati – muvaffaqiyatlarining boshlanishi va tayanch nuqtasi” degan tushunchani rivoyat bilan bog‘lab o‘z fikringizni bildiring.

### Ma‘lumot uchun



1. Hasad hasadchining psixo-fiziologik rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Birovning yutug‘ini ko‘ra olmaslik, o‘sha odamga yomonlik yetkazishni o‘ylash muntazam asabiylashishga olib keladi. Bu jarayonda inson o‘zidan salbiy (negativ) energiya chiqaradi. Organizm o‘zini o‘zi zaharlay boshlaydi. Bunday ruhiy og‘irlik qandli diabet, bronxial astma, infarkt va yana qator kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

2. Hasadning davosi: shukur qilish, sabr, kechirimli bo‘lish, kek saqlamaslik, kamtarlik, havas va yaxshilik bilan oldinga intilish. Yaxshilikni eshitganda yaxshilik egasiga xayrixohlik bildirib qo‘yish. Iloji bo‘lsa, “Siz uchun juda xursand bo‘ldim, omadingizni bersin”, deyish kerak.



### Mulohaza uchun



#### Maqsadga aylangan havas

Tog'amning men bilan birga katta bo'lgan o'g'li O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti arxeologiya bo'limida o'qir edi. U ustozlari bilan tez-tez arxeologik ekspeditsiyalarga borar va ko'rganlari haqida bizga berilib gapirib berar edi. Men esa unga juda havas qilib, arxeolog bo'lishni orzu qilar edim. O'sha kezlarda xayolimda qadimiy yodgorliklarni qazishda ishtirok etib, mamlakatimiz o'tmishi haqida ko'plab ma'lumot bera oladigan bebaho buyumlar, tangalar topayotganday edim. Qiziqishlarim kuchliligidan arxeologiya va tarix yo'nalishida o'qidim. Omon Toshmuhamedov, Svetlana Lunina, Zamira Usmonova kabi ko'plab ustozlarning maroqli ma'ruzalarini tinglash men uchun juda zavqli edi! Kuzda ekspeditsiyaga yo'l oldik. Orzum ro'yobga chiqishidan yuragim oshiqib ketar edi. Ekspeditsiya davomida yurtimiz tarixining naqadar boy ekanini angladim.

Biz qadimiy Shahrisabzdagi yodgorliklar, qadimgi Marv shahrini qazish ishlarida qatnashdik. Besh yil davomida turli hududlarda: Samarqand, Qashqadaryo, Oqqo'rg'ondagi qazishmalarga bordim. Ushbu arxeologik ekspeditsiyalar menga tarixni nafaqat yozma manbalardan o'rganish, balki ashyoviy dalillar orqali chuqur tahlil qilish imkoni borligini ko'rsatdi.

Men o'z ishimda doim ustozlarim M. Masson, E. Rtveladze, B. Lunin, R. Radjapova, R. Aminovaga havas qildim.

Oliy o'quv yurtini bitirib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutiga ishga bordim. Bu ilm dargohida o'zim anchadan beri uchrashishni orzu qilgan olimlar bilan tanishdim. Ulardan biri O'zbekiston arxeologiyasining otasi hisoblangan buyuk olim, akademik Yahyo G'ulomov edi. Ushbu uchrashuvlar, tinimsiz mehnat, mamlakatimiz tarixi va arxeologiyasiga o'ta qiziqishim fan doktori, professor bo'lishimga, laborantlikdan Tarix instituti direktori darajasigacha bo'lgan mashaqqatli, biroq sharaflilavozi mlarda faoliyat olib borishimga imkon berdi.

Inson orzusiga erishish uchun doimo o'z ustida ishlashi, bilim olishi juda zarur. Ammo yaxshi olim bo'lish uchun odam yaxshi insoniy fazilatlar egasi bo'lishi kerak va, albatta, o'z Vatanini hamda uning tarixini sevishi lozim. Shundagina u ilm cho'qqisiga chiqadi!

*Dilorom Alimova, tarixchi olim*



### Ijodiy faoliyat

1. Havas qilish qanday natijalarga yetakladi?
2. Maqsadga erishish uchun havasning o'zi kifoya qiladimi?





### Havas va harakat qiling

13 yoshli bola edim. 2007-yili Chikagoda boks bo'yicha jahon chempionati uchun kurash bormoqda. Oilamiz bilan televizor ekranidan uzoqlashmay Abbas Atoyevning ringdagi harakatlarini kuzatardik. Final bosqichida bokschimiz qozog'istonlik Erkabulan Shinaliyev va rossiyalik Artur Beterbiyevlar ustidan g'alaba qozonib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Janglarni diqqat bilan kuzatib, Abbas akamga havasim keldi. Buni ko'rgan otam menga: "Sen ham albatta chempion bo'lasan, faqat oldinga intil, harakat qil, mehnatdan qo'rqma!" dedi. Shu kundan boshlab, sport bilan jiddiy shug'ullana boshladim.

Havas qildim va oldinga intildim. Natijada 2019-yilda menga ham boks bo'yicha jahon chempionligi nasib qildi.

Tokio-2020 Olimpiada o'yinlarida boks boyicha oltin medalni qo'lga kiritdim. Havas va harakat qiling, niyatingizga albatta yetasiz.

*Bahodir Jalolov*



Ma'naviyat xazinasidan

Intilganga tole yor

Iroda – odamning o'z faoliyati va psixik jarayonlarini boshqarishda namoyon bo'ladigan qobiliyati. Inson iroda-viy harakatini amalga oshirarkan, o'ziga hukmron ehtiyoj va xohishlariga qarshi turadi. Iroda uchun "men xohlayman" degan kechinma emas, balki "kerak", "bajarishim shart" degan kechinma xosdir.

Irodaning muhim sifatlari: o'zini tuta bilish, dadillik, qat'iylik, chidam va toqat, prinsipiiallik, mustaqillik. Iroda kuchi shu sifatlarning qay darajada namoyon bo'lishiga qarab belgilanadi. Kishi yuksak g'oyalarga asoslangan ongli qat'iyat va sabot bilan o'z harakati yo'lidagi to'siqlarni yengar ekan, u kuchli iroda egasi hisoblanadi.

## Mulohaza uchun



### Oyoqlaringda muammo bo'lsa, bilagingda kuch bor-ku!

2004-yilda baxtsiz hodisa oqibatida chap oyog'im tizzamdan amputatsiya qilindi. Bir oyog'im yo'qligini ko'rgach, xayolimga birinchi bo'lib endi hayotim hech qachon oldingiday bo'lmaydi, degan fikr keldi. Kundan kunga sog' oyog'imdan ham kuch keta boshladi. Akam Ulug'bek chap oyog'ini bog'lab olardi-da, o'ng oyog'imizni kuchaytiramiz deb men bilan birga mashq qilardi. Chunki maktab bilan uyimiz o'rtasidagi masofa ancha uzoq, piyoda borishga to'g'ri kelardi.

2011-yilda Toshkent shahridagi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan respublika kasb-hunar kollejiga o'qishga bordim. Kollej nomining o'zi ham meni tushkunlikka tushirar edi. Bu kayfiyatimdan xabardor bo'lgan jismoniy tarbiya o'qituvchimi Abror Abdullayev menga tosh ko'tarish bo'yicha o'zimni sinab ko'rishni taklif qildi. "Oyoqlaringda muammo bo'lsa, bilagingda kuch bor-ku!

Harakat qil, chempion bo'lasan!" dedi. Va nihoyat, 2013-yili Malayziyada yoshlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida, 2014-yili Dubayda o'tkazilgan Xalqaro granpri musobaqasida jahon rekordini yangilab, oltin, 2021-yili Manchesterda o'tkazilgan jahon kubogi, Gruziyada o'tkazilgan jahon kubogida oltin medallarni qo'lga kiritdim.

Farhod Umrzoqov



### Darsdan ijobiy saboq chiqarib



1. "Havas qil va oldingga intil" mavzusida esse yozing.
2. Nuqtalar o'rniga to'g'ri keladigan so'zlarni toping.  
*Bunday o'g'rilarga ... va ...lar kiradi.*  
*O'g'rilar mol o'g'irlasa, bunday kishilar odamlar orasidagi ..., ...ni, ...-...ni o'g'irlab, fitna-fasod qo'zg'atadilar.*  
*Har bir ... o'z ...ga to'g'ri ...lashi zarur.*
3. Siz nimalarni havas qilasiz? Maqsadga erishish uchun havasning o'zi kifoya qiladimi? Havas qilingan orzuni amalga oshirish uchun inson o'z imkoniyatlarini hisobga olishi kerakmi? Nima uchun?

## 29-MAVZU: MEHNATIDAN QADR TOPGANLAR



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Ayollarni ta'riflovchi 2 ta sifat keltiring.  
Ayol bajaradigan vazifalar to'g'risida 3 ta fe'l ayting.  
"Ayol" so'zi ishtirok etgan gap yoki so'z birikmasini ayting.  
"Ayol" so'zining ma'nodoshlarini sanab bering.
2. Irodani mustahkamlash uchun qanday mashqlarni amalga oshirish kerak?
3. "Baxtga erishish uchun irodang mustahkam bo'lishi kerak" degan fikrga qanday qaraysiz?
4. "Irodasi mustahkam", "irodali", "irodasi bukilmas" degan iboralar qanday insonlarga nisbatan aytiladi?



### Mulohaza uchun



### Yil odami

Men 1994-yili Xorazm viloyatida tug'ilganman. Kichkinaligimda dori reaksiya berib, o'ng oyog'im ishlamay qolgan. Shundan nogiron bo'lib qoldim. 2010-yili Toshkent shahridagi Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan Respublika kasb-hunar kollejiga o'qishga kirdim. Jismoniy tarbiya o'qituvchimizning qo'llab-quvvatlashlari natijasida sportning paurlifting (tosh ko'tarish) turi bilan shug'ullana boshladim. Harakatlarim zoye ketmadi. 2013-yili Dubayda o'tkazilgan Xalqaro gran-pri turnirida bronza medalini qo'lga kiritdim. Bu mening katta sportga dastlabki qadamim edi. 2016-, 2018-yillarda Osiyo chempionati, 2018-yili Jakartada o'tkazilgan Para Osiyo o'yinlarida, 2021-yili Tbilisi shahrida o'tkazilgan jahon kubogida oltin medallarni qo'lga kiritdim.



Para Osiyo o'yinlari rekordini yangiladim. Tokio - 2020 paralimpia o'yinlarida esa kumush medal sohibi bo'ldim.

Shuni bildimki, sport - irodani mustahkamlaydi. Meni imkoniyatim cheklanmagan, aksincha imkoniyatlarim cheksiz.

*Kuziyeva Ro'za, O'zbekiston paralimpiada terma jamoasi a'zosi*






### Ijodiy faoliyat

1. Mulohaza uchun berilgan matnlardan foydalanib quyidagilar haqida fikrlang.

Men o'z oldimga ... maqsad qo'ydim.  
Maqsadimga yetish uchun ... qildim.  
... ishlarni davom ettiraman.  
... kabi muammolarni ... bartaraf eta olaman.  
... qo'limdan keladi.

2. Berilgan rasmlar asosida "bukilmas iroda" haqida fikr bildiring.



Mavluda Abdunazarova ikki qo'li yo'q bo'lsa ham rangtasvir va gilam to'qishni san'at darajasiga ko'tara oldi.

Gulshoda bolaligida baxtsiz hodisa oqibatida oyoqlaridan ayrilgan. Lekin u hayotga intilishi natijasida tikuvchilikni o'rgandi. 2020-yilda davlatdan 80 million so'm kredit olib, o'z biznesini boshladi.



### Ma'naviyat xazinasidan

Bir rivoyatda kelishicha, havoriylar Iso alayhissalomdan "Ey Ruhulloh! Bugun yer yuzida sizga o'xshagan kishi bormi?" deb so'rashdi. U shunday javob berdi: "Kimning nutqi zikr, sukuti fikr va nazari ibrat bo'lsa, albatta, u menga o'xshabdi".

Hasan Basriy: "Kimning so'zi hikmat bo'lmasa, u larv (behuda)dir, kimning sukuti tafakkur bo'lmasa, u xato, kimning nazari ibrat olish bo'lmasa, u lahv (befoyda amal)dir", degan.



### Haqiqiy mutaxassis bu – doimiy o‘quvchi

Umrini kasbiga bag‘ishlagan, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni, “Oltin qalam” milliy mukofoti sohibasi, oliy toifali suxandon, O‘zbekiston xalq artisti Galina Melnikova bilan bo‘lgan suhbat sarlavhadagi fikrni tasdiqlasa, ajabmas...

“Omadli tasodif sabab bu sohaga qadam qo‘yganman. Tibbiyot institutida a‘lo baholarga o‘qirdim. Niyatim pediatr bo‘lish edi. Noyabr oyida bir imtihonni topshirib, hozirgi Toshkent tibbiyot akademiyasining yo‘lagida dugonalarim bilan sayr qilayotgandik. Shu vaqt ikki nafar televideniye rejissyori yonimga kelib, tanlovda qatnashishga taklif qilgan. Shunda:

“Nima u televideniye?” deb ham so‘ragandim, bilmasdim-da. Dugonalarim meni tanlovda qatnashishga ko‘ndirishgan. Omad kulib, tanlovdan o‘tganman. 6-noyabrda televideniye ochilgan bo‘lsa, 26-dekabrda rasman shu dargohning xodimiga aylanganman.

Bir yildan so‘ng rahbariyat o‘qishimni o‘zgartirish talabini qo‘ygan. Tibbiyot institutini uchinchi bosqichdan to‘xtatib, o‘sha vaqtdagi Chet tillari pedagogika institutining ingliz tili fakultetida tahsil olganman.

Suxandonni “dubulg‘a va qalqonsiz”, xato qilishga haqqi yo‘q askarga o‘xshataman. Boisi doim kutilmagan vaziyat bo‘ladi, qachon, qayerda, qanday ko‘rsatuvni olib borishingni, kimdan intervyu olishingni avvaldan bilmaysan.

Bolalikdan hamma ishim a‘lo darajada bo‘lishiga odatlanganman. Maktabda uch baho olmaslik uchun tonggi soat 06:00 da uyg‘onib, darslarimni takrorlardim. Shu yoshgacha tinimsiz o‘z ustimda ishlashdan to‘xtagan emasman. Hozirgi yoshimda yarim kunim bo‘sh, lekin hamma gazetalarni o‘qib, yangiliklar bilan tanishaman, siyosiy dasturlarni qoldirmay ko‘raman. O‘ttiz besh yoshimda meni Moskvaga ishga taklif qilishgan, uy-joy qilib berishlarini aytishgan, rad etganman. Boisi Vatanim – O‘zbekiston!”



“Darakchi” gazetasidan



#### Ijodiy faoliyat

1. “Dubulg‘a va qalqonsiz” deganda nimani tushundingiz? Yana qaysi kasb egalari nisbatan bu iborani qo‘llash mumkin?
2. Professional suxandon bo‘lish uchun inson qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak? Fikringizni asoslang.



## Mulohaza uchun



1948-yili oilamiz bilan Toshkentga ko'chib keldik. Toshkentning o'ziga xosligi, baland tepaliklari, bog'lari meni o'ziga jalb qildi. Ayniqsa, uzoq Sibirdan kelgan qizga bu o'lkaning tafti odamlarining mehri bilan bir-biriga uyg'unlashib ketgandek tuyulardi.

Dugonalarim bilan tepaliklar ustida o'ynar ekanmiz, kattalar: "Hoy, ehtiyot bo'linglar, bu tepaliklar tagida butun bir olam bor", deyishsa, hayron bo'lardim. Onajonim esa: "Bu tepaliklarda tarix yashiringan, ularni arxeologlar aniqlashadi, agar maktabda yaxshi o'qisang, ular senga o'z sirlarini ochadi", deb menga tushuntirar edilar. Bu orzum maqsadga aylandi. Onam aytganlaridek, 1954-yilda maktabni oltin medalga tugatdim va O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning arxeologiya yo'nalishiga o'qishga kirdim. Bu maqsadim tomon yana bir qadam edi. Ilmiy tadqiqotlarimda Toshkentning Xonobod qal'asi, Shoshtepa, Chilonzor oqtepesi, Yunusobod oqtepesi, Mingo'rik tarixiy obidalarini o'rganib, Toshkent shahrining 2200 yillik tarixga ega ekanini asoslay oldim.

Yoshligimdagi orzularim hayotim maqsadiga aylandi. Ishlarim esa, o'zbek xalqining milliy tarixini yoritishga xizmat qildi. Bu kamtarona mehnatlarim, albatta, davlat tomonidan e'tiborsiz qoldirilmadi. Fan-texnika sohasida Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati bo'ldim, "Do'stlik" ordeni, "Shuhrat" medali, Fransiyaning "Akademik palma" ordeni bilan taqdirlandim.

*Margarita Filonovich, tarixchi olim*



## Ijodiy faoliyat

1. Zamonaviy dunyoda arxeolog kasbi qanchalik dolzarb? Nima uchun?
2. Arxeolog uchun tarix fanini bilishning o'zi yetarlimi, uning tarbiyaviy ahamiyati-chi? Fikringizni asoslang.
3. Quyida berilgan matnni o'qing va munosabat bildiring. Javobingizni mavzuning nomi bilan bog'lang.

## Mulohaza uchun



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Xalqlar do'stligi" kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida mamlakatimizda yashab, Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan turli millat va elat vakillari haqida alohida to'xtalib, Margarita Filonovich, Galina Melnikova, Viktoriya Akilova, Gulandom Subhonova, Hanifa Solihova, Kaykep Aliyeva kabi yosh avlodlarga o'rnak bo'lib kelayotgan taniqli jamoat arboblarning nomlarini tilga oldi.



### Ma'lumot uchun

Dunyodagi eng qadimiy, shu bilan birga, doimiy faoliyatda bo'lgan universitet Al-Qarovin oliy o'quv muassasasi hisoblanadi. Ushbu oliy o'quv dargohi Marokashning Fas shahrida joylashgan bo'lib, unga milodiy 859-yili Fotima al-Fixriy ismli ayol asos solgan. Bu ilmli ayol boy savdogar oilasidan bo'lgan. Mazkur universitet aynan shu oilaning mablag'lari hisobiga bunyod etilgan.

Universitetda diniy bilimlar, sarf va nahv ilmlari, nutq san'ati, mantiq ilmi, tibbiy intizom, matematika, astronomiya, kimyo, tarix va geografiya kabi fanlardan dars o'tilgan.

Al-Qarovin eng qadimiy va ish faoliyatini to'xtovsiz davom ettirib kelayotgan universitet ekanini YUNESKO ham e'tirof etgan. Eng qadimiy oliy ta'lim dargohi sifatida Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan.



### Darsdan ijobiy saboq chiqarib



1. Bir kunda qancha qaror qabul qilishingizga e'tibor berganmisiz? Masalan, bugun dars qilaymi, yo'qmi? Avval qaysi ishni qilishim kerak? Qo'limdan kelarmikan? Nima qilsam ekan?

2. Qabul qilgan qaroringiz hayotingizni butunlay o'zgartirib yuborishi mumkinligini o'ylab ko'rganmisiz?

3. Oldingizga qo'ygan maqsadlaringizni amalga oshirish uchun qanday qarorlar qabul qilishingiz kerak? Qabul qilishingiz mumkin bo'lgan qarorlar ro'yxatini tuzing. Ularni oila a'zolaringiz bilan muhokama qiling.

4. O'z qaroringizni himoya qilish uchun asosli dalillar keltiring. Bunda o'zingizda mavjud imkoniyatlar yetarli ekanini isbotlab bering. Masalan, chet tilini yaxshi bilaman va shu yo'nalishda bilim olishim mumkin. Novvoylik qo'limdan keladi, o'zimning novvoyxonamni ochaman...

5. Al-Qarovin universitetining ochilishiga nima sabab bo'lgan?

6. Bugungi mavzumiz qahramonlarini umumlashtiruvchi jihatlar va fazilatlari haqida fikr bildiring.

7. Mavzudagi qahramonlar o'ziga xos fazilatlari bilan yana qanday kasblarni egallashi mumkin edi, deb o'ylaysiz? Nima uchun?

8. Tarixda va bugungi kunda muvaffaqiyatga erishgan ayollar haqida taqdimot tayyorlang.

## 30-MAVZU: MEN TANLAGAN YO'L



### Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Yuksak ma'naviyatli insonga xos bo'lgan fazilatlarni sanab bering.
2. Sharq donishmandlarining "Eng katta boylik bu – aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu – bilimsizlikdir!" degan hikmati sizning hayotingizda qanday ahamiyatga ega?
3. Orzularingizni amalga oshirishda oldingizga qanday maqsadlar qo'ydingiz? Sizning maqsadlaringiz oilangiz farovonligi uchun qanchalik ahamiyatli?

### Mulohaza uchun



Aziz o'quvchi!

Siz 11 yil davomida qalbida, yuragida jasorat hissi nihoyatda kuchli bo'lgan, har qanday murakkab vaziyatda ham o'zini ayamay Vatani uchun ibratli ishlarni amalga oshirgan insonlar hayoti bilan tanishdingiz. Aynan ana shunday odamlarning ma'naviy fazilatlari tufayli ezgu his-tuyg'ular, muqaddas va ulug' tushunchalar dunyoda hanuz barqaror bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda turli g'oyaviy xurujlarga qarshi turish, halol yashash, o'z oilasi va shu orqali mamlakat rivojiga hissa qo'shish, Vatani taqdiriga daxldor bo'lishning o'zi katta jasoratdir. Albatta, shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'zligini asrab qolib, "Hazrati inson" degan nomga sazovor bo'lish oson emas. Buning uchun har daqiqada fidoyi bo'lish, har bir boshlangan ishga mas'uliyat bilan yondashish, halol yashash, vijdon amrini hayot tamoyiliga aylantirishning o'zi kifoya qiladi. Halollik shunday bir sehrli kalitdirki, aynan u taraqqiyot eshiklarini ochadi. U inson vijdonining posboni, ruhini poklaydigan, kamolotga boshlaydigan, irodasini mustahkamlaydigan katta kuchdir.

Ana shundagina har qanday marralarni egallash qo'lingizdan keladi.



### Ma'naviyat xazinasidan

Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardan qo'rqmaydi.

*Abu Ali ibn Sino*

### Darsdan ijobiy saboq chiqarib



Hayotingizda quyidagi kichik bo'lsa-da, katta ahamiyatga ega bo'lgan qoidalarga amal qiling:

- Manmanlikka berilmang, doimo hurmatda bo'lasiz.
- Hech kimga hasad qilmang, farovonlik va xotirjamlik topasiz.
- Birovning haqqiga xiyonat qilmang, baxt va saodatga erishasiz.



## BILIB QO'YKI, SENI VATAN KUTADI!

G'afur G'ulom

*Sen bu kun sinfda shod yurak bilan  
Sinov navbatini kutib turasan.  
A'lo mamlakatning a'lo farzandi,  
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!*

*Globusda bo'lgan har kichik nuqta  
Millionlab qondoshga Vatan albatta.  
Baxtiyor xalqimiz yashar abadiy,  
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!*

Natija

Matonat


Maqsad

Orzu

Bilim

Fazilat





*She'rdir, lirika, balki oddiy til,  
Xalqlarning tillari bir xil emas, bil!  
Diplomat bo'larsan, shu bugun, endi,  
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!*

*Fanlar ko'p, fanlar bor o'rganishga kuch:  
Yerda yur, suvda suz, osmonlarda uch.  
Hammasidan a'lo, barchadan oldin,  
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!*



# MUNDARIJA

## I BOB. OILAVIY QADRIYATLAR

1-mavzu: Vatan taraqqiyotiga men ham mas'ulman.....	4
2-mavzu: Erkin va farovon hayot mazmuni.....	10
3-4-mavzu: Dadil qadamlar bilan katta hayot sari.....	14
5-mavzu: Oila mas'uliyati, sha'ni va qadri.....	21

## II BOB. INSON MA'NAVIYATI

6-mavzu: Ibrat maskani.....	25
7-mavzu: Bag'rikenglik.....	29
8-9-mavzu: Ksenofobiya .....	36
10-11-mavzu: Missionerlik – yoshlar kelajagiga tahdid.....	42
12-13-mavzu: Kibermakonda axborot iste'moli madaniyati.....	50
14-15-mavzu: Dunyo dinlarida tinchlik g'oyasi.....	57

## III BOB. GO'ZAL FAZILATLAR

16-17-mavzu: Tuyg'ularning xilmaxilligi.....	65
18-mavzu: Nafosat va ma'naviyat.....	72
19-20-mavzu: Surat va siyrat.....	78
21-22-mavzu: Etiket.....	89

## IV BOB. SHAXSIY RIVOJLANISH

23-24-mavzu: Renessans poydevori.....	95
25-26-mavzu: Halollik vaksinasi.....	104
27-28-mavzu: Havas qil va oldinga intil.....	111
29-mavzu: Mehnatidan qadr topganlar.....	118
30-mavzu: Men tanlagan yo'l.....	123

Tarbiya [Matn]: 11-sinf uchun darslik / D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Islomov, D. Rahimjonov, D. Ruziyeva, Z. Zamonov, O. Mahmudov, S. Shermuhammedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova.  
– Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.

ISBN 978-9943-7523-6-8

UO’K 373.3.016:17(075.3)

KBK 87.7ya72

*O’quv nashri*

D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Islomov, D. Rahimjonov, D. Ruziyeva,  
Z. Zamonov, O. Mahmudov, S. Shermuhammedova, S. Akkulova,  
N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova

## **TARBIYA 11**

**BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI**

Umumiy o’rta ta’lim maktablarining  
11-sinf o’quvchilari uchun darslik

Yangi nashr

Muharrir *Xurshidbek Ibrohimov*  
Dizayner-sahifalovchi *Ravshan Malikov*  
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*  
Rassom *Behzod Zufarov*

Bosishga 2021-yil 04-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>8</sub>.  
Ofset qog’ozi. “Cambria” garniturasida ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog’i 14,88. Nashr tabog’i 12,63.

Adadi **000 000** nusxada. Buyurtma № **950-21**.

**“O’qituvchi” ????? ?????.**  
**Toshkent shahri, ???????? ko’chasi.**

### Darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqalar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlarga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.